



**TASHKENT STATE  
UNIVERSITY OF ECONOMICS**

VOLUME 7 / 2024

**LABOR ECONOMICS**

# **MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI**

ilmiy elektron jurnali

**LABOUR ECONOMICS AND  
HUMAN CAPITAL**

scientific electronic journal

**2025 yil 1-son**

Volume 4, Issue 1, 2025



**МЕХНАТ ИҚТISODIYOTI  
VA INSON KAPITALI**  
**ISSN: 3030-3117**



**LABORECONOMICS.UZ**

**МЕХНАТ ИҚТISODIYOTI VA INSON KAPITALI**

*№ 1-2025*

**ЭКОНОМИКА ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ  
КАПИТАЛ**

**LABOR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL**

“Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 328/3-sonli qarori bilan ro‘yxatga olingan.

**Muassis:** “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy maktabi.

**Tahririyat manzili:**

100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi,  
49 uy

**Elektron manzil:** [ilmiymaktab@gmail.com](mailto:ilmiymaktab@gmail.com)

**Jurnal web-sayti:** [www.laboreconomics.uz](http://www.laboreconomics.uz)

**Bog‘lanish uchun telefonlar:**

+998998818698

**Tahririyat Kengashi raisi:****(Chairman of the Editorial Board)**

Abduraxmanov Qalandar Xodjayevich, O'zFA akademigi

**Tahririyat Kengashi a'zolari:****(Members of the Editorial Board)**

Toshqulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof.  
Yusupov Axmadbek Tadjiyevich, i.f.d., prof.  
Sharipov Kongratboy Avezimbetovich, t.f.d., prof  
Raifkov Kudratilla Mirsagatovich, i.f.d., prof  
Xalmuradov Rustam Ibragimovich, i.f.d., prof  
Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.  
Nazarov Sharofiddin Xakimovich, i.f.d., prof.  
Jumayev Nodir Xasiyatovich, i.f.d, prof.  
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof.  
Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof.  
Zokirova Nodira Kalandarovna, i.f.d., prof.  
Xudoyberdiyev Zayniddin Yavkachevich, i.f.d., prof.  
Muxiddinov Erkin Madorbekovich, i.f.f.d., (PhD)  
Xolmuxammedov Muhsinjon Murodullayevich, i.f.n., dots.  
Amirov Lochinbek Fayzullayevich, i.f.f.d., (PhD), dots.  
G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich, i.f.d., (DSc), dots.  
Shakarov Zafar Gafarovich, i.f.f.d., (PhD)

**Jamoatchilik Kengashi a'zolari:****(Community Council members)**

Bred Bodenxauzen (AQSh)  
Jon Ankor (Buyuk Britaniya)  
Odegov Yuriy Gennadevich (Rossiya Federasiyasi)  
Keynz Miller (AQSh)  
Sung Dong Ki (Koreya Respublikasi)  
Masato Xivatari (Yaponiya)  
Gerxard Feldmayer (Germaniya)  
Eko Shri Margianti (Indoneziya)  
Ahmed Mohamed Aziz Ismoil (Misr)  
Rohana Ngah (Malayziya)  
Sharifah Zanniyerah (Malayziya)  
Teguh Dartanto (Indoneziya)  
Nur Azlinna (Saudiya Arabistoni)  
Muhammed Xoliq (Pokiston)  
Alisher Dedaxonov (Toshkent)

**Mas'ul muxarrir (Editor-in-Chief):** G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich

**Veb-administrator (Web admin):** Musayev Xurshid Sharifjonovich

**MUNDARIJA (CONTENTS)****MEHNAT BOZORI VA MEHNAT MUNOSABATLARI**

<b>S.B.G'oyipnazarov</b>	<i>Сунъий интеллектнинг меҳнат бозори ва иш билан бандликка бўлган таъсири .....</i>	5-16
<b>I.A.Bakiyeva</b>	<i>Барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашда меҳнат унумдорлигини ошириш масалалари .....</i>	17-26
<b>S.P.Qurbonov</b>	<i>Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining aholi unumli bandligini oshirishdagi ahamiyati .....</i>	27-36
<b>O.Q.Xatamov</b> <b>T.T.Xalikov</b>	<i>Raqamli texnologiyalar assosida oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarni bandligini ta'minlash mexanizmlarni takomillashtirish.....</i>	37-47
<b>N.R.Saidov</b>	<i>Ish o'rinlari barqarorligini ta'minlash: muammolar va istiqbollar .....</i>	48-55
<b>F.O'.Masharipov</b>	<i>Малакали кадрлар тайёрлаш мақсадида касбий таълимда халқаро таълим дастурларини жорий этиш .....</i>	56-70
<b>S.Sh.Matkarimova</b>	<i>Yoshlarga xorijiy tillarni o'qitish orqali mehnat bozorida malakali kadrlar tayyorlash: muammolar va yechimlar .....</i>	71-80
<b>T.M.Bobojonov</b>	<i>Yashil iqtisodiyotning ahamiyati va bandlik imkoniyatlari .....</i>	81-94

**INSON KAPITALI**

<b>Ye.R.Kim</b>	<i>Подходы к оценке состояния человеческого капитала в стране .....</i>	95-107
-----------------	---	--------

**INSON TARAQQIYOTI**

<b>B.B.Mardonov</b> <b>J.S.Pardayev</b>	<i>Таълим хизматларининг мохияти, ижтимоий-иқтисодий аҳамияти .....</i>	108-116
<b>R.Z.Muxammadiyev</b>	<i>Ўзбекистонда давлат тиббий суғуртаси: ютуқ ва камчиликлар .....</i>	117-126
<b>Y.X.Turdiyeva</b>	<i>Финансовая поддержка государственно-частного партнерства: новый взгляд на дошкольное образование .....</i>	127-133

**KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH**

<b>G'.R.Adashov</b>	<i>Роль показателя совокупного дохода в сокращении бедности в Узбекистане .....</i>	134-141
---------------------	---	---------

**MIGRATSIYA**

<b>K.M.Habibullayev</b>	<i>Yuqori malakali mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojni baholash ko'rsatkichlari .....</i>	142-155
-------------------------	--	---------

**INSON RESURSLARINI BOSHQARISH**

<b>O'X.Abdukarimov</b>	<i>Ўзбекистон давлат фуқаролик хизмати тизимида инсон ресурсларини ривожлантириш: миллий тажриба ва замонавий тенденциялар .....</i>	156-165
------------------------	--	---------

<b>S.S.Abdullayev</b>	<i>Раҳбар ходимларнинг бошқарув фаолияти самарадорлигини баҳолашга бўлган илмий ёндашувлар .....</i>	166-178
-----------------------	--	---------

<b>M.G'.Abdurazzoqov</b>	<i>Strategik boshqaruvning mazmuni va uning ishlab chiqarish korxonalaridagi ahamiyati .....</i>	179-186
--------------------------	--	---------

**TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH**

<b>M.X.Saidova</b>	<i>Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi asosida biznes rivojlanish jarayonlarini statistik va ekonometrik tahlil qilish .....</i>	187-193
--------------------	---	---------

<b>X.F.To'xtayeva</b>	<i>Analysis of the transformation of employment in the tourist services market of Uzbekistan and the state of its regulation .....</i>	194-204
-----------------------	--	---------

<b>Sh.S.Qorriyeva</b>	<i>O'zbekistonda yashil moliyalashtirishni rivojlantirishning xorij tajribasi .....</i>	205-219
-----------------------	---	---------

<b>O.R.Meyliyev K.X.Gofurova</b>	<i>Raqamli transformatsiya bilan yashil moliyalashtirishning uyg'unligi .....</i>	220-231
--------------------------------------	---	---------

<b>A.N.Kaxorova</b>	<i>Sanoat tarmoqlarining tarkibiy tuzilishini takomillashtirishning nazariy asoslari .....</i>	232-239
---------------------	--	---------

<b>N.O.Jumaniyazov M.Y.Umarov R.B.Otamurodov</b>	<i>Fundamental issues of modern finance in the context of a green economy .....</i>	240-247
--	---	---------

<b>M.T.Kurbonbekova Z.A.Xamidova S.B.Xujaxonova</b>	<i>Qoraqolpog'iston Respublikasida milliy turizmni rivojlantirishda hunarmandchilikni o'rni (hunarmandchilikni rivojlantirish misolida) .....</i>	248-254
---	---	---------

<b>U.U.Raxmatullayev</b>	<i>O'zbekiston mintaqaviy iqtisodiyotida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishdagi muammolar .....</i>	255-264
--------------------------	--	---------

<b>N.Sh.Dexkanova Y.F.Najmiddinov</b>	<i>Sanoat korxonalarida energiya intensivligi va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili .....</i>	265-276
---	--	---------



## MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



### СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТНИНГ МЕҲНАТ БОЗОРИ ВА ИШ БИЛАН БАНДЛИККА БЎЛГАН ТАЪСИРИ

**Гойипназаров Санжар Баходирович**

и.ф.д.(DSc), Тошкент давлат иқтисодиёт университети  
“Меҳнат иқтисодиёти” кафедраси мудири,

e-mail: [s.goyipnazarov@tsue.uz](mailto:s.goyipnazarov@tsue.uz)

ORCID: 0000-0002-8818-5251

DOI: [https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2\\_iss1/a144](https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a144)

**Аннотация.** Ушбу мақолада меҳнат бозори ва иш билан бандлик масалалари сунъий интеллект таъсири нуқтаи назаридан кўриб чиқилади. Бунда асосий эътибор сунъий интеллектнинг меҳнат бозорининг муҳим унсурлари бўлган иш билан бандлик имкониятлари, иш хақи ва меҳнат унумдорлигини ошириш таъсирига қаратилади. Мақолада муаллиф томонидан сунъий интеллект ва автоматлаштиришни меҳнат бозорига таъсирини ўрта жихати кўриб чиқилади. Дастлаб, сунъий интеллектнинг иш ўринларини алмаштириш эффекти, яъни меҳнат жараёнида инсон меҳнатини ўрнини босувчи машиналардан фойдаланишни назарда тутувчи ўзгаришлар тадқиқ қилинади. Шунингдек, сунъий интеллект ва автоматлаштириш меҳнат унумдорлиги (унумдорликни ошириш эффекти) ва ишчи кучига бўлган талабга қандай таъсир қилиши мумкинлиги (қайта тиклаш эффекти) услубий жиҳатдан кўриб чиқилади.

**Калит сўзлар.** сунъий интеллект, меҳнат бозори, меҳнат унумдорлиги эффекти, иш ўринларини алмаштириш эффекти, янги иш ўринларини яратувчи қайта тиклаш эффекти.

### ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА РЫНОК ТРУДА И ЗАНЯТОСТЬ

**Гойипназаров Санжар Баходирович**

Доктор экономических наук (DSc),

Ташкентский государственный экономический университет

Заведующий кафедрой «Экономика труда»

**Аннотация.** В статье рассматриваются вопросы рынка труда и занятости с точки зрения влияния искусственного интеллекта. Основное внимание уделяется влиянию искусственного интеллекта на расширение возможностей трудоустройства, заработную плату и производительность труда, которые являются важными элементами рынка труда. В статье автор рассматривает три аспекта влияния искусственного интеллекта и автоматизации на рынок труда. Во-первых, будет изучен эффект замещения рабочих мест искусственным интеллектом, то есть изменения в рабочем процессе, которые подразумевают использование машин для замены человеческого труда. В нем также

методологически рассматривается, как искусственный интеллект и автоматизация могут влиять на производительность труда (эффект повышения производительности) и спрос на рабочую силу (эффект замещения).

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, рынок труда, эффект производительности труда, эффект замещения рабочих мест, эффект восстановления создания рабочих мест.

---

## **THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE ON THE LABOR MARKET AND EMPLOYMENT**

**Goyipnazarov Sanjar Bakhodirovich**

DSc, Tashkent State University of Economics

Head of the "Labor Economics" department

**Abstract.** This article examines the issues of the labor market and employment from the perspective of the impact of artificial intelligence. The main focus is on the impact of artificial intelligence on important elements of the labor market, namely employment opportunities, wages, and labor productivity. The author examines three aspects of the impact of artificial intelligence and automation on the labor market. First, the job replacement effect of artificial intelligence is studied, that is, changes that involve the use of machines to replace human labor in the labor process. It also examines methodologically how artificial intelligence and automation can affect labor productivity (productivity increase effect) and the demand for labor (regeneration effect).

**Keywords:** artificial intelligence, labor market, labor productivity effect, job replacement effect, regeneration effect that creates new jobs.

### **Кириш**

Саноат инқилоби бошлангидан бери инсоният жамияти технологик инқилобнинг тўртта босқичидан ўтди ва ҳар бир технологик ўзгаришни автоматлаштириш технологиясининг чуқурлашиши деб ҳисоблаш мумкин. Сунъий интеллект (СИ) тўртинчи саноат инқилобининг асосий йўналишларидан бири бўлиб, механик технология, электр энергияси технологияси ва ахборот технологияларини ўзгартириш билан бир қаторда рақамли иқтисодиёт саноатини ўзгартириш ва модернизация қилишга хизмат қилади.

Сунъий интеллектни жорий этиш меҳнатга бўлган талаб, меҳнат унумдорлиги, иш билан бандлик ҳамда ялпи ички маҳсулот каби энг муҳим иқтисодий кўрсаткичларга глобал даражада таъсир кўрсатади. Сунъий интеллект технологиялари меҳнатнинг хусусияти ва иш жойларини ўзгартиради. Машиналар ҳозир одамлар томонидан бажарилаётган ишларнинг катта қисмини ўз зиммасига олади, ҳатто улар уддасидан чиқа олмайётган вазифаларни ҳал этишга қодир бўлиши бўйича тадқиқотлар мавжуд.

Назарияда ушбу муаммолар хусусида турли фикрлар билдирилишига қарамаздан, кейинги ўн йил давомида сунъий интеллектга асосланган



маълумотлар кўпгина мамлакатларда, шу жумладан Ўзбекистонда ҳам иш билан бандлик ва иш ҳақи камайиши ғоясини тасдиқламади. Айрим тадқиқотлар сунъий интеллектнинг иш ҳақиға ижобий таъсирини назарда тутди, бунда ана шу иш ҳақининг ортиши юқори иш ҳақи оладиган касблар ва таълим даражаси юқори бўлган ходимларда кузатилади. Ана шу ходимлар ўз меҳнати натижасига кўшимча равишда сунъий интеллектдан фойдаланган ҳолда ушбу самара келтирган фойдага шерик бўлади.

### **Мавзуга оид адабиётлар таҳлили**

Сунъий интеллектнинг меҳнат бозорига таъсири бўйича мавжуд адабиётларни иккита кенг тоифага бўлиш мумкин: пессимизм ва оптимизм. Пессимистларнинг фикрига кўра, сунъий интеллектнинг ўрнини босувчи таъсири жуда муҳим бўлиб, иш билан бандликка салбий таъсир кўрсатади. Ушбу олимларнинг аргументлари бир неча ўтмишдаги тадқиқотлар ҳисоб-китобларига асосланади: Frey va Osborne (2013) Америка Қўшма Штатларидаги жами бандликнинг 47% автоматлаштиришдан сўнг йўқ бўлиб кетганини, айниқса хизмат кўрсатиш соҳасида бандликнинг катта қисми таъсирланганлигини тахмин қилмоқда. компьютерлаштириш орқали.[1] Bowles (2014) ҳисоб-китобларига кўра, Европа Иттифоқидаги иш жойларининг 54 фоизи компьютерлаштиришга таъсир қилади [2]. Бундан ташқари, Acemoglu va Restrepo (2017) Қўшма Штатлардаги саноат автоматизациясидан энг кўп зарар кўрган ҳудудларда 1990 ва 2000 йилларда иш билан бандлик ва иш ҳақи сезиларли даражада пасайганлигини аниқладилар, бу уларнинг фикрича, автоматлаштирилган ишлаб чиқаришнинг заиф маҳсулдорлиги ва тикланиш таъсири билан боғлиқ [3].

Оптимистлар, аксинча, сунъий интеллектнинг унумдорлиги ва тикловчи таъсири алмаштириш таъсирини қоплашдан кўра кўпроқ бўлишига ишонишади. Масалан, Lawrence ва бошқалар (2017) сунъий интеллектни автоматлаштириш жуда катта ижобий ташқи таъсирга эга, деб ҳисоблайдилар (ҳосилдорлик эффектлари ва тикланиш эффектлари), бу алмаштириш эффектларининг салбий таъсирини бартараф қилади ва ўзига хос "ижодий ҳалокат" сифатида қаралиши мумкин. яъни автоматлаштириш ишларни ўзгартириши мумкин, уларни йўқ қилиши мумкин эмас.

Кўпгина олимлар, шунингдек, сунъий интеллект ва рақамли теъхнологиялар каби инновациялар бандликка ижобий таъсир қилади деган фикрни қўллаб-қувватлайди. Иқтисодчи олим Блум ва унинг илмий жамоаси ҳисоб-китобларга кўра, сунъий интеллект теъхнологиясининг кундалик ҳаётга кенг интеграциялашуви туфайли 2022 ва 2030 йиллар оралиғида дунё миқёсида 734 миллиондан ортиқ янги иш ўрни яратилади [4].



Бҳолат (2020) яна шуни таъкидлайдики, тарихан янги технологиялар юқори сифатли ва арзонроқ товарлар ва хизматларни яратганлиги сабабли, муайян тармоқлардаги иш билан таъминланган йўқотишлар кўпинча умумий реал даромаднинг ўсиши билан қопланади, бу эса одамларнинг ихтиёрида бўладиган даромаднинг ошишига олиб келади ва талабни янада рағбатлантиради; янги маҳсулотлар, шу билан ушбу тармоқларда ишчи кучига бўлган талабни оширади.

Сунъий интеллектнинг меҳнат бозори ва иш ўринларига таъсири ҳамда уларнинг ўзига хос ечимлари бўйича ҳамда уларнинг ўзаро таъсир механизмларини Т.Гриэс [5] ва П.Капеллининг[6] илмий тадқиқотларида чуқур ўрганилган. Рақамли иқтисодиёт ва сунъий интеллектни жорий этиш шароитларида инсон капиталини ривожлантиришга доир рақамли кўникмаларни ривожлантириш масалалари МДҲ олимлари Е. В. Ширинкина ва Н.Р. Кельчевскаяларнинг илмий тадқиқот ишларида ўз аксини топган[7].

Ўзбекистонда сунъий интеллект ва уни жорий этиш шароитларида меҳнат бозори трансформацияси, рақамли иқтисодиётшароитида инсон капиталини ривожлантириш, аҳолини иш билан бандлигини таъминлаш, масалалари акад. К.Х.Абдураҳмонов ва унинг илмий мактабида кенг ва кўп ёқлама тадқиқ қилинмоқда[7].

Яна бир меҳнат иқтисодчиси Жарахи меҳнат жараёнида сунъий интеллект ва инсон ўртасидаги муносабатларни таҳлил қилиб, яқин истиқболда иш жойидаги кўплаб меҳнатга оид қарорлар машиналар томонидан амалга оширилиши мумкинлигини тахмин қилади [8].

Оксфорд университети томонидан амалга оширилган тадқиқотлар яқин 20 йил ичида АҚШдаги барча иш жойларининг 47% тўла автоматлаштирилишини кўрсатди. Шунингдек, жами ходимларнинг 40% эса роботлар билан алмаштирилади. Шу билан бирга иқтисодчилар, юқорида қайд қилинганидек, сунъий интеллектнинг тараққий этиши янги иш жойларини ҳам кескин ортишига ва ходимларнинг фаровонлиги янада яхшиланишига хизмат қилади деган фикрдалар. Умуман, тадқиқотчиларнинг фикрига қараганда, сунъий интеллект бир маромли, зерикарли ишларни ўз зиммасига олади, бу иш жойларида банд бўлган ходимларнинг малакалари оширилиб, улар ижодий ишлар билан машғул бўлади [9].

McKinsey Глобал Институти томонидан олиб борилган тадқиқот шуни кўрсатадики, 2030 йилга бориб, бутун дунё бўйлаб ходимларнинг камида 14 фоизи рақамлаштириш, робототехника ва сунъий интеллект ривожланиши туфайли ўз карьераларини ўзгартиришга мажбур бўлиши мумкин.

ХВЖ (Халқаро валюта жамғармаси) прогнозига кўра, ривожланган мамлакатларда сунъий интеллектнинг иш билан бандликка таъсири тахминан 60% ни ташкил қилади.

Аввало, сунъий интеллект технологияси одамларга автоматлаштириш ва ақл-идрок орқали баъзи такрорланувчи ва зерикарли вазифаларни бажаришга ёрдам беради, инсон меҳнати самарадорлигини оширади ва меҳнат харажатларини камайтиради. Инсон юқори даражадаги фикрлаш ва қарор қабул қилишни талаб қиладиган иш соҳаларига кўпроқ вақт ва куч сарфлаши ва шу билан ўз меҳнат қобилияти ва рақобатбардошлигини ошириши мумкин.

Технологияни қўллашнинг дастлабки босқичида сунъий интеллект технологияси иккита экстремал секторга сезиларли таъсир кўрсатади - технологик жиҳатдан илғор тармоқлар ва технологик жиҳатдан қолақ секторлар, бу технологик жиҳатдан илғор тармоқларда юқори малакали ишчи кучига талабнинг ошишига олиб келади, шу билан бирга технологик жиҳатдан қолақ тармоқларда паст малакали ишчилар ўрнини босади.

#### **Тадқиқот методологияси**

Мазкур тадқиқотда бир қатор онлайн маълумотлар базаларидаги илмий манбаларда ўз аксини топган рақамли иқтисодиёт ва сунъий интеллект технологияларини меҳнат бозори ва иш билан бандликка бўлган таъсирини ўрганиш масалаларига таалуқли эмпирик ва концептуал тадқиқотлар ўрганилди ва улардаги илмий ёндашувлар тизимлаштирилди. Шунингдек, тадқиқот ишида тизимли таҳлил, мантиқийлик, индукция ва дедукция, анализ ва синтез, қиёсий таҳлил, монографик таҳлил ва гуруҳлаш усуллари қўлланилди.


#### **Таҳлил ва натижалар**

Сунъий интеллектни жорий этиш меҳнатга бўлган талаб, меҳнат унумдорлиги, иш билан бандлик ҳамда аҳоли даромадлари каби энг муҳим иқтисодий кўрсаткичларга глобал даражада таъсир кўрсатади. Сунъий интеллект технологиялари меҳнатнинг хусусияти ва иш жойларини ўзгартириб боради. Машиналар ҳозир одамлар томонидан бажарилаётган ишларнинг катта қисмини ўз зиммасига олмоқда, ҳатто улар инсонлар уддасидан чиқа олмаётган вазифаларни ҳал этишга қодир бўлиши бўйича тадқиқотлар мавжуд.

Роботлар, ашёлар интернетини ва кенг қамровли маълумотларни таҳлил қилиш каби ақлли ишлаб чиқариш омиллари меҳнат талаби ва таклифи динамикасини қайта шакллантирмоқда. Сунъий интеллект баъзи касбларнинг ўзгариши, бошқаларини эса йўқолиш эҳтимоли туфайли бутун меҳнат бозорига сезиларли таъсир кўрсатади. Бу эса, сунъий интеллект ва автоматлаштириш жараёнларининг меҳнат бозорига

таъсирининг назарий (концептуал) моделини кўриб чиқиш имконини беради (1 - расм).


1-расмда ифодаланган концептуал модел сунъий интеллектнинг меҳнат бозорига таъсирини ифода этиб, ҳам ижобий (янги касбларнинг пайдо бўлиши), ҳам салбий (автоматлаштириш туфайли иш ўринларининг йўқолиши) нуқтаи назарни асослайди. Биринчи ҳолат иш ўринлари сонини оширади иккинчиси эса, уни қисқартиради, бу эса, ўз навбатида ишсизликнинг кўпайишига олиб келиши мумкин. Ишсизликнинг кескин ортишига йўл қўймаслик учун ходимларда рақамлаштириш туфайли меҳнат бозорида талаб юқори бўлган янги кўникмаларни ривожлантиришни бошлаш керак.



Бир неча ўн йиллар олдин Интернет технологияси пайдо бўлганида, одамлар Интернет катта кўламдаги ишсизликни келтириб чиқишидан хавотирда эдилар, лекин аслида Интернет кўп сонли иш ўринларини яратилишига сабаб бўлди. Сунъий интеллект томонидан бошқариладиган тўртинчи sanoat инқилоби ҳам ишлаб чиқариш ва инсонларнинг турмуш тарзини ўзгартиришда давом этади, аммо у кенг кўламли ишсизликка олиб келмайди. Бу фикрни Тошкент лавлат иқтисодиёт университетининг “Меҳнат иқтисодиёти ва инсон капитали” илмий мактаби, шунингдек, Г.В.Плеханов номидаги Россия иқтисодиёт университетининг Тошкент филиали ҳузуридаги “Меҳнат иқтисодиёти” кафедраси томонидан сунъий интеллектнинг меҳнат унумдорлиги, иш билан бандлик ва иш ҳақиға

таъсири тўғрисидаги тадқиқотлари ҳам тасдиқламоқда. Яъни, тадқиқотлар натижаси сунъий интеллект меҳнат унумдорлигини ошириши ва кўпроқ янги иш ўринларини яратиш таъсирига эгаллиги бўйича илмий хулосалар шаклланган.

Сунъий интеллектни меҳнат бозорига таъсири асосан учта жиҳатдан кўриб чиқилади. Биринчиси, *иш ўринларини алмаштириш эффекти* ҳисобланиб, меҳнатни алмаштиришда кўпроқ роботлар иштирок этишини англатади ва бу таъсир ҳар доим ишчи кучига бўлган талабни камайтиради. Иккинчиси, *ижобий унумдорлик эффекти* бўлиб, сунъий интеллект харажатларни пасайтиради ва саноат тармоқлари ўртасида унумдорлик ва юқори малакали ишчи кучига бўлган талабни оширади. Ва ниҳоят, *қайта тиклаш эффекти* ишчиларни автоматлаштирилган вазифалардан автоматлаштирилмаган вазифаларга ўтказди ва шу билан улар янги вазифаларни бажаришга ихтисослашиш учун шароит яратади. (2-расм).




**2-расм. Сунъий интеллектни меҳнат бозорига таъсирининг уч жиҳати**

Сунъий интеллектнинг меҳнат бозори, иш билан бандлик ва меҳнат унумдорлигига таъсирини ўрганар эканмиз, албатта унинг турли ривожланиш босқичларида иш ўринларини алмаштириш нуқтаи назаридан қандай эҳтимолий таъсирларга эга бўлиши ҳақида ҳам мулоҳаза юритиш ўринлидир. (3-расм)

Ривожланишнинг биринчи босқичида сунъий интеллект меҳнат бозоридаги механик кўникмаларни талаб қилувчи иш ўринларини ўрнини эгаллайди. Бу босқич, асосан, сўнгги йилларда кўп кузатилаётган воқелиқдир. Кўриш мумкинки, асосан механик ишларда ишлайдиган ва нисбатан малакасиз ишчилар иш топишда анча қийин вақтни бошдан кечирмоқда. Кенгроқ ифодаланганда, сунъий интеллектнинг иш ўринларини алмаштириш қобилияти инсон меҳнатига бўлган талабни механик кўникмалардан юқори аналитик кўникмаларга ўтказди ва механик вазифаларни машиналарга қолдиради. Ушбу ҳолатда, ишчилар

юқори аналитик кўникмалардан фойдаланадиган касбларга ўтиш учун ўз малакаларини оширишлари керак бўлади.



**3-расм. Сунъий интеллектнинг иш ўринларини алмаштириш эффекти босқичлари**

Сунъий интеллект ривожланишининг биринчи босқичида инсонлар учун аналитик кўникмалар механик кўникмалардан кўра қиёсий устунликка эга эди. Шу сабабли сунъий интеллект ривожланишининг иккинчи босқичида аналитик кўникмалар сунъий интеллектнинг инсон интеллектига нисбатан қиёсий устунлигига айлана бошлади. Шу ўринда аналитик кўникмалар қандай кўникмалар эканлигини изоҳлаб ўтиш жоиз. Аналитик кўникмалар шахнинг муаммони чуқур ўрганиш ва унга алоқдор сабаб ва омилларни аниқлаш учун текшириш ва мантиқий ечим топиш қобилиятини англатади. Мисол учун, маркетинг таҳлиliga академик таълимда ҳам, бизнес оламида ҳам талаб кучли эканлигини кўриш мумкин. Бундай кўникмалар замонавий иқтисодиётнинг турли соҳаларида муҳим ҳисобланади. Бугунги кунда сунъий интеллектнинг аналитик дастурлари (AI analytics) катта кўламдаги ахборотларни қайта ишлаш ва таҳлил қилишга ихтисослаштирилмоқда. Сунъий интеллектнинг аналитик дастурлари машинада ўрганиш (machine learning) алгоритмларига асосланади, улар оддий хатти-ҳаракатларнинг турли намуналарини юқори аниқликда ўрганишга қодир ва ўзгарувчилар ўртасидаги боғлиқликни таҳлилчи амалга ошириши деярли мумкин бўлмаган тарзда аниқлайди. Шундай қилиб, аналитик кўникма талаб қилувчи иш ўринлари тўғридан-тўғри янада ривожланган СИ томонидан алмаштирилиши мумкин.

5-босқичда СИ барча инсонлар меҳнатини алмаштиради ёки инсон ишчилари билан тўлиқ тўлиқ интеграция бўлиши мумкин. Бу босқичда сунъий интеллект тўртта интеллектда ҳам камида одамлар каби ақлли бўлди. СИ инсонлар каби фикрлаши ва ҳис қилиши мумкинлиги сабабли, у барча вазифаларни/ишни ўз зиммасига олиш қобилиятига эга. Шунинг учун, одамлар ва машиналар ўртасидаги энг яхши ҳолат бу уларнинг биргаликда муаммосиз ишлашидир.

Сунъий интеллектнинг иш билан бандликдаги асосий афзалликларидан бири - бу мунтазам ва такрорланадиган вазифаларни автоматлаштириш, меҳнат қилувчиларни янада мураккаб ва ижодий ишларни бажаришга эътибор қаратишга имкон беришидир. Бу меҳнат унумдорлиги ва фаолият самарадорлигини ошириш, шунингдек, корхоналар учун харажатларни тежаш имконини беради. Шунингдек, сунъий интеллект тўғри қарор қабул қилишга ҳамда инсон ҳаёти ва мамлакат иқтисодиёти учун муҳим бўлган таълим, соғлиқни сақлаш, молия, ва транспорт каби соҳаларда хатоларни камайтиришга ёрдам беради.

Бундан ташқари, сунъий интеллект маълумотлар бўйича олимлар (data scientists), машина ўрганиш муҳандислари (machine learning engineers) ва СИ ахлоқшунослари (AI ethicists) каби янги касблар ва тармоқларни яратишга ёрдам бериши мумкин. Ушбу касблар махсус кўникма ва билимларни талаб қилади ва СИ технологияси ривожланишда давом этар экан, келажакда тобора муҳим аҳамият касб этиши мумкин.

Сининг потенциал афзалликларига қарамай, иш билан бандлик ва меҳнат бозорига таъсири билан боғлиқ жиддий муаммолар ва хавотирлар ҳам мавжуд. Асосий ташвишлардан бири мунтазам ва такрорланадиган вазифалар кенг тарқалган соҳаларда иш жойини алмаштириш эҳтимоли юқорилигидир. Мисол учун, сунъий интеллект технологияси маълумотларни киритиш, монтаж линияси иши ва мижозларга хизмат кўрсатиш каби вазифаларни автоматлаштириши мумкин, бу эса инсон ишчиларининг ишини йўқотишига олиб келиши мумкин.

Яна бир камчилик - ишчиларнинг меҳнат бозорида долзарблигини сақлаб қолиш учун янги технологияларга мослашиш ва янги кўникмаларга эга бўлиш зарурати. Бу, айниқса, кекса ишчилар ёки таълим ва таълим дастурларига кириш имконига эга бўлмаганлар учун қийин бўлиши мумкин. Бундан ташқари, СИ технологияси билан ишлаш ва ривожлантириш учун зарур кўникмаларга эга ишчилар етишмаслиги мавжуд бўлган малакалар бўшлиғининг ортиб бориши хавфи мавжуд.

Ва ниҳоят, сунъий интеллектнинг иш жойидаги мавжуд адолатсизликлар ва тенгсизликларни давом эттириши ёки ҳатто кучайтириши мумкинлиги ҳақида хавотирлар мавжуд. Бу, айниқса, СИ



алгоритмлари инсонларнинг айрим гуруҳларини жинси, ирқи ёки ижтимоий-иқтисодий ҳолати каби омилларга қараб камситиши мумкин бўлган ишга ёллаш каби соҳаларда айниқса долзарбдир.

1-жадвалда Тошкент Давлат иқтисодиёт университетининг “Меҳнат иқтисодиёти ва инсон капитали” илмий мактаби ҳамда Г.В.Плеханов номидаги Россия иқтисодиёт университетининг Тошкент филиали ҳузуридаги “Меҳнат иқтисодиёти” кафедраси олимлари сунъий интеллект технологилари билан алмаштирилиши эҳтимоли энг паст ва энг юқори бўлган айрим касблар тўғрисидаги маълумотни тақдим этганлар.

**1-жадвал**

**Сунъий интеллект технологилари билан алмаштирилиши эҳтимоли энг паст ва энг юқори бўлган айрим касблар**

<b>Рейтинги</b>	<b>Касб тури</b>	<b>Алмаштириш имконияти (%)</b>
<b>Алмаштириш имконияти паст бўлган касблар</b>		
1	Сунъий интеллект бўйича олим ва тадқиқотчи	0.10
2	Тадбиркор	0.22
3	Психолог, судя ва ҳуқуқшунослар	0.26
4	Диний уламолар	0.35
5	Меҳмонхона ва туризм менежери	0.41
6	Бош директор, HR менежерлари	0.52
7	Бош маркетинг директори	0.64
8	Соғлиқни сақлаш хизмати соҳасидаги менежерлар	0.76
9	Таълим муассасалари экспертлари	0.89
10	Махсус фан ўқитувчилари	0.98
<b>Алмаштириш имконияти юқори бўлган касблар</b>		
1	Йиғиш линияси ишчиси ва сифат инспектори	96.2
2	Телемаркетолог	97.3
3	Бухгалтер, иш хақи ҳисобчиси	98.0
4	Банк ёки почта бўлими ходими	95.4
5	Молиявий хизматлар ходимлари	94.8
6	Қўнғироқ маркази оператори	99.2
7	Дастурий таъминот инспектори	93.2
8	Машинист ёки ёзув ходимлари	99.1
9	Грейдер ёки тафсилотчилар	97.6

Умуман олганда, ривожланишнинг ҳозирги босқичида сунъий интеллект билан алмаштирилиши мумкин бўлган касбларнинг аксарияти монотон, такрорланадиган, механик ва қоидаларга асосланган касблардир. Аксинча, инсон табиатан ижодий, шахслараро муносабат, мослашувчан, чаққонлик ва интуитив қарорлар қабул қилиш қобилиятига эга бўлиб, улар ҳали ҳам сунъий интеллектга нисбатан афзалликларга эга.

Сунъий интеллект ҳақиқатан ҳам паст даражадаги ишчи кучининг ўрнини босади, лекин корхоналар юқори малакали истеъдодларга бўлган талабни оширади. Келажакда ходимларни ишсизлик билан таҳдид қиладиган фақат роботлар эмас. Энг муҳими шундаки, ходимлар асосий рақобатдош устунликларнинг йўқлиги сабабли йўқ бўлиш хавфига дуч келишади. Шу сабабли, ишчи кучи сифатини ошириш бандлик муаммосини ҳал қилишнинг асосий ютуқ йўналиши ҳисобланади. Ортиқча ишчи кучи ўз билим ва малакасини ошириши, рақобатбардошлиги ва мослашувчанлигини ошириши, замон тараққиётига мослашиши керак бўлади.

### **Хулоса**

Хулоса ўрнида, СИнинг иш билан бандлик ва меҳнат бозорига таъсири мураккаб ва кўп қиррали бўлиб, унинг афзалликлари ва муаммоларини ҳисобга олиш керак. Сунъий интеллект меҳнат унумдорлиги, самарадорлик ва қарорлар қабул қилишни яхшилаш потенциалига эга бўлса-да, иш жойларини алмаштириш, малакалардаги бўшлиқларни юзага келиши ва нотўғри қарашлар ҳақида хавотирларни ҳам ортишига сабаб бўлади. Корхоналар, сиёсатчилар ва таълим ходимлари учун ушбу муаммоларни ҳал қилувчи стратегия ва ечимларни ишлаб чиқиш ва СИ фойдалари жамият бўйлаб тенг тақсимланишини таъминлаш учун биргаликда ишлаши муҳим. Бунга таълим ва ўқитиш дастурларига инвестициялар, СИ алгоритмларида ноҳолисликни камайтириш ва шаффофликни яхшилашга қаратилган саъй-ҳаракатлар ва сунъий интеллект технологияси туфайли кўчирилган ишчиларни қўллаб-қувватлаш сиёсати киради. Охир оқибат, сунъий интеллектнинг иш билан бандлик ва меҳнат бозорига таъсирини муваффақиятли бошқаришнинг калити меҳнат қилувчилар ва жамият фаровонлигини биринчи ўринга кўядиган ҳамкорлик ва фаол ёндашув бўлади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Frey, C., & Osborne, M. (2013). The Future of Employment. How Susceptible Are Jobs to Computerization? Working Paper, Oxford: Oxford Martin.
2. The computerisation of European jobs Jeremy Bowles, Bruegel, 17th July 2014.
3. Daron Acemoglu, Pascual Restrepo. Robots and Jobs: Evidence from US Labor Markets. Journal of Political Economy Volume 128, Number 6 June 2020.
4. Gries, T. and W. Naudé (2018), “Artificial Intelligence, Jobs, Inequality and Productivity: Does Aggregate Demand Matter?”, IZA Discussion Paper Series, Vol. 12005, <http://ftp.iza.org/dp12005.pdf>;

5. Cappelli, P. (2020), “The consequences of AI-based technologies for jobs”, R&I Paper Series, No. 4, European Commission, <http://dx.doi.org/10.2777/348580>;

6. Абдурахманов К.Х. Трансформация рынка труда в условиях внедрения искусственного интеллекта. экономика труда Том 10, Номер 2, Февраль 2023. Russian Journal of Labor Economics ISSN 2410-1613;

11. Jarrahi, M. H. (2018). Artificial intelligence and the future of work: Human-AI symbiosis in organizational decision making. In: Business Horizons. [online]. Vol. 61, No. 4, 2018, pp. 577–586.

12. Гогитидзе, К. Искусственный интеллект – угроза или помощник для челове-ства? // <http://www.bbc.com/russian/features-38931070>.

13. D. E. Bloom, M. McKenna, and K. Prettnner, “Demography, Unemployment, Automation, and Digitalization: Implications for the Creation of (Decent) Jobs, 2010–2030 (No. w24835),” National Bureau of Economic Research, <https://doi.org/10.1093/oxrep/grq038>, 2018.



## MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



### БАРҚАРОР ИҚТИСОДИЙ ЎСИШНИ ТАЪМИНЛАШДА МЕХНАТ УНУМДОРЛИГИНИ ОШИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Бакиева Ирода Акбаровна

ТДИУ, доцент

DOI: [https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2\\_iss1/a145](https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a145)

**Аннотация.** Ушбу мақолада меҳнат унумдорлигининг мамлакат иқтисодиётини ривожлантиришдаги роли ва уни ошириш зарурати назарий жиҳатдан асосланган асосланган. Ўзбекистон иқтисодиёти тармоқ ва соҳаларининг ялпи қўшилган қиймат хажми ўзгариши динамикаси ёритилган. Ялпи қўшилган қиймат, иш билан бандлар сони ҳамда меҳнат унумдорлиги кўрсаткичларининг ўсиш суръатлари статистик маълумотларни умумлаштириш ва математик ҳисоб-китоблар ёрдамида солиштирма таҳлил қилинган. Хорижий мамлакатлардаги вазият билан солиштирган ҳолда республика тармоқ ва соҳаларидаги меҳнат унумдорлигини ўсиши ҳолатига иқтисодий баҳо берилган ва уни ошириш имкониятлари бўйича айрим хулосалар қилинган.

**Калит сўзлар:** меҳнат унумдорлиги, иқтисодий ўсиш, ялпи қўшилган қиймат, иш билан бандлик, иш ўринлари, меҳнат унумдорлигини ошириш омиллари ва заҳиралари

### ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТИ ТРУДА В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА

Бакиева Ирода Акбаровна

ТГЭУ, доцент

**Аннотация.** В данной статье теоретически обоснована роль производительности труда в развитии экономики страны и необходимость ее повышения. Освещена динамика изменения объемов валовой добавленной стоимости в отраслях экономики Узбекистана. С использованием обобщения статистических данных и математических расчетов проведен сравнительный анализ темпов роста валовой добавленной стоимости, показателей занятости и производительности труда. Изучен показатель роста производительности труда в зарубежных странах. На основе полученных результатов анализа состояния роста производительности труда в Узбекистане и опыта зарубежных стран сделаны некоторые выводы о возможностях ее повышения.

**Ключевые слова:** производительность труда, экономический рост, валовая добавленная стоимость, занятость, рабочие места, факторы и ресурсы повышения производительности труда.

## ISSUES OF INCREASING LABOR PRODUCTIVITY IN ENSURING SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH

**Bakiyeva Iroda Akbarovna**

TSUE, Associate professor

**Abstract.** The article theoretically substantiates the role of labor productivity in the development of the country's economy and the need to increase it. The dynamics of changes in the volumes of gross added value of sectors and industries of the economy of Uzbekistan are highlighted. Using the generalization of statistical data and mathematical calculations, a comparative analysis of the growth rates of gross added value, employment indicators and labor productivity is carried out. An economic assessment of the state of growth of labor productivity in industries and sectors of the republic's industry is given in comparison with the situation in foreign countries and conclusions are made on the possibilities of its increase.

**Key words:** labor productivity, economic growth, gross value added, employment, jobs, factors and resources for increasing labor productivity.

### Кириш

Меҳнат унумдорлигини ошириш бизнеснинг барқарор ривожланишини таъминлаш ва муносиб иш ўринларини яратиш учун жуда муҳим бўлиб, уларнинг иккаласи ҳам аҳоли турмуш даражасини яхшилашга қаратилган ҳар қандай ривожланиш стратегиясининг муҳим элементлари ҳисобланади. Худди шу концепциядан келиб чиққан ҳолда ХМТ ҳар доим бизнесни ривожлантириш ва янги иш ўринларини яратишда меҳнат унумдорлигининг муҳим ролини тан олган. 2007 йилда Халқаро меҳнат конференцияси томонидан қабул қилинган барқарор ривожланиш тўғрисидаги хулосаларда меҳнат унумдорлигини ошириш бизнеснинг рақобатбардошлигини таъминлашнинг асосий омили эканлиги ҳамда унинг барқарорлиги учун зарурлиги таъкидланган. ХМТнинг 2019 йилдаги Халқаро меҳнат конференцияси томонидан қабул қилинган меҳнат соҳасининг истиқболи тўғрисидаги юз йиллик Декларациясида ҳам меҳнат унумдорлиги истиқболда меҳнат соҳасидаги инсонга йўналтирилган ёндашувнинг асоси эканлигини таъкидланган [1].

Ўзбекистон иқтисодиётини ривожлантиришнинг узоқ муддатли стратегиясида Ялпи ички маҳсулот ҳажмини 160 миллиард долларга ва аҳоли жон бошига даромадларни 4 минг долларга етказиш [2]. параметрлари белгиланган бўлиб, бу кўп жиҳатдан меҳнат унумдорлигининг ўсиш суръатларига боғлиқ. Бироқ, “бундай ўсиш суръатларига эришиш учун мавжуд потенциалдан тўлиқ фойдаланиляптими?” - деган савол туғилиши табиий.

Иқтисодий ривожланиш даврида бозор кўрсаткичлари (фойда) устуворлиги туфайли меҳнат унумдорлигига эътибор пасайганлиги сабабли уни ўлчаш талаб қилинмаган. Аммо, ҳозирги пайтда олдинга қўйилган стартегик мақсадларга эришиш учун бошқарув органлари ҳам,

тадбиркорлик субъектлари ҳам ушбу кўрсаткични доимий ҳисоблаб бориш зарурлигини тушунишлари керак.

### **Мавзуга оид адабиётлар таҳлили**

Бутунги кунгача дунёда иқтисодий ўсишни таъминлаш, фойдани ошириш ва компанияларни ривожлантириш, истеъмол нархларини пасайтириш, ишчиларнинг иш ҳақи ва умумий аҳоли турмуш даражасини ошириш учун меҳнат унумдорлигининг муҳимлигини кўрсатадиган кўплаб илмий тадқиқотлар ўтказилган. Натижада меҳнат унумдорлиги тушунчасига нисбатан кўп қиррали ёндашувлар пайдо бўлган.

Иқтисодий категория сифатида меҳнат унумдорлигини ўрганишга бўлган ёндашувларни кузатадиган бўлсак, бу тушунчага биринчи марта инглиз классик мактаби асосчиси Вильям Петти асарида тўхталиб ўтилган бўлиб, унингча товар қиймати уни ишлаб чиқаришган сарфланган иш вақти билан ўлчаниб, қиймат миқдори меҳнат унумдорлигига боғлиқ [3].

Адам Смит ўзининг "Халқлар бойлигининг табиати ва сабаблари тўғрисида тадқиқот" китобида меҳнат унумдорлигини меҳнатнинг ишлаб чиқариш кучи билан белгилайди ва меҳнат унумдорлиги меҳнат тақсимоти туфайли ўнлаб ва юзлаб марта кўпайиши мумкинлигини таъкидлайди. А.Смит меҳнат тақсимоти жараёнини таҳлил этган ҳолда, унумли ва унумсиз меҳнат ўртасидаги фарқларни ҳам изоҳлаб берган. Бунда унумли меҳнат капитал ва фойда келтирадиган фақат моддий ишлаб чиқаришда бўлиши мумкинлиги, меҳнат унумдорлигининг ортиши меҳнат тақсимоти гагина эмас, шунингдек ишлаб чиқаришда мукамалроқ машиналарни қўллаш, ходимлар маҳорати билан боғлиқлиги асосланган [4].

Меҳнат унумдорлигини тавсифлашда Карл Маркс товар ишлаб чиқарувчиси меҳнатининг икки томонлама табиатидан келиб чиқди ва шу тариқа иқтисодий назарияга “меҳнатнинг ишлаб чиқариш кучи” ва “меҳнат сиғими” каби тушунчаларни киритди, бу эса “меҳнат унумдорлиги” каби иқтисодий ҳодисани таҳлил қилишга имкон берди [5].

Меҳнат унумдорлиги иқтисодий назарининг янги классик мактаби вакиллари томонидан ҳам чуқур ўрганилган. Улардан бири – Ж.Кларк меҳнат унумдорлигининг чўққиси назариясини яратган. У ўзининг “Бойликнинг тақсимланиши” асарида тадбиркорлар фойда олишни иложи борича кўпайтиришга ҳаракат қиладилар, шунинг учун ишлаб чиқариш сўнгги қўшимча меҳнат фойда ҳам, зарар ҳам келтирмайдиган паст меҳнат унумдорлигига эга бўлгунича кенгайтириб борилади деган хулосага келган [6].

Меҳнат унумдорлигини оширишнинг илмий асослари Ж.Кейнс, П.Друкер, П.Самуэльсон, М.Тодаро ва бошқа олимлар томонидан чуқурлаштирилган. М.Портер эса илмий муомалага мамлакатнинг умумий



унумдорлиги тушунчасини киритган. У меҳнат унумдорлигини миллий иқтисодиётнинг фақат ишлов бериш соҳаси эмас, барча тармоқларида оширишнинг аҳамиятини кўрсатган. М.Портернинг фикрига кўра, Мамлакатнинг аҳолиси жон бошига, молиявий, табиий ва бошқа ресурслари бирлигига тўғри келувчи ишлаб чиқарилган товарлар ва хизматлар қиймати билан ўлчанадиган омиллар самарадорлиги даражаси одамларнинг ҳаёт сифатини белгилайди, иқтисодий ўсишни таъминлайди ва рақобатбардошлик кўрсаткичи ҳисобланади. Жаҳон бозорида мамлакат қанчалар салмоқли мавқега эга бўлса, ушбу давлатда меҳнат унумдорлиги шунчалик тезроқ ортади [7].

Албатта хорижлик олимларнинг муаммони ўрганишга қўшган ҳиссаларини тан олган ҳолда, ватанимизнинг: академик Қ.Х.Абдурахмонов, профессорлар А.В.Вахобов, Ш.Р.Холмўминов, Х.М.Ҳакимов, М.Қ. Пардаев каби кўплаб олимларининг ҳам шу йўналишдаги илмий тадқиқотларини айтиб ўтиш ўринли бўлиб, улар меҳнат унумдорлигини турлича нуқатаи-назардан кўриб чиққанлар.

Ўрганилаётган муаммога хилма хил ёндашувлар мавжудлигини эътиборга олган ҳолда ушбу йўналишдаги энг салмоқли илмий изланишлар Академик Қ.Х.Абдурахмонов ва унинг илмий мактаб вакилларига тегишли эканлигини таъкидлаш жоиз. Қ.Х.Абдурахмонов меҳнат унумдорлигининг иқтисодий моҳиятини таҳлил этишда маҳсулот ишлаб чиқариш (хизматлар кўрсатиш) учун сафланадиган меҳнат бевосита меҳнат фаолиятини амалга ошириш пайтида сарфланаётган жонли меҳнат ҳамда моддийлаштирилган меҳнатдан, яъни аввал яратилган, ҳозир ишлаб чиқаришда фойдаланилаётган меҳнатдан иборатлигини ёдда тутиш лозимлигини таъкидлаган [3].

#### **Тадқиқот методологияси**


Илмий тадқиқотда иқтисодий воқелик ва жараёнларни ўрганишнинг турли илмий усуллари: илмий манбаларни ўрганиш асосида эмпирик таҳлиллар, қиёсий ва тизимли таҳлил, базавий ҳисоб-китоблар ва статистик гуруҳлаш усуллари қўлланди. Тадқиқот ишининг ахборот базаси сифатида Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат статистика агентлигининг маълумотлари ҳамда қатор оммавий ахборот воситаларининг интернет сайтлари материалларидан фойдаланилди.

#### **Таҳлил натижалари**

Мамлакатнинг иқтисодий ўсиши ундаги тармоқ ва соҳаларнинг ривожланишига боғлиқ. Статистик ҳисоботларда иқтисодиёт тармоқлари ва соҳаларининг ЯИМга қўшилган қиймати ҳажмини корхона ва ташкилотларнинг ҳисоботларини чуқур ўрганиш асосида аниқлаш ижтимоий меҳнат унумдорлигини ўсишидаги тўсиқларни ҳамда иш билан

бандликни ошириш бўйича мавжуд имкониятларини аниқлашга оид янги маълумотларни олишга ёрдам беради.

Республикада олиб борилаётган иқтисодий ислохотларнинг самараси ўлароқ барча иқтисодиёт тармоқларида ўсиш тенденциясини кузатиш мумкин (1-расм).



**1-расм. Иқтисодиёт тармоқларининг ялпи қўшилган қиймат ҳажми динамикаси, млрд.сўм**

Манба: [www.stat.uz](http://www.stat.uz) сайти маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган

Иқтисодиётнинг барча тармоқларининг ЯИМга қўшилган қиймати ҳажми ўрганилаётган 2017-2023 йилларда ортиб борган. Хусусан бу даврда ўсиш қишлоқ, ўрмон ва балиқ хўжалиги тармоғида 2,67 (267,6%), қурилиш соҳасида 3,68 (368,7 %), саноатда 4,43 (443,4 %) ва хизматлар соҳасида 3,7 (370,8 %) баробарга ошган. Шу билан бирга, ЯИМга ялпи қўшилган қиймат ҳажмида хизматлар соҳаси етакчилик қилмоқда. Жумладан 2017 йилда бу соҳанинг улуши 44,8 %ни ташкил қилган бўлса, 2023 йилга келиб бу кўрсаткич 46,2 %ни ташкил қилган. Республикада индустриал соҳани жадал ривожлантириш бўйича олиб борилаётган чора-тадбирлар натижасида саноатнинг улуши мос равишда 20,3 % дан 25,3 % га етган. Ўз навбатида қурилиш соҳасининг ҳам ҳиссаси ошиб борган ва мос равишда 7,1 %дан 7,4 %га етган. Қишлоқ, ўрмон ва балиқ хўжалигининг қўшилган қиймат ҳажми эса ўрганилаётган даврда аксинча пасайган ва 2017 йилда бу кўрсаткич жамига нисбатан 28,2 %дан 21,2 %га тушган. Келтирилган статистик маълумотларга асосланиб республиканинг иқтисодиёт тармоқларида вазиятга юқори баҳо бериш мумкин, бироқ “тармоқларни янада ривожлантириш имкониятлари мавжудми?” - деган савол туғилади.

2024 йил 18 октябрда макроиқтисодий кўрсаткичлар масаласида бўлиб ўтган йиғилишда Ўзбекистон ҳукумати 2030 йилги ялпи ички маҳсулот ҳажми бўйича прогнозни яхшилаб, 160 млрд доллардан 200 млрд долларгача кўтариши мумкинлиги таъкидланган [11].

Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёт тармоқларида иш билан бандлик ва меҳнат унумдорлиги кўрсаткичлари динамикаси

Кўрсаткичлар	Й и л л а р							Ўсиш суръати
	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	
Қишлоқ, ўрмон ва балиқ хўжалигининг ялпи қўшилган қиймати ҳажми, млрд.сўм	90739,8	113327,4	129885,0	150493,7	181787,7	208809,2	242916,4	267,7
Соҳада иш билан бандлар сони, минг киши	3 671,30	3 537,20	3 544,60	3 499,20	3 414,70	3 438,70	3 344,00	91,1
Меҳнат унумдорлиги, млрд.сўм	24,7	32,0	36,6	43,0	53,2	60,7	72,6	293,9
Қурилишнинг ялпи қўшилган қиймати ҳажми, млрд.сўм	22875,8	32788,4	45202,0	51927,4	63608,5	73209,4	84313,1	368,6
Соҳада иш билан бандлар сони, минг киши	1 290,00	1 205,50	1 324,60	1 305,60	1 350,80	1 314,30	1 502,20	116,4
Меҳнат унумдорлиги, млрд.сўм	17,73	27,20	34,13	39,77	47,09	55,70	56,13	316,5
Саноатнинг ялпи қўшилган қиймати ҳажми, млрд.сўм	65258,8	102879,6	145083,9	162013,3	202219,3	240210,4	289371,4	348,0
Соҳада иш билан бандлар сони, минг киши	1599,9	1598,3	1612,9	1597,7	1642,4	1630,1	1661,9	103,9
Меҳнат унумдорлиги, млрд.сўм	18,5	25,6	34,1	39,8	47,0	54,7	61,9	335,0
Хизматларнинг ялпи қўшилган қиймати ҳажми, млрд.сўм	142787,5	179081,9	229226,1	259242,1	320928,3	413565,9	529405,6	370,8
Шу соҳада иш билан бандлар сони, минг киши	6732,2	6727,5	6850,4	6622,1	6910,2	7142,6	7332,1	108,9
Меҳнат унумдорлиги, млрд.сўм	21,2	26,6	33,5	39,1	46,4	57,9	72,2	340,4

Манба: [www.stat.uz](http://www.stat.uz) маълумолари асосида муаллиф томонидан тузилган

Ялпи ички маҳсулот хажмини оширишда мавжуд имкониятлардан максимал фойдаланиш, хусусан тармоқ ва соҳаларда иш билан бандларни самарали иш жойлари билан таъминлаш орқали меҳнат унумдорлигини ошириш ҳисобига сезиларли натижаларга эришиш мумкин. Бунинг учун туб иқтисодий ислоҳотлар олиб борилаётган йиллар кесимида эришилган макроиқтисодий натижаларни иш билан бандлар сонига нисбатан ҳисоб китоб қилиш ёрдамида вазиятга ўрганишни лозим топдик (1-жадвал).

1-жадвал маълумотларидан кўриб турганимиздек, республиканинг қишлоқ, ўрмон ва балиқ хўжалиги соҳасида иш билан бандлар сони 8,9% га пасайган, қолган тармоқларда эса иш билан бандлар сонининг ошиши кузатилади. Жумладан, қурилиш соҳасида иш билан бандларнинг сони 16,4 %га, саноатда 3,4 %га, хизматлар соҳасида эса 8,9 %га ортган.

Шу билан бирга келтирилган тармоқ ва соҳалардаги меҳнат унумдорлигининг энг кўп ўсиш суръати хизматлар соҳасига (340,4%) тўғри келмоқда. Мос равишда бу кўрсаткич қишлоқ хўжалигида 293,9 %ни, қурилишда 316,5 %ни ҳамда саноатда 335,0 % ни ташкил қилган.

Келтирилган маълумотлар нимани англатади? Албатта республикада хизматлар соҳасида меҳнат унумдорлигининг юқори ўсиш суръатини ижобий баҳолаб, буни асосан рақамли технологияларнинг тез суръатлар билан жорий қилинаётганлиги натижасида шу турдаги хизматлар кўрсатишнинг ортаётганлиги, молиявий сектордаги хизматлар кўламининг кенгаяётганлиги, республикадаги туризм соҳасидаги имкониятлардан имкон қадар кўпроқ фойдаланилаётганлиги, соғлиқни сақлаш ва таълим тизимидаги олиб борилаётган ислоҳотлар натижаси билан изоҳлаш мумкин. Ушбу соҳанинг жадал ривожланиши ўз навбатида аҳоли турмуш даражасининг яхшиланишидан, даромадларнинг ортаётганлигидан далолат беради.

Шу билан бирга саноатнинг, қурилиш соҳаларининг ҳам меҳнат унумдорлигининг ўсиш суръатларини ижобий баҳолаган ҳолда, ушбу соҳалардаги ўсиш асосан киритилаётган инвестицияларнинг хажми, янги технологиялардан кенг кўламда фойдаланилаётганлиги, умуман ушбу соҳаларда яратилаётган имкониятлар билан изоҳлаш мумкин.

Жаҳон банки томонидан 2018 йилда нашр этилган “Ўзбекистонда иқтисодий ўсиш ва иш ўринларини ташкил этиш: чуқур диагностика” ҳисоботи айнан иқтисодиёт тармоқ ва соҳаларида меҳнат унумдорлигини ошириш имкониятларига бағишланган бўлиб, унда қайд этилишича “аҳолиси ўсиб бораётган Ўзбекистон учун истиқболда юқори унумли ва юқори ҳақи тўланадиган иш ўринларини яратиш иқтисодий ўсишни таъминлаш, ижтимоий барқарорликни мустаҳкамлаш ва даромадлар даражаси бўйича аҳолининг энг қуйи 40 фоизини ташкил этувчи

хонадонлар фаровонлигини янада оширишни таъминлашда муҳим аҳамият касб этади” [8].

Ўзбекистон ресурсга асосланган иқтисодиётдан унумдорликка асосланган иқтисодиётга ўтсагина юқори иш ҳақи тўланадиган унумли иш ўринлари яратилиши мумкин. Меҳнат унумдорлиги юқори бўлган иш ўринларини яратиш иқтисодий ўсиш ва турмуш даражасини оширишнинг калити ҳисобланади.

Бугунги кунда аҳоли жон бошига тўғри келадиган даромадлар энг юқори бўлган давлатларда сўнгги икки аср давомида меҳнат унумдорлигининг энг юқори ўсиши кузатилган. Бу мамлакатларда унумдорликнинг ошиши иш изловчилар учун юқори иш ҳақи тўланадиган жозибадор иш ўринларининг яратилишига олиб келди.

Ривожланган хорижий мамлакатлар тажрибасини ўрганиш натижасида айнан хизматлар соҳада меҳнат унумдорлигининг юқори эканлиги ва айнан шу соҳанинг ривожланиши мамлакатда аҳоли турмуш даражасини белгилаб бераётганлигини кўриш мумкин. Мисол таъриқасида Буюк Британия иқтисодиётини келтирсак, унда асосий иқтисодий қудратни айнан хизматлар соҳаси таъминлаб, мамлакат ЯИМ нинг 3/4 қисмини таъминлайди. Иккинчи ўринни саноат эгаллаб, ЯИМнинг 18,5 %ини шу соҳа таъминлайди. Ички озиқ-овқатга бўлган эҳтиёжнинг 2/3 қисмини қондирадиган қишлоқ хўжалиги ялпи ички маҳсулотнинг атиги 1 % таъминлайди, қурилиш соҳасининг ҳиссаси эса 6,1 %га тўғри келади [12]. Хорижий мамлакатлар тажрибасидан келиб чиқадиган бўлсак, республикада тармоқ ва соҳалардаги иш ўринларида меҳнат унумдорлигини ошириш имкониятлари жуда юқори.

### **Хулоса**

Иш ўринларидаги меҳнат унумдорлиги ва рақобатбардошлик ҳар қандай мамлакатнинг иқтисодий ривожланишини таъминлаб берувчи калит ҳисобланади. Шунинг учун тегишли соҳа ва тармоқларнинг ривожланиш йўллари белгилашда улардаги меҳнат унумдорлигини оширишнинг мавжуд заҳираларидан тўлароқ фойдаланиш имкониятларини ҳисобга олиш керак. Меҳнат унумдорлигини тез суръатлар билан ўсишини корхона ва ташкилотлар даражасида инсон капиталига, жисмоний капиталга, технологик ривожланишга инвестицияларнинг миқдор ва сифат уйғунлигига эришиш орқали таъминлаш мумкин.

Mazkur texnikumlarda mahalliy va xorijiy ish beruvchilar bilan to'lov-kontrakt asosida kadrlar tayyorlash va qisqa muddatli o'quv kurslarini tashkil etish bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzish hamda turli yoshdagi fuqarolar va ishsizlarni kasb-hunar, xorijiy tillar va tadbirkorlikka o'qitish bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslarini tashkil qilish belgilangan [2].

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Bugungi tezkor davr yoshlarni qisqa muddatda ichki va tashqi mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblarga hamda xorijiy tillarni puxta o'zlashtirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda.

Ma'lumki, ta'lim sohasidagi raqobatbardoshlikni oshirish masalasi tayyorlanadigan kadrlarning bilim va ko'nikmalari ularning shaxs sifatida shakllanishida hamda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda asosiy ijtimoiy-iqtisodiy omil ekanligi bilan izohlanadi. Shu sababli, tabiiyki, ko'plab ilmiy soha olimlari tomonidan ta'lim muammolarini, uning iqtisodiyot va jamiyat taraqqiyoti bilan o'zaro aloqadorligini doimiy tadqiq qilib keladilar.

O'zbekiston iqtisodchi olim Q.Abdurahmonov mamlakat iqtisodiyoti darajasini oshirishga intilish bo'lsa, inson resurslarining sifati muttasil oshirib borilishi kerak. Bu esa avvalo, ish beruvchilarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ta'lim standartlarini, shuningdek, bo'lajak mutaxassislarning malakasiga talablarni tayyorlashning shakllantirish va takomillashtirish imkonini yaratadi [3].



O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar A.A.Abdug‘aniev, N.Xo‘jaev, Sh.R.Holmo‘minov, X.P.Abulqosimov, D.Q.Ziyavuddinovalar mehnat bozorining demografik jarayonlar bilan bog‘liqligi, ishsizlik muammosi, mehnat bozorida sifati o‘zgarishlari borasida ilmiy izlanishlar olib borganlar.

M.Xolmuhammedov xalqaro mehnat bozorida talab va taklifning o‘zgarishi, globallashtirish va integratsion jarayon tezlashishi, raqamlashtirish, sanoatdagi texnologik inqiloblar e‘tiborga olinsa, shunga mos ravishda zamon talablariga javob bera oladigan ko‘nikma va malakaga ega, raqobatbardosh mutaxassislarini tayyorlash masalasining dolzarbligi yanada oshadi.

D.Kudbiev va Sh.Kudbievlarning maqolasida yoshlarning mehnat bozori to‘g‘risidagi bilimlarini kengaytirish, o‘z karerasini muvaffaqiyatli tashkil etish yo‘llari haqidagi tasavvurlarini oshirish ularni mehnat bozorida raqobatga yetarlicha tayyor bo‘lishiga olib keladi, ko‘pchilik yoshlarda o‘zi egallayotgan kasb-hunar imkoniyatlari to‘g‘risida yetarlicha imkoniyatlari to‘g‘risida ko‘proq hayoliy taassurotlar ustun degan xulosa qilingan.

Xorijlik iqtisodchi olimlar A.A.Nikiforova, N.I.Zadisenskaya, A.A.Gladchenko, A.V.Chirkovalarning ilmiy ishlarida mehnat bozori, bandlik va ishsizlik, potensial ishchi kuchi hamda uning mehnat bozori muhitiga o‘tkazayotgan ta‘siri masalalari tadqiq etilgan.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan xulosa qilishimiz mumkinki, yoshlarni xorijiy tillarga o‘qitish orqali ichki va mehnat bozorida malakali kadrlar tayyorlash hamda ularni bandligini ta‘minlashda ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur tadqiqot ishida mamlakatimiz hamda xorijiy rivojlangan davlatlar iqtisodchi olimlarining yoshlarni xorijiy tillarga o‘qitish orqali mehnat bozorida malakali kadrlarini tayyorlash bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari, olimlarning qarashlari hamda fikr va mulohazalari tahlil etilgan. Maqolada empirik, tasviriy statistika, guruhlashtirish, qiyosiy va dinamik tahlil tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

### **Tahlil va natijalar**

Bugungi globallashtirish va texnologik rivojlanish sharoitida xalqaro aloqalar, chet el investisiyalari va global iqtisodiyotning bir qismi bo‘lish mamlakatlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonlarda xorijiy tillarni bilish va samarali muloqot qilish ko‘nikmalari yuqori malakali kadrlar uchun ajralmas bo‘lgan talablar qatoriga kiradi.

Xususan, mehnat bozorida xorijiy tillarni egallagan mutaxassislariga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Raqobatbardosh bo‘lish, xalqaro kompaniyalar va tashkilotlarda faoliyat yuritish, chet elda ta‘lim olish va ish tajribasi orttirish imkoniyatlari yoshlar uchun yangi eshiklar ochib beradi.

Shu munosabat bilan, O‘zbekistonda xorijiy tillarni o‘rgatishning zamonaviy tizimini yaratish va takomillashtirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Yoshlarni mehnat bozoriga tayyorlashda xorijiy tillar ta’limining yuqori saviyada bo’lishi mamlakatning umumiy iqtisodiy rivoji va xalqaro integratsiyaga kirishida katta ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda butun jahon iqtisodiyoti turli xil kutilmagan o’zgarishlarni boshdan kechirayotgan bir paytda, ishchi kuchiga bo’lgan talabning doimiy miqdor va tarkib jihatdan o’zgarib turishi barcha mamlakatlar uchun bu yo’nalishda tadqiqotlar olib borilishining ahamiyatini yanada orttiradi. Chunki, iqtisodiy nazariyadan ma’lumki, ishchi kuchi ishlab chiqarish omillaridan biri hisoblanadi [4].

O’zbekistonda so’nggi yillarda xorijiy tillarni o’rganish masalasiga alohida e’tibor qaratilib, hukumat tomonidan qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Masalan, Prezident Shavkat Mirziyoevning 2024 yilda qabul qilgan qarorlaridan biri xorijiy tillarni o’rganish jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan bo’lib, ta’limda innovasion usullar va texnologiyalardan foydalanishni rag’batlantirmoqda.

Jumladan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentning “Yoshlarni xorijiy tillarga o’qitish tizimi samaradorligini oshirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi 2024-yil 27-iyundagi PQ-239-son qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan Yoshlar ishlari agentligi zimmasiga bir qancha qo’shimcha funksiyalar yuklandi. Xususan:

- yoshlarni xorijiy tillarga o’qitish jarayonlarini takomillashtirish, talab yuqori bo’lgan chet tillarini mukammal o’zlashtirish uchun sharoitlarni kengaytirish;

- xorijiy tillarni o’qitish faoliyati bilan shug’ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar, o’zini o’zi band qilgan shaxslar hamda xususiy o’quv markazlarini rivojlantirish va qo’llab-quvvatlash;

- xususiy o’quv markazlari reytingini shakllantirish hamda reytingda yuqori o’rinni egallaganlarni rag’batlantirish;

- yoshlar orasida kasb-hunar va xorijiy tillarni o’rganishni targ’ib qilish, ushbu yo’nalishdagi ijtimoiy loyihalar, ko’rik-tanlov va olimpiadalarni tashkil etish [5].

Bundan tashqari, yoshlarning xorijiy tillar bo’yicha imtihon topshirish xarajati qoplanadigan xalqaro imtihon tizimlari bo’yicha ingliz, nemis, fransuz, koreys, xitoy va yapon tillaridan kamida S1 yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi sertifikat olgan yoshlarni imtihon topshirish xarajatlarini kompensasiya qilishga qo’shimcha ravishda o’qish xarajatlarini qoplash uchun BHMning 3 baravari miqdorida bir martalik moddiy rag’batlantirish tizimi joriy etiladi.

2024-yil 1-sentyabrdan boshlab 2027-yil 1-yanvarga qadar yoshlarning nemis, fransuz, koreys, xitoy va yapon tillari bo’yicha xalqaro imtihon tizimlarida imtihon topshirish xarajatlari qoplab berilishi uchun ular tomonidan to’planishi

lozim boʻlgan ballning (sertifikat darajasining) minimal koʻrsatkichi bir pogʻona pasaytiriladi hamda mazkur xarajatlar Agentlikka ajratilgan mablagʻlar doirasida qoplanadi.

Shuningdek, umumiy oʻrta taʼlim muassasalarining sinf xonalarini taʼlim jarayonidan boʻsh vaqtda kasb-hunar va xorijiy tillarni oʻqitish faoliyatini amalga oshirish uchun toʻgʻridan-toʻgʻri shartnomalar asosida tekin foydalanish huquqi bilan xususiy oʻquv markazlariga berishga ruxsat etiladi.

2024-yil 1-oktyabrdan boshlab Agentlik har yili xususiy oʻquv markazlarining Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri kesimidagi reytingini tuzadi hamda rasmiy veb-saytida eʼlon qilib boradi.

Reyting natijalariga koʻra olis va chekka hududlarda faoliyat koʻrsatuvchi eng yuqori koʻrsatkichga ega 100 ta xususiy oʻquv markazining taʼlim jarayonida foydalanadigan bino va inshootlar uchun ijara toʻlovi xarajatlarining bir qismi Yoshlarga oid davlat siyosatini qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan kompensasiya qilinadi.

2024–2026-yillarda oliy taʼlim tashkilotlarining xorijiy til filologiyasi taʼlim yoʻnalishi boʻyicha 3 va 4-kursda tahsil olayotgan hamda kamida S1 darajadagi sertifikatga ega talabalariga umumiy oʻrta, oʻrta maxsus va kasbiy taʼlim tashkilotlarida oʻqituvchi sifatida mehnat faoliyatini amalga oshirishiga ruxsat berilishi belgilandi.

Soʻnggi yillarda yurtimizda xorijiy tillarni oʻrganishni ommalashtirish, bu boradagi faoliyatni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, yoshlarni zamonaviy kasblar va chet tillariga oʻqitish tizimini takomillashtirish borasida keng imkoniyatlar yaratildi.

Xususan, xalqaro til sertifikatini olish uchun imtihondan yuqori ball toʻplagan yoshlarga davlatimiz tomonidan xarajat toʻliq qoplab berilishi tizimi joriy etildi. Natijada, oʻtgan 3 yil ichida minglab yoshlarga 40 milliard koʻp kompensasiya puli toʻlab berildi.

Yoshlar oʻzi tanlagan yoʻnalishning etuk mutaxassisi boʻlishi yoki dunyoga chiqishi uchun xorijiy tilni puxta oʻzlashtirishi bunda bilim darajasini tasdiqlovchi xalqaro sertifikatni olishi talab etiladi.

Til oʻrganish va oʻqitish borasida dunyoning etuk olimlari tajribasida samarali natija berib kelayotgan oʻqitish metodikalari, shuningdek, xorijiy tillarni oʻqitish sohasida “bogʻcha-maktab-oliy taʼlim tashkiloti-korxonasi” tamoyilidagi uzluksiz taʼlim zanjirini joriy etish, aholining barcha qatlamlariga mos boʻlgan tilni oʻrganish boʻyicha uslubiyot va tavsiyalarni ishlab chiqishni muvofiqlashtirish singari koʻplab salmoqli ishlar bajarilib kelinmoqda.


Prezidentimiz tashabbusi bilan bugungi kunda taʼlim muassasalari, tarmoqlar va hududlarning ehtiyojidan kelib chiqib, kamida 10 ta chet tilini — ingliz, rus, nemis, fransuz, xitoy, koreys, yapon, turk, arab, fors tillarini oʻrgatishni tashkillashtirishdek dolzarb masala kun tartibiga qoʻyilgan[6].

Respublikamizdagi 207 nafar umumiy oʻrta taʼlim maktablarining xorijiy tillarga ixtisoslashtirilishi munosabati bilan ayni maktablarda xorijiy tillarni oʻqitishni tubdan isloh etish va takomillashtirish, shu bilan birga respublikamiz oliy taʼlim muassasalari qoshida xorijiy tillarni yanada chuqurroq oʻrganish uchun oʻquv markazlari tashkil etildi. Maʼlumot oʻrnida aytish joiz, 2023-yilda 12 ming 400 ga yaqin yoshlarga 21,7 milliard soʻmga yaqin mablagʻ toʻlab berildi. Bu jarayon yoshlar oʻrtasida ommalashmoqda.

Xorijiy tillarni oʻrganish insonga yangi madaniyat, bilim va yangi doʻstlar bilan tanishish, muloqotga kirishish hamda dunyoqarashni oʻstirishda yordam beruvchi eng yaxshi vosita hisoblanadi. Maʼlumotlarga koʻra, bugungi kunda dunyoda til oʻrganuvchilarning asosiy qismini 17-35 yoshdagilar tashkil qiladi.


Statistik maʼlumotlarga koʻra, 2023-yilga kelib, Oʻzbekiston mehnat bozorida xorijiy tillarni biladigan mutaxassislariga talab 30 foizga ortgan, bu esa taʼlim tizimida tub oʻzgarishlar zaruratini koʻrsatmoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi xorijiy tillarni oʻrganish jarayonini sezilarli darajada tezlashtirishi mumkin, chunki onlayn platformalar va interaktiv oʻquv materiallari talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol oʻynamoqda.

Germaniya mehnat bozoridagi hamshiralik boʻyicha mavjud ehtiyoj asosida Oliy taʼlim, fan va innovasiyalar vazirligi tomonidan Nemis tilini oʻrgatish uchun 29 ta Abu aAli ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi (tibbiyot) texnikumlarida 744 nafar oʻquvchilar bir yillik oʻquv kurslarida oʻqitildi. Shundan 52 nafari Germaniyalik ish beruvchilar tomonidan tanlab olinib Germaniyaga ishga yuborishga kelishildi.



**1-rasm. Professional taʼlim muassasalarida 2023-2024-oʻquv yilida tashkil etilgannemis tili kurslariga jalb etilgan oʻquvchilar**

Shuningdek, doimiy ravishda kasbiy ta’lim tashkilotlarida xorijiy til o’rganish istagida bo’lgan o’quvchilar xorijiy til qurslari tashkil etib borilmoqda.



**2-rasm. 2024-yilning sentyabr oyidan boshlab 80ta kasbiy ta’lim tashkilotlarida tashkil etilgan xorijiy til o’quv kurslari**

Bugungi globallasuv jarayoni va raqamli iqtisodiyotning tezkor rivojlanishi mehnat bozorida xorijiy tillarga bo’lgan talabni sezilarli darajada oshirdi. Endilikda nafaqat alohida milliy bozorlar, balki xalqaro mehnat bozori ham xodimlardan ko’p tillilikni va kommunikativ ko’nikmalarni talab qilmoqda. Xorijiy tillarni bilish nafaqat individual kadrlarning malakasini oshiradi, balki ularni turli mamlakatlar va mintaqalar bo’ylab samarali ishlashga ko’maklashadi.


Bu, o’z navbatida, global kompaniyalar, xalqaro tashkilotlar va hukumatlar uchun kadrlar tanlash jarayonida muhim omilga aylanmoqda. Xalqaro tajribalar va yondashuvlar mehnat bozorida talab etiladigan tillar va ko’nikmalarni o’rganishda katta ahamiyatga ega bo’lib, ulardan ta’lim tizimini takomillashtirishda foydalanish muhimdir.

Ingliz tili hozirgi vaqtda xalqaro miqyosda eng ko’p talab qilinadigan til bo’lib, bu tilni bilish global mehnat bozorida ishlash uchun asosiy shartlardan biri hisoblanadi. EF English Proficiency Index tadqiqotlari shuni ko’rsatmoqdaki, ingliz tilini yaxshi biladigan mamlakatlar mehnat bozorida sezilarli ustunlikka ega. Ingliz tili nafaqat xalqaro kompaniyalarda, balki texnologiya, moliya, savdo, ta’lim va boshqa ko’plab sohalarda keng qo’llaniladi. Ko’pgina davlatlar o’z ta’lim tizimlarida ingliz tilini majburiy fan sifatida kiritib, yoshlarni bu tilni yaxshi o’zlashtirishga yo’naltirmoqda.

O’zbekistonda xorijiy tillarni o’qitish sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida ta’lim sifati sezilarli darajada yaxshilanishi kutilmoqda. Bunda ta’lim tizimining xalqaro standartlarga moslashtirilishi, raqamli ta’lim resurslarini keng

joriy etish va o‘qituvchilarning malakasini doimiy ravishda oshirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonning global mehnat bozorida o‘z o‘rnini mustahkamlashi va malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish uchun xorijiy tillarni bilgan yoshlar strategik resurs hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, xorijiy tillarni o‘rgatish tizimining takomillashtirilishi va yoshlarning global talablar darajasiga etkazilishi dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.



### **3-rasm. O‘zbekistondagi xorijiy tillar bo‘yicha o‘qituvchilarning sertifikat egaligi foizi (xalqaro va milliy)**

*Manba: stat.uz ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

Bugungi kunda O‘zbekistonda xorijiy tillarni o‘rgatish jarayonidagi asosiy muammolar quyidagilar hisoblanadi. Jumladan,

- o‘quv dasturlarning zamonaviy talablarga to‘liq javob bermasligi;
- o‘qituvchilarning zamonaviy o‘qitish metodlari va texnologiyalari bo‘yicha etarli bilim va ko‘nikmalarga ega emasligi;
- xorijiy tillarni o‘rgatish jarayonida ineraktiv va texnologik vositalarning etarli darajada qo‘llanilmasligi;
- ta‘lim resurslari va darsliklarning etishmovchiligi mavjudligi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun quyidagilar taklif etiladi.

- umumta‘lim maktablar, akademik liseylar, kasbiy ta‘lim tashkilotlari va oliy ta‘lim tashkilotlarida xorijiy tillarni o‘qitish metodologiyasini qayta ko‘rib chiqish hamda xorijiy davlat tajribasini joriy etish;

- o‘quv jarayoniga raqamli texnologiyalar va interaktiv platformalarni joriy etish;



- kasbiy ta’lim tashkilotlarida xalqaro ta’lim dasturlarini joriy etish orqali xorijiy tillarga o’qitishni kengaytirish;

- xorijiy tillarni o’qitishda o’quvchilarning mustaqil ta’lim olish ko’nikmalarini rivojlantirish uchun ko’proq imkoniyatlar yaratish;

- Migratsiya agentligining Migratsiya jamg’armasi hisobidan texnikumlarda nemis, ingliz, yapon va koreys tillariga o’qitishni yo’lga qo’yish.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak ta’lim muassasalarida bitiruvchilarga xorijiy tillarni o’qitish orqali bitiruvchilarni ichki va tashqi mehnat bozorida ilg’or texnika va texnologiyaga asoslangan yuqori ish haqiga ega bo’lgan ish o’rinlarida mehnat faoliyatini amalga oshirish imkonini beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining ““O’zbekiston — 2030” strategiyasi to’g’risida” 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni[1].

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to’g’risida” 2024-yil 16-oktabrdagi PF-158-son Farmoni [2].

3. Qalandar Abduraxmonov – “Mehnat iqtisodiyoti” nazariya va amaliyot darslik. Iqtisodiyot nashriyoti. Toshkent 2019-yil [3].

4. B.Ganiev — “O’zbekistonda xususiy sektorda ishchi kuchiga bo’lgan talabning holati va uning bandlikni ta’minlashdagi ahamiyati”. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali 2022-yil may-iyun.N<sup>o</sup>00059 [4].

5. O’zbekiston Respublikasi Prezidentning yildagi “Yoshlarni xorijiy tillarga o’qitish tizimi samaradorligini oshirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi 2024-yil 27-iyundagi PQ-239-son qarori [5].

6. U.Baykabilov - “Zamonaviy ta’lim tizimida xorijiy tillarni o’qitish texnologiyasi” 2022 yil may. Multidisciplinary Scientific Journal[6].

7. G.Q.Abdurahmonova “Kichik biznesda aholini ish bilan ta’minlash” (monografiya), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2013 yil.

8. Gulnora Abduraxmonova – “Mehnat iqtisodiyoti” o’quv qo’llanma Innovasion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi. Toshkent 2020 yil.

9. A.Usmanov. O’quvchilarni kasb-hunarga maqsadli yo’naltirish istiqbolda mehnat bozoridagi muammolarni bartaraf etishning muhim omili. 2021 yil.

10. <https://www.lex.uz/uz> — O’zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

11. <https://stat.uz> — Statistika agentligining rasmiy sayti.

12. <https://edu.uz> — Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligining rasmiy sayti.



## MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



### YASHIL IQTISODIYOTNING AHAMIYATI VA BANDLIK IMKONIYATLARI

**Bobojonov To'lqinbek Maxmud o'gli**

TDIU, “Mehnat iqtisodiyoti” kafedrasida tayanch doktoranti

DOI: [https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2\\_iss1/a151](https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a151)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotning turli iqtisodiy maktab vakillarining konseptual yondashuvlari tadqiq etilgan, uning mehnat bozori va bandlik imkoniyatlariga ta'siri o'rganilgan, yashil texnologiyalar asosida ish o'rinlari yaratish yo'nalishlari tasniflangan hamda yashil bandlikni rivojlantirishning konseptual modeli ishlab chiqilgan. Ushbu modelga ko'ra, "yashil bandlik imkoniyatlari" toifasi ajratilib, uni kengaytirish hamda ish o'rinlarini yaratish bo'yicha takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar:** yashil iqtisodiyot, yashil texnologiyalar, bandlik, mehnat bozori, barqaror rivojlanish

### THE IMPORTANCE OF THE GREEN ECONOMY AND EMPLOYMENT OPPORTUNITIES

**Bobojonov Tulkinbek Makhmud ugli**

TSUE, PhD student of the Department of "Labor Economics"

**Abstract.** The article examines the conceptual approaches of representatives of different economic schools to the green economy, studies its impact on the labor market and employment opportunities, classifies job creation directions based on green technologies, and develops a conceptual model for expanding green employment. According to this model, the category of "green employment opportunities" is identified, and proposals are made for its expansion and job creation.

**Key words:** green economy, green technologies, employment, labor market, sustainable development

### ЗНАЧЕНИЕ ЗЕЛеноЙ ЭКОНОМИКИ И ВОЗМОЖНОСТЕЙ ТРУДОУСТРОЙСТВА

**Бобожонов Тулкинбек Махмуд угли**

ТГЭУ, базовый докторант кафедры Экономики труда

**Аннотация.** В статье рассматриваются концептуальные подходы представителей различных экономических школ к "зеленой" экономике, изучается ее влияние на рынок труда и возможности трудоустройства, классифицируются направления создания рабочих мест на основе "зеленых" технологий, разрабатывается концептуальная модель расширения "зеленой" занятости. Согласно этой модели определяется категория "зеленые возможности трудоустройства" и вносятся предложения по ее расширению и созданию рабочих мест.

**Ключевые слова:** зеленая экономика, зеленые технологии, занятость, рынок труда, устойчивое развитие.

## **Kirish**

So‘nggi yillarda yashil iqtisodiyot va uning mehnat bozoriga ta‘siri nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyo miqyosida dolzarb masalaga aylandi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2015-yilda belgilangan 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) ichida ekologik barqarorlikni ta‘minlash, yashil texnologiyalarni rivojlantirish va bandlik imkoniyatlarini kengaytirish muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, BRM-8 (“Barqaror iqtisodiy o‘shish, to‘liq va samarali bandlik hamda munosib mehnatni ta‘minlash”) va BRM-9 (“Sanoat, innovatsiyalar va infratuzilmani rivojlantirish”) yashil iqtisodiyot bilan bevosita bog‘liqdir.

Xalqaro mehnat tashkilotining (ILO's 2018) "World Employment and Social Outlook 2018: Greening with Jobs," ma‘lumotlariga ko‘ra, yashil iqtisodiyotga o‘tish natijasida dunyoda 2030-yilgacha kamida 24 million yangi ish o‘rni yaratilishi mumkin. Xususan, barqaror energiya, ekologik transport va chiqindilarni qayta ishlash sohalari bandlik sezilarli darajada oshishi kutilmoqda (ILO, 2021). Shu bilan birga, an‘anaviy sanoat tarmoqlarida ayrim ish o‘rinlarining yo‘qolishi ham kuzatilishi mumkin. Xalqaro Mehnat Tashkilotining (ILO) hisobotiga ko‘ra, o‘z vaqtida moslashuv strategiyalari qabul qilinsa, yashil iqtisodiyot mehnat bozori uchun faqat ijobiy natijalar keltiradi (ILO, 2019).

O‘zbekistonda ham yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va mehnat bozori transformatsiyasini qo‘llab-quvvatlash borasida muhim ishlar olib borilmoqda. 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” doirasida qayta tiklanuvchi energiya manbalari, ekologik texnologiyalar va issiqxona gazlari neytralligiga erishish bo‘yicha aniq rejalar belgilangan. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436 sonli “O‘zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha ‘yashil’ iqtisodiyotga o‘tishga qaratilgan islohotlarning samaradorligini oshirish bo‘yicha choralari to‘g‘risida”gi qarorida, “Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi” doirasida iqtisodiy o‘shishni “yashil” va inklyuziv qilish, yashil bandlik shuningdek, barcha sohalarda qayta tiklanuvchi energiya va resurs tejamkorligidan foydalanishni oshirishni ko‘zda tutadi.

PQ-436da belgilangan strategik maqsadlar quyidagicha:

Qayta tiklanuvchi energiya loyihalari. PQ-436da 2030-yilga 15 GVt quvvatga ega quyosh va shamol stansiyalarini qurish rejalashtirilgan. Xalqaro tajribaga ko‘ra (masalan, IRENA – Qayta tiklanuvchi energiya agentligi ma‘lumotlari), har 1 GVt qayta tiklanuvchi energiya quvvati o‘rnatilishi o‘rtacha 1,000-3,000 doimiy

va 10,000 ga yaqin vaqtinchalik ish o‘rinlarini yaratadi (qurilish, o‘rnatish va texnik xizmat ko‘rsatish uchun).

O‘zbekiston uchun bu taxminan 15,000-45,000 doimiy va 150,000 ga yaqin vaqtinchalik ish o‘rinlari degani bo‘lishi mumkin.

“Yashil Makon” va o‘rmon xo‘jaligi. “Yashil Makon” loyihasi doirasida yiliga 200 million daraxt ekish va 2030-yilga o‘rmon maydonini ikki baravar oshirish rejalashtirilgan. Bu daraxt ekish, parvarish qilish va monitoring uchun minglab mavsumiy va doimiy ish o‘rinlarini yaratadi. Masalan, Orolbo‘yi mintaqasida 458 ming gektar yangi o‘rmon barpo etish loyihasi mahalliy aholini jalb qilish orqali katta hajmdagi bandlikni ta‘minlaydi.

Taxminiy hisoblar bo‘yicha, har 1,000 gektarga 50-100 ishchi kerak bo‘ladi (ekish va parvarish uchun), ya‘ni 458 ming gektar uchun 23,000-46,000 ish o‘rni yaratilishi ehtimoli bor.

Energiya samaradorligi va yashil sanoat. PQ-436da 25 ta yirik korxonada energiya sarfini 20% ga kamaytirish va yashil sertifikatlar tizimini joriy etish ko‘zda tutilgan. Bu jarayon yangi mutaxassislar (energiya auditi, texnologik modernizatsiya) va ishchilarni (qayta tiklanuvchi energiya uskunalari ishlab chiqarish) talab qiladi.

O‘zbekistonning kichik va o‘rta biznesni yashil texnologiyalarga o‘tishga rag‘batlantirish siyosati ham qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratilishiga sabab bo‘ladi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish jarayoni yashil iqtisodiyot mohiyatini tushunish yondashuvlariga ta‘sir qiladi. Turli davrlarda iqtisodchi olimlar yashil iqtisodiyot tushunchasini turlicha talqin qilganlar, shu munosabat bilan tadrijiy holatdagi toifaning qator guruhlarini ajratish mumkin (1-jadval).

Jadvaldan iqtisodchi olimlarning yashil iqtisodiyot va mehnat bozori rivojlanishiga bo‘lgan munosabati o‘zgarganini ko‘rish mumkin:

Dastlabki yondashuvlar yashil iqtisodiyotni ekologik masala sifatida baholagan, keyinchalik u iqtisodiy o‘sish va mehnat bozori bilan uzviy bog‘liq jarayon sifatida qaralgan. Zamonaviy tadqiqotlar yashil texnologiyalar mehnat bozorini qanday o‘zgartirayotgani va yangi ish o‘rinlarini qanday yaratishi mumkinligini tahlil qilmoqda.

### **1-jadval**

#### **Yashil iqtisodiyot va mehnat bozoriga ta‘sir yondashuvlari**

Muallif/Tashkilot	Yondashuv	Izoh
Adam Smith (1776)	Resurslardan samarali foydalanish iqtisodiy o‘sishning muhim omili hisoblanadi.	Smithning "Millatlar boyligi" (1776) asarida samarali resurs taqsimoti iqtisodiy barqarorlik uchun muhim deb ta‘kidlangan. Bugungi kunda yashil iqtisodiyot ushbu tamoyil asosida

		shakllanmoqda.
David Ricardo (1817)	Komparativ ustunlik nazariyasi yashil texnologiyalarni joriy etishda ham qo'llanilishi mumkin.	Yashil iqtisodiyot mamlakatlarga o'z ekologik va texnologik ustunliklaridan foydalangan holda mehnat bozorini optimallashtirish imkonini beradi.
John M. Keynes (1936)	Davlat investitsiyalari yashil iqtisodiyot rivojiga turtki beradi.	Keynesning “Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi”si davlat tomonidan yashil infratuzilma va ekologik loyihalarni qo'llab-quvvatlash zarurligini ta'kidlaydi.
Joseph Schumpeter (1942)	Yashil iqtisodiyot innovatsion rivojlanish orqali shakllanadi.	Schumpeterning “Kapitalizm, sotsializm va demokratiya” asarida "Ijodiy yo'q qilish" (Creative Destruction) tamoyili yashil iqtisodiyot rivojlanishiga to'g'ri keladi – yangi texnologiyalar eski tarmoqlarni almashtiradi va yangi ish o'rinlari yaratadi.
Nicholas Stern (2006)	Iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish iqtisodiy o'sishga imkon beradi.	Sternning hisobotida (Stern Review, 2006) yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik jihatdan zarur, balki iqtisodiy jihatdan ham foydali ekani ta'kidlangan.
Paul Krugman (2008)	Yashil iqtisodiyot bozor samaradorligini oshirishi mumkin.	Nobel mukofoti sovrindori Krugmanning tahlillarida yashil iqtisodiyot innovatsiyalarni rag'batlantirishi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashi haqida ta'kidlab o'tilgan.
Jeffrey Sachs (2020)	Yashil iqtisodiyot iqlim o'zgarishiga qarshi kurashning iqtisodiy asosidir.	Sachsning tahlillariga ko'ra, yashil texnologiyalar iqtisodiy rivojlanish va atrof-muhit muhofazasi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga yordam beradi.
International Labour Organization (ILO, 2019) hisoboti	Yashil iqtisodiyot yangi ish o'rinlari yaratish imkoniyatiga ega.	ILO tadqiqotlariga ko'ra, yashil iqtisodiyotga o'tish 2030-yilgacha sof 18 million yangi ish o'rni yaratishi mumkinligi keltirilgan.
World Economic Forum, (WEF, 2020) hisoboti	Mehnat bozori yashil texnologiyalar transformatsiyasiga moslashishi kerak.	"The Future of Jobs Report 2020" hisobotida yashil iqtisodiyot mehnat bozorida talablarni o'zgartirayotgani va yangi kasblar paydo bo'layotgani ta'kidlangan.
Organization for Economic	Yashil texnologiyalar ish o'rinlarining sifatini	OECD Employment Outlook 2021 va Skills for the Future tadqiqotlari



Cooperation and Development, OECD (2021) hisoboti	oshirishga yordam beradi.	shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyotga moslashish uchun kasbiy ta'lim va qayta malaka oshirish tizimi talab etiladi.
United Nations Environment Programme (UNEP, 2011) hisoboti	Yashil iqtisodiyot global iqtisodiy inqirozdan chiqish strategiyalaridan biri.	UNEP hisobotida yashil iqtisodiyotning global barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'siri ta'kidlangan.
Rockström et al. Stockholm Barqarorlik Markazi (2017) hisoboti	Atrof-muhitni muhofaza qilish iqtisodiy tizimlar barqarorligini ta'minlaydi.	Tadqiqotda ekologik chegaralarni saqlab qolish va yashil iqtisodiyot orqali uzoq muddatli iqtisodiy o'sish mumkinligi ko'rsatib o'tilgan.
European Commission (2022) hisoboti	Yashil transformatsiya yangi sanoat tarmoqlarini shakllantiradi.	Yevropa Ittifoqining "Green Deal" dasturi doirasida yashil iqtisodiyot yangi kasblar va bandlik imkoniyatlarini yaratishi mumkinligi qayd etilgan.

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, yashil iqtisodiyot rivojlanishi nafaqat ekologik jihatdan, balki mehnat bozori nuqtayi nazaridan ham muhimdir. XMT (ILO, 2019) hisobotida keltirilishicha, 2050-yilgacha 60 millionga yaqin odam yashil iqtisodiyot sektorida ish topishi mumkin, ayniqsa, qayta tiklanuvchi energetika va atrof-muhit muhofazasi sohalarida.

Biroq, WEF (2020) ta'kidlaganidek, bu transformatsiya bilan birga an'anaviy sanoat tarmoqlaridagi ish o'rinlarining qisqarishi kuzatilishi mumkin. Shu bois, OECD (2021) tavsiyalarida ta'kidlanganidek, yangi yashil texnologiyalar asosida mehnat bozori ishtirokchilarining malaka oshirish tizimlarini takomillashtirish zarur.

### **Tahlil va natijalar**

Yashil iqtisodiyot va mehnat bozori o'zaro bog'liq bo'lib, bu jarayon iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillar bilan belgilanadi. Yashil iqtisodiyotning mehnat bozoriga ta'siri quyidagi asosiy omillar bilan bog'liq:

- Iqtisodiy omillar: Yashil texnologiyalarga sarmoya kiritish natijasida yangi ish o'rinlari yaratiladi, energiya samaradorligi oshadi, iqtisodiyotning uglerod neytralligiga o'tishi tezlashadi. International Labour Organization (ILO, 2019) ma'lumotlariga ko'ra, 2030-yilgacha yashil iqtisodiyot transformatsiyasi natijasida kamida sof 18 million yangi ish o'rni yaratilishi mumkin.

- Ijtimoiy omillar: Yashil iqtisodiyot ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga yordam berishi mumkin, chunki ekologik sohadagi bandlik odatda yuqori malaka talab qilmaydi va turli ijtimoiy guruhlar uchun ochiq bo'lishi mumkin. ILO (2021) hisobotida yashil ish o'rinlarining ijtimoiy inklyuzivligi ta'kidlangan.

- Demografik omillar: Yashil texnologiyalar va ekologik loyihalar mehnatga layoqatli aholining yangi sektorlariga talabni oshirishi mumkin. Xususan,



Yevropa Ittifoqining “European Green Deal” dasturi doirasida yoshlar va ayollar bandligini oshirishga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqilgan.

- Ta’lim va malaka darajasi: Yashil iqtisodiyotga o’tish natijasida yangi kasblar va malakalar paydo bo’lmoqda. OECD (2021) tadqiqotlariga ko’ra, yashil bandlik imkoniyatlaridan foydalanish uchun ishchilar yangi ko’nikmalarga ega bo’lishi muhim.

- Siyosiy omillar: Davlat tomonidan ekologik siyosat va yashil investitsiyalarni qo’llab-quvvatlash yashil bandlikning rivojlanishini tezlashtiradi.

- Mintaqaviy va geografik omillar: Rivojlanayotgan davlatlarda yashil iqtisodiyotni joriy etish resurs yetishmovchiligi sababli sekin kechishi mumkin. BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP, 2011) hisob-kitoblariga ko’ra, yashil iqtisodiyot rivojlanayotgan davlatlarga uzoq muddatli barqaror rivojlanish imkonini beradi.

**2-jadval**

**Yashil iqtisodiyot va mehnat bozori tahlilining konseptual yondashuvlari**

Mezonlar	Mutlaq yondashuv	Nisbiy yondashuv	Subyektiv yondashuv
Yondashuvning mazmuni	Yashil iqtisodiyotda band bo’lgan ishchilarning umumiy soni hisoblanadi. Statistika va raqamlarga asoslangan (masalan, yashil ish o’rinlari soni).	Yashil bandlikning iqtisodiy samaradorligi va boshqa tarmoqlarga ta’siri hisobga olinadi. Iqtisodiy samaradorlik va o’zaro bog’liqliklarni o’rganish (masalan, yashil iqtisodiyotning iqtisodiy tarmoqlarga ta’siri).	Ishchilar va aholining yashil iqtisodiyotga bo’lgan qiziqishi va moslashuv darajasi o’rganiladi. Ijtimoiy va psixologik omillarni tahlil qilish (masalan, aholining munosabati).
Afzalliklari	1. Aniq va sodda hisob-kitob qilish mumkin. 2. Ish o’rinlarining o’sish dinamikasi kuzatiladi.	1.Yashil iqtisodiyotning mehnat bozoriga ta’siri to’liq baholanadi. 2. Bandlikka ta’sir qiluvchi omillar chuqur o’rganiladi.	1.Yashil iqtisodiyotga o’tish bo’yicha aholining munosabati o’rganiladi. 2. Yashil mehnat sharoitlarining jozibadorligi tahlil qilinadi.
Kamchiliklari	1. Faqat raqamli ma’lumotlarga asoslanadi, bandlikning sifatini hisobga olmaydi.	1.Kichik korxonalar va norasmiy bandlik hisobga olinmasligi mumkin.	1.Subyektiv yondashuv natijalari turlicha bo’lishi mumkin.

Manba: Muallif ishlanmasi, ILO (2019) va OECD (2021) asosida

- Psixologik va falsafiy omillar: Yashil iqtisodiyotga o'tish aholining ekologik ongini rivojlantirishni talab qiladi. Rockström et al. (2017) tadqiqotlarida ekologik barqaror rivojlanish inson hayot tarzi va iste'mol odatlariga bog'liq ekani ta'kidlangan.

Yashil iqtisodiyot va mehnat bozori transformatsiyasini ilmiy asosda tahlil qilish uchun mehnat bozori va yashil bandlikni o'lchashning turli yondashuvlari mavjud (2-jadval).

Muayyan mamlakatlarda yashil iqtisodiyotning mehnat bozoriga ta'siri.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyotga o'tish global mehnat bozorida sezilarli o'zgarishlarga olib kelmoqda. Turli mamlakatlarda bu jarayon turlicha kechmoqda:

Germaniya – “Energiewende” (Energetik burilish) siyosati doirasida qayta tiklanuvchi energiya sohasida 340 mingdan ortiq ish o'rni yaratildi (Federal Employment Agency, 2021).

Xitoy – Xitoy hukumati yashil energiya tarmoqlariga katta sarmoya kiritib, 5 milliondan ortiq yangi ish o'rni yaratdi (IEA, 2022).

AQSh – “Inflation Reduction Act” doirasida 2023-yilgacha 1 million yangi yashil ish o'rni yaratish rejalashtirilgan (U.S. Bureau of Labor Statistics, 2022).

Yashil iqtisodiyotning rivojlanishi global mehnat bozorida sezilarli o'zgarishlarga olib kelmoqda. ILO (2019) ma'lumotlariga ko'ra, yashil iqtisodiyotga o'tish natijasida kamida 24 million yangi ish o'rni yaratilishi kutilmoqda, biroq ba'zi an'anaviy tarmoqlarda ish o'rinlarining qisqarishi ham kuzatilishi mumkin. Bu jarayonni boshqarish uchun davlat siyosati, texnologik innovatsiyalar va malaka oshirish dasturlari muhim rol o'ynaydi.

Mehnat bozori va yashil iqtisodiyot integratsiyasi natijasida yangi kasblar shakllanmoqda. World Economic Forum (WEF, 2020) hisobotida ta'kidlanganidek, yashil texnologiyalar talab qiladigan kasblar qatoriga quyidagilar kiradi:

- Qayta tiklanuvchi energiya bo'yicha muhandislar va texnik mutaxassislar
- Barqaror infratuzilma loyihalarini boshqaruvchilar
- Atrof-muhit mutaxassislari va ekologlar
- Karbon izini monitoring qilish bo'yicha mutaxassislar
- Qayta ishlash va chiqindilarni boshqarish sohasida ishlovchilar

Biroq, yashil iqtisodiyotning rivojlanishi faqat yangi kasblar yaratish bilangina cheklanmaydi. ILO (2021) ma'lumotlariga ko'ra, mavjud kasblarning aksariyati yashil texnologiyalar va ekologik standartlarga moslashishni talab qiladi. Masalan, qurilish, transport, qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarish sohalarida ishlovchilar energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish va uglerod izini pasaytirish bo'yicha qo'shimcha ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

Shu bilan birga, yashil iqtisodiyotning mehnat bozoriga taʼsirini baholash uchun asosiy mezonlar quyidagilardir:

Ish oʻrinlarining umumiy oʻsish dinamikasi – yangi yashil ish oʻrinlarining soni va ularning anʼanaviy tarmoqlardagi ish oʻrinlariga nisbati.

Mehnat unumdorligi va malaka darajasi – yashil texnologiyalarning ishlab chiqarish samaradorligiga taʼsiri va ishchilarning qayta malaka oshirish ehtiyojlari.

Mintaqaviy taqsimot – yashil iqtisodiyotning rivojlanishi qaysi hududlarda bandlikni oshirayotganini aniqlash.

Ekologik mehnat sharoitlari – yashil ish oʻrinlarining xavfsizlik darajasi va ishchilarning ekologik muhitga moslashishi.

Davlat investitsiyalari va ragʻbatlantirish dasturlari – yashil iqtisodiyotni qoʻllab-quvvatlash uchun ajratilayotgan mablagʻlarning natijadorligi.

Oʻzbekistonda 2023-yilda qabul qilingan “Yashil iqtisodiyotga oʻtish strategiyasi” doirasida yangi ish oʻrni yaratish rejalashtirilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, 2023). Ushbu strategiya doirasida:

Qayta tiklanuvchi energiya sektorida bandlikni oshirish

Ekologik standartlarga javob beruvchi ishlab chiqarish tarmoqlarini kengaytirish


Mehnat bozori ishtirokchilarini qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini rivojlantirish

Atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bogʻliq kasblarga boʻlgan talabni oshirish

Bu jarayonda, albatta, mehnat bozoridagi mavjud noaniqliklarni ham hisobga olish lozim. ILO (2022) maʼlumotlariga koʻra, yashil iqtisodiyotga moslashish jarayoni notoʻgʻri boshqarilsa, qisqa muddatli bandlik muammolari yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli, davlat siyosati yangi tarmoqlarni qoʻllab-quvvatlash bilan birga, anʼanaviy sanoat tarmoqlarida band boʻlgan ishchilarning qayta malaka oshirishini ham taʼminlashi lozim.

Natijalar shuni koʻrsatadiki, yashil iqtisodiyot bandlikka ijobiy taʼsir koʻrsatib, uzoq muddatda barqaror iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladi. Shu sababli, Oʻzbekiston mehnat bozorini yashil iqtisodiyot sharoitiga moslashtirish boʻyicha strategik reja ishlab chiqishi zarur. Davlatning ushbu yoʻnalishdagi siyosati nafaqat ekologik barqarorlikni oshirish, balki yangi ish oʻrinlarini yaratish orqali iqtisodiy rivojlanishni ragʻbatlantirishga xizmat qiladi.

Ushbu model yashil iqtisodiyot va mehnat bozori oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni tasvirlab, ishchilar, bandlik turlari, malaka talablari kabi asosiy omillarni oʻz ichiga oladi (1-rasm).



**1-rasm. Yashil iqtisodiyot va bandlik imkoniyatlari konseptual modeli**

Manba: Muallif ishlanmasi

Yashil iqtisodiyot turli sohalarni qamrab oladi, jumladan, qayta tiklanuvchi energiya, barqaror qishloq xo'jaligi, ekologik toza ishlab chiqarish, chiqindilarni boshqarish va yashil transport. Ushbu sektorlar bandlik imkoniyatlarini oshirib, an'anaviy sanoat tarmoqlarida ish o'rinlarining qisqarishiga ham sabab bo'lishi mumkin.

Bandlik holati turli yo'nalishlarga bo'linadi. Yashil sektorda band bo'lganlar qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni boshqarish yoki ekologik qurilish sohalarida ishlaydigan ishchilardir. Yashil ish joylariga o'tish jarayonida bo'lganlar esa an'anaviy sanoatdan ekologik sohaga moslashayotgan ishchilardir. Ishsizlar esa yashil iqtisodiyot rivojlanishi natijasida yangi bandlik imkoniyatlarini qidirayotgan shaxslardir.

Ta'lim va malaka darajasi yashil iqtisodiyotda ishlash uchun muhim hisoblanadi. STEM diplomi (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) qayta tiklanuvchi energiya va ekologik innovatsiyalar uchun zarur. Kasb-hunar o'qishlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, texnik mutaxassislarni tayyorlashda

qo'llaniladi. Ish joyida o'qish esa ishchilarni yangi texnologiyalarga moslashishga yordam beradi. OECD (2021) ma'lumotlariga ko'ra, yashil iqtisodiyotga muvaffaqiyatli o'tish uchun kasbiy malaka oshirish tizimi zarur.

Daromad darajalari yashil iqtisodiyotda ishlayotgan ishchilarning tajriba va malakasiga bog'liq. Past daromad egalari oddiy ishchilar yoki texnik mutaxassislardir. O'rta daromad darajasiga ega ishchilar qurilish, chiqindilarni boshqarish va ekologik transport sohaslarida faoliyat yuritadi. Yuqori daromad egalari muhandislar, ekologik siyosatchilar va loyiha menejerlari kiradi.

Ish barqarorligi bo'yicha ish joylari uzoq va qisqa muddatli bandlik shakllariga ajratiladi. Uzoq muddatli ishlar energiya muhandisligi va ekologik loyihalar kabi sohalarga to'g'ri keladi. Qisqa muddatli shartnomalar esa mavsumiy ekologik loyihalar yoki vaqtinchalik ishlar uchun ishlatiladi. Mustaqil ishchilar (freelancerlar) esa konsalting, ekologik dizayn yoki loyiha menejmenti kabi xizmatlarni ko'rsatadi.

Mintaqaviy taqsimot yashil iqtisodiyotning geografik jihatdan qanday taqsimlanishini ko'rsatadi. Shahar hududlarida ekologik bizneslar, energiya startaplari va yashil qurilish loyihalari rivojlanmoqda. Qishloq hududlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalari va barqaror qishloq xo'jaligi sohalari kengaymoqda. Sanoat hududlarida esa ekologik ishlab chiqarish va chiqindilarni qayta ishlash tarmoqlari o'sib bormoqda.

Ushbu model yashil iqtisodiyot va bandlik o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirishga yordam beradi. Yangi bandlik imkoniyatlari yaratilar ekan, davlatlar va ish beruvchilar yangi kasblarni shakllantirish, ishchi kuchini qayta o'qitish va yashil texnologiyalarga sarmoya kiritish orqali ushbu o'zgarishlarga moslashishi lozim.

Mamlakatda ijtimoiy himoya va bandlikni qo'llab-quvvatlash borasidagi tajribaga asoslangan holda, yashil iqtisodiyot mehnat bozori ishtirokchilarining iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish uchun manzilli yondashuvni talab qiladi. Masalan, 2021-yil 28-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 250-sonli qarorida “temir daftar” tizimi orqali ijtimoiy ahvoli og'ir oilalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmi joriy etilgan. Xuddi shu kabi, yashil iqtisodiyotga moslashish jarayonida ham yangi bandlik tizimlarini shakllantirish va ekologik ish o'rinlarini yaratish uchun tizimli chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur.

Bu maqsadda yashil iqtisodiyotda band bo'lgan yoki moslashayotgan ishchilarni qo'llab-quvvatlash uchun davlat dasturlari va rag'batlantirish mexanizmlarini yaratish muhim. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, Germaniya, AQSh, Xitoy kabi mamlakatlar yashil texnologiyalarga o'tish jarayonida maxsus malaka oshirish dasturlarini joriy etgan va soliqlarni kamaytirish orqali yashil bizneslarni qo'llab-quvvatlagan.

O‘zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyot transformatsiyasini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish taklif etiladi:

"Yashil Bandlik Daftari"ni joriy etish – yashil ish o‘rinlariga mos ishchilarni qayd etish va ularga malaka oshirish dasturlarini taklif qilish.

Kasb-hunar ta‘limi tizimini modernizatsiya qilish – texnik mutaxassislar va ekologik soha bo‘yicha malakali ishchilarni tayyorlash.

Davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish – yashil bizneslar uchun soliq imtiyozlari, subsidiya va grant dasturlarini rivojlantirish.

Mehnat bozorida yashil transformatsiyani tezlashtirish – qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik infratuzilma tarmoqlarida ish o‘rinlarini kengaytirish.

Bunday chora-tadbirlar nafaqat ekologik muammolarni hal qilish, balki mehnat bozorining barqaror rivojlanishini ta‘minlash va aholining yangi iqtisodiy sharoitlarga moslashishiga yordam berishi mumkin. Shu sababli, O‘zbekiston hukumati yashil iqtisodiyotga mos bandlik tizimini yaratish bo‘yicha aniq strategiyalar ishlab chiqishi va ularni amalga oshirishni jadallashtirishi zarur.

### **Xulosa va takliflar**

Amalga oshirilgan nazariy va metodologik tahlillarga asosan, yashil iqtisodiyot va bandlik tizimini rivojlantirish O‘zbekistonda tizimli yondashuvni talab qilishi ma‘lum bo‘ldi. Bugungi kunga kelib, ish bilan band, ammo daromadi yetarli bo‘lmagan fuqarolar uchun maqsadli dasturlar ishlab chiqish o‘ta dolzarb masalaga aylangan. Yashil iqtisodiyot transformatsiyasi global mehnat bozorida katta o‘zgarishlar keltirib chiqarayotgan bo‘lsa-da, ishchi kuchining yangi talablar va texnologiyalarga moslashishi muhim omil bo‘lib qolmoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida asosiy e‘tibor inson kapitalini oshirish, sifatli ish o‘rinlari yaratish va mehnat unumdorligini oshirishga qaratilishi kerak. Ayniqsa, malakasiz ishchilarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish pandemiya davridan keyin yanada dolzarb bo‘ldi, chunki yangi iqtisodiy sharoitlar ko‘proq ekologik innovatsiyalarga asoslangan bandlikni talab qilmoqda. Shu sababli, O‘zbekiston mehnat bozorining yashil iqtisodiyot sharoitlariga moslashishiga yo‘naltirilgan quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Yashil iqtisodiyotda bandlikni rivojlantirish va malaka oshirish tizimini kengaytirish

ILO va OECD tavsiyalariga asoslanib, qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni boshqarish, ekologik qurilish va yashil transport sohalarida kasbiy malaka oshirish dasturlarini yaratish.

Yashil iqtisodiyot sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish, ayniqsa, uzoq masofadan ishlash imkoniyatlarini kengaytirish.



Korxonalar doirasida yashil iqtisodiyot tarmoqlarida ishlovchilar va ish beruvchilar o'rtasida ijtimoiy-mehnat munosabatlarini kuchaytirish.

Xalqaro mehnat standartlari asosida yashil ish o'rinlarida mehnat sharoitlarini yaxshilash va ijtimoiy himoya tizimlarini joriy etish.

Davlat tomonidan yashil iqtisodiyotga mos bandlik dasturlarini ishlab chiqish

"Yashil Bandlik Daftari"ni joriy etish – yashil iqtisodiyotda ishlash istagida bo'lgan fuqarolar uchun maxsus bandlik tizimi yaratish.

Kam ta'minlangan va past daromadga ega ishchilarga mos soliq va rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish, shu jumladan ekologik tadbirkorlikni rivojlantirish uchun subsidiya va imtiyozli kreditlarni kengaytirish.

Yuqori texnologik yashil ish o'rinlarini yaratish orqali mehnat unumdorligini oshirish.

Energiya samaradorligi, atrof-muhit muhofazasi va qayta tiklanuvchi resurslardan foydalanish sohalarida yuqori texnologik ish o'rinlarini shakllantirish.

Yashil bizneslar uchun davlat investitsiyalarini kengaytirish va davlat-xususiy hamkorlik dasturlarini ishlab chiqish.

Shunday qilib, yashil iqtisodiyot transformatsiyasini mehnat bozoriga moslashtirish strategik muhim masala bo'lib, asosiy e'tibor inson kapitalini rivojlantirish, kasbiy tayyorgarlikni oshirish va ekologik innovatsiyalar orqali yangi ish o'rinlarini yaratishga qaratilishi lozim. Bu chora-tadbirlar nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlash, balki aholi daromadlarini oshirish va O'zbekiston mehnat bozorining xalqaro talablarga moslashishiga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Adam Smith (1776) *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*. London: W. Strahan and T. Cadell.
2. Ricardo, D. (1817) *On the Principles of Political Economy and Taxation*. London: John Murray.
3. Keynes, J.M. (1936) *The General Theory of Employment, Interest and Money*. London: Palgrave Macmillan.
4. Schumpeter, J.A. (1942) *Capitalism, Socialism and Democracy*. New York: Harper & Brothers.
5. Stern, N. (2006) *Stern Review: The Economics of Climate Change*. London: HM Treasury.
6. Krugman, P. (2008) *The Return of Depression Economics and the Crisis of 2008*. New York: W.W. Norton & Company.
7. Sachs, J. (2020) *The Ages of Globalization: Geography, Technology, and Institutions*. New York: Columbia University Press.

8. International Labour Organization (ILO) (2018) *World Employment and Social Outlook 2018: Greening with Jobs*. Geneva: ILO.
9. International Labour Organization (ILO) (2019) *Working towards a Green Economy: The Employment and Labour Market Implications of Climate Change*. Geneva: ILO.
10. International Labour Organization (ILO) (2021) *World Employment and Social Outlook 2021: The Role of Digitalization and Sustainability in Labor Markets*. Geneva: ILO.
11. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD) (2021) *OECD Green Growth Strategy: Employment and Skills in a Low-Carbon Economy*. Paris: OECD.
12. United Nations Environment Programme (UNEP) (2011) *Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication*. Nairobi: UNEP.
13. World Economic Forum (WEF) (2020) *The Future of Jobs Report 2020: Green Economy and Digitalization*. Geneva: WEF.
14. International Renewable Energy Agency (IRENA) (Various years) *Renewable Energy and Jobs – Annual Review*. Abu Dhabi: IRENA.
15. International Energy Agency (IEA) (2022) *China’s Green Jobs Boom: Transitioning to Renewable Energy Employment*. Paris: IEA.
16. Federal Employment Agency (2021) *Energiewende and Labor Market Effects*. Berlin: German Federal Employment Agency.
17. U.S. Bureau of Labor Statistics (BLS) (2022) *Employment in the Renewable Energy Sector: Trends and Forecasts*. Washington, D.C.: BLS.
18. European Commission (2020) *The European Green Deal and Its Impact on Employment*. Brussels: European Commission.
19. Rockström, J., Steffen, W., Noone, K. et al., 2017. *Planetary Boundaries: Guiding Human Development on a Changing Planet*. *Science*, 347(6223), pp.1259855.
20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti (2022) *PQ-436-son qarori: 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida*, 2-dekabr. Toshkent.
**Annotatsiya.** Maqolada “Yashil” moliyalashtirishning asosiy yo‘nalishlari BMT tomonidan ishlab chiqilgan barqaror rivojlanish maqsadlariga hamda jahon iqtisodiyotini “yashil” biznesga o‘tishining zamonaviy yo‘nalishlariga muvofiq holda tadqiq etilgan. Shu bilan bir qatorda, xususiy investorlarning “yashil” loyihalarni moliyalashtirishdagi faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish, imtiyozli moliyalashtirish, kreditlash va risklarni pasaytirish chora-tadbirlari bilan bog‘liq holda qo‘llab-quvvatlash jarayonlari o‘rganilgan. Yashil iqtisodiyot loyihalariga sarmoya kiritadigan xalqaro va milliy moliya institutlar faoliyati va xorijiy mamlakatlarda “yashil” iqtisodiyotga taaluqli tashabbuslarni tartibga solishning asosiy usullari muhokama qilingan. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish dunyo mamlakatlarini rivojlantirishning asosiy, global tendensiyasiylaridan biridir, chunki tabiatni asrash, atrof-muhitni muhofaza qilish, ushbu faoliyatda ishtirok etayotgan kompaniyalarni ham raqobatbardoshligini oshiradi. Aksariyat jahon davlatlar o‘z oldiga barqaror rivojlanishning ekologik maqsadlariga erishish vazifasini qo‘ygan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun xususiy investorlar tomonidan “yashil” loyihalarni moliyalashtirishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar, moliyaviy instrument va dastaklardan foydalanilmoqda. Ushbu vaziyatda, “yashil” loyihalarni moliyalashtirishning ilg‘or xorij tajribalarini o‘rganish va shu asosda istiqbolli yo‘nalishlarni belgilash dolzarb masala hisoblanadi. Jahon mamlakatlarida “yashil” loyihalarni moliyalashtirishga oid eng so‘nggi tendentsiyalarni, “yashil” loyihalarni moliyalashtirishda xususiy investorlarni qo‘llab-quvvatlashning dastak va vositalarini hamda loyiha turlarini tavsiflash tadqiqotning asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi. Shu boisdan xorijiy mamlakatlarda “yashil” biznesni rivojlantirish, yashil banklar faoliyatini rivojlantirish va “yashil” investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning zamonaviy tendentsiyalarini tadqiq etish asosida ilmiy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishga e‘tibor qaratildi.

**Kalit so‘zlar:** yashil moliyalashtirish, yashil obligatsiya, yashil kredit, iqlim o‘zgarishi, yashil loyihalar, yashil moliyalashtirish manbaalari, yashil taksonomiya, korrelyatsion-regression tahlil, xalqaro moliya institutlari.

### ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЕННОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Корриева Шахноза Сафарбаевна**

Ташкентский государственный экономический университет,

Старший преподаватель



**Аннотация.** В статье исследуются ключевые аспекты «зеленого» финансирования в контексте целей устойчивого развития ООН и перехода мировой экономики к экологически чистому бизнесу. Рассмотрены механизмы государственной поддержки частных инвесторов, включая регулирование, льготное финансирование и снижение рисков. Анализируются роли международных и национальных финансовых институтов в инвестициях в «зеленые» проекты, а также методы регулирования «зеленой» экономики в различных странах. Обсуждаются глобальные тенденции перехода к «зеленой» экономике и использование частными инвесторами финансовых инструментов для достижения экологических целей. Также представлено изучение зарубежного опыта и рекомендации по финансированию «зеленых» проектов.

**Ключевые слова:** зеленое финансирование, зеленые облигации, зеленый кредит, изменение климата, зеленые проекты, источники зеленого финансирования, зеленая таксономия, корреляционно-регрессионный анализ, международные финансовые институты.

---

## **FOREIGN EXPERIENCE OF DEVELOPING GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN**

**Qorriyeva Shahnoza Safarbayevna**

Tashkent State University of Economics,

Senior Lecturer

**Abstract.** The article considers the main areas of "green" financing in accordance with the sustainable development goals developed by the UN and modern directions of the transition of the world economy to "green" business. In addition, the processes of supporting the activities of private investors in financing "green" projects in connection with government regulation, concessional financing, lending and risk mitigation measures are studied. The activities of international and national financial institutions investing in green economy projects, as well as the main methods of regulating initiatives related to the "green" economy in foreign countries were discussed. The transition to a "green" economy is one of the main global trends in the development of countries of the world, since nature conservation and environmental protection increase the competitiveness of companies engaged in this activity. Most countries in the world have set themselves the task of achieving environmental goals of sustainable development. To achieve these objectives, private investors use comprehensive measures, financial instruments and levers to support the financing of "green" projects. In this situation, it is relevant to study the best foreign experience in financing "green" projects and identify promising areas on this basis. The main areas of the study are the description of the latest trends in financing "green" projects in countries around the world, tools and means of supporting private investors in financing "green" projects, types of projects. Therefore, attention was paid to the development of scientific conclusions and recommendations based on the study of modern trends in the development of "green" business, the development of green banks and the financing of "green" investment projects in foreign countries.

**Key words:** green finance, green bonds, green credit, climate change, green projects, sources of green finance, green taxonomy, correlation regression analysis, international financial institutions.

## **Kirish**

Mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichida globallashuv jarayoni muhim tendentsiyalardan bo'lib, u ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy, siyosiy va texnologik sohalarda umumjahon integratsiyalashuvi va birlashuvini ta'minlaydi. Globallashuv sharoitida davlatlarning o'zaro hamkorlikdagi faoliyatining muhim yo'nalishi barqaror rivojlanish kontseptsiyasini amalga oshirish doirasida “yashil” moliya institutlarini rivojlantirish.

Ma'lumki, barqaror rivojlanish kontseptsiyasini shakllantirishning boshlang'ich nuqtasi 1992 yilda Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) tomonidan qabul qilingan “XXI asr kun tartibi” dasturi bo'ldi. 2012 yilda o'tkazilgan BMTning Barqaror rivojlanish bo'yicha sammitida (“RIO+20”), asosi “yashil” iqtisodiyot bo'lgan barqaror rivojlanish modeliga o'tish hamda “yashil” iqtisodiyotning dekarbonizatsiya, uglevodorod chiqindilarini cheklash, biosferani saqlash va tabiiy resurslarni ko'paytirish, kam uglerodli energiya manbalaridan foydalanish va resurslarni tejash, aholi turmush darajasi va daromadlarini oshirish kabi yo'nalishlari belgilandi.

BMT tomonidan 2015 yilda muhim dastur qabul qilingan bo'lib, u “Dunyomizni o'zgartirish: 2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Kun tartibi” deb nomlandi<sup>39</sup>.

BMT barqaror rivojlanish maqsadlari e'lon qilingan va tegishli hujjatlarda barqaror rivojlanish maqsadlarining asosiy ko'rsatkichlar belgilab berilgan bo'lib, ularga erishilganda dunyoning barcha aholisiga munosib turmush sharoitini ta'minlash uchun sayyoramiz resurslari saqlanib qoladi. BMT barqaror rivojlanish maqsadlari tarkibida ijtimoiy integratsiya, iqtisodiy o'sish va atrof-muhitni muhofaza qilish kabi barqaror rivojlanishning uchta asosiy jihati keltirilgan. Bu maqsadlarga erishish uchun esa texnogen yukni kamaytirish muammosini hal qilish, yirik hajmdagi investitsiyalar va tegishli moliyaviy infratuzilmani yaratishni talab etiladi.

Bugungi kunda haqiqiy investitsiyalar hajmi va “yashil” investitsiyalarga bo'lgan ehtiyoj orasida katta tafovut mavjud. Xususan, Evropa Ittifoqi mamlakatlari uchun 2020 yilda birgina energetika sohasidagi investitsion nomutanosiblik 500 million evroga baholangan<sup>40</sup>.

Xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari tomonidan olib borilgan ko'plab tahlillar natijasidan ko'rinib turibdiki, kelgusi o'n yil ichida “yashil” faoliyat sohasini rivojlantirishga o'nlab trillion dollar sarmoya kiritish va shu bilan bir qatorda moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun “yashil” moliyaviy instrumentlardan faol foydalanish talab qilinadi.

---

<sup>39</sup> Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development. <https://sdgs.un.org/2030agenda>

<sup>40</sup> Федорова Е. П. Роль государства в решении проблем развития «зеленого» финансирования. Финансовый журнал. 2020;12(4):37–51. DOI: 10.31107/2075–1990–2020–4–37–51.

Bugungi kunda “yashil” moliyalashtirish hajmining o'sish dinamikasi sezilarli darajada yuqorilaganini ko'rishimiz mumkin. Bu esa “yashil” moliyalashtirish sohasining kundan-kunga rivojlanib borayotganligidan dalolat beradi. Bunga mos tarzda “yashil” obligatsiyalar bozori yuqori o'sish salohiyati bilan ajralib turadi. Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkilotining (OECD) prognoziga ko'ra, “yashil” obligatsiyalar hajmining dollardagi qiymati 2035 yilga borib 4,7-5,6 trillion AQSh dollarigacha oshishi mumkin<sup>41</sup>.

Jahon va milliy yashil moliyalashtirishni rivojlantirishdagi yana bir asosiy dastak bu yashil banklar hisoblanadi. XX asrning 90-yillardan beri banklar birinchi navbatda ekologik, keyin esa ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish orqali barqaror rivojlanishga hissa qo'sha boshladilar. 1991- yilda Germaniyaning Deutsche Banki, Buyuk Britaniyaning National Westminster Banki, Royal Bank of Canada va Westpac Banking Corporation (Avstraliya)lar Birlashgan Millatlar Tashkilotining moliyaviy sektor operatsiyalari va xizmatlariga ekologik yondashuvlarni integratsiyalashga qaratilgan Atrof-muhitni muhofaza qilish dasturini moliyalashtirish tashabbusini qo'llab-quvvatladilar. 2020-yil boshida ushbu dastur dunyo bo'ylab 170 ga yaqin banklar, jumladan yetakchi xalqaro banklar, mintaqaviy yetakchi banklar, taraqqiyot banklari va ekologik va ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirishga ixtisoslashgan banklar tomonidan qo'llab quvvatlandi. Hozirgi kunda mamlakatkada “yashil” banklar yashil moliyalashtirishni rivojlantirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o'zgarishini oldini olish maqsadida iste'molchilarga yashil bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etmoqdalar.

Yashil moliyalashtirishni rivojlantirishda “yashil” kreditlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra, “2018-yilda “yashil” kreditlar (shu jumladan kafolatlar va akkreditivlar) hajmi 99 milliard dollardan oshganligi va 2019-yil ohirida 81 milliard dollarni tashkil etgan<sup>42</sup>.

So'nggi bir necha o'n yilliklarda O'zbekistonning jadal iqtisodiy o'sishi asosan resurslarni qazib olish hamda iqtisodiyotning tog'-kon sanoati va ishlab chiqarish tarmoqlari hisobiga ta'minlandi. Biroq, bu taraqqiyot qimmat narxga tushdi. Qazib olinadigan yoqilg'iga asoslangan og'ir energiya balansi, energiyani ko'p talab qiluvchi sanoat sektori va barcha tarmoqlar bo'yicha past energo-samaradorlik tufayli (samarasiz uy-joy fondi energiya bilan bog'liq issiqxona gazlari emissiyasining deyarli yarmini tashkil qiladi) hozirgi vaqtda mamlakat iqtisodiyoti issiqxona gazlari emissiyasi intensivligi bo'yicha dunyoda beshinchi o'rinda,<sup>43</sup> Yevropa va Markaziy Osiyoda esa eng oldinga turadi.

---

<sup>41</sup> <https://www.oecd.org/>

<sup>42</sup> . Çalıyurt K., Yüksel Ü., eds. Sustainability and management: An international perspective. Abingdon, New York: Routledge; 2016. 328 p.

<sup>43</sup> Yoqilg'i-energetika kompleksi mamlakat k. a. emissiyasining 9/10 qismini tashkil etadi (2014 yilgi ma'lumot), issiqxona gazlari emissiyasi Faktlar jadvali: O'zbekiston. <https://www.climatelinks.org/resources/greenhouse-gas->

Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlari kabi O‘zbekiston ham iqlim o‘zgarishlariga juda zaif. O‘zgaruvchan iqlim uning tabiiy kapitali, qishloq xo‘jaligi, yer va suv unumdorligiga tahdid soladi va tabiiy ofatlar xavfini kuchaytiradi. Mamlakat iqlim o‘zgarishiga zaiflik bo‘yicha 191 mamlakat ichida 96-o‘rinni egallaydi (ND-GAIN 2019). U zilzilalar hamda toshqinlarga moyil, natijada har yili o‘rtacha 1,4 million kishi ulardan azoblanadi va deyarli 3 milliard AQSh dollari miqdorida zarar ko‘riladi. Mintaqaviy tadqiqotlar<sup>44</sup> shuni ko‘rsatadiki, Markaziy Osiyo mintaqasidagi rivojlanish muammolarining qariyb 70 foizi chuchuk suv tanqisligi bilan bog‘liq. Jahon Resurslari Instituti ma‘lumotlariga<sup>45</sup>, ko‘ra O‘zbekiston suv tanqisligi ta‘siriga eng qattiq duchor bo‘lgan 25 davlat qatoriga kiradi va iqlim o‘zgarishi suv tanqisligini yanada kuchaytiradi. O‘tkir suv tanqisligi va yerlarning degradatsiyasi qishloq xo‘jaligi hosildorligiga va oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid solmoqda.

Yaqinda O‘zbekistonning ko‘plab hududlari, jumladan, Toshkent shahri, 150 yillik ro‘yxatga olingan tarixda eng kuchli, misli ko‘rilmagan qum-chang bo‘ronini boshdan kechirdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev qum-chang bo‘roni O‘zbekiston duch kelayotgan ekologik tahdidlar salbiy ta‘siri kuchayib borayotganining so‘nggi dalili bo‘lganini va bu “yashil” iqtisodiyotga o‘tish zarurati bo‘yicha muhim saboq bo‘lganini ta‘kidlagan edi. Shu boisdan ham Glazgoda bo‘lib o‘tgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha doiraviy Konventsiyasi (BMT IO‘DK) Tomonlar Konferensiyasida (TK-26) O‘zbekiston hukumati 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan issiqxona gazlari emissiyasini 2010-yildagi darajadan 35 foizga kamaytirish bo‘yicha maqsadini e‘lon qildi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun keyingi besh yil davomida bir qancha strategik hujjat va qarorlar qabul qilinib, hayotga tatbiq etildi. Ular orasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil oktabrdagi PQ-4477 qarori bilan 2019–2030-yillarda “yashil” iqtisodiyotga bo‘yicha Milliy strategiya ma‘qullandi hamda “Yashil” iqtisodiyot bo‘yicha idoralararo kengash tashkil etildi.

2021-yil avgustidan 2022-yil yanvarigacha Toshkent shahrida Jahon banki va Markaziy Osiyo mintaqaviy ekologik markazi (MOMEM) tomonidan O‘zbekiston hukumati bilan hamkorlikda yuzma-yuz uchrashuvlar va video muloqotlar formatida siyosiy muloqotlar tashkil etildi. Muloqot ishtirokchilari iqlim bo‘yicha majburiyatlarning bajarilishi va mamlakatning “yashil” iqtisodiyotga o‘tish jarayonini ko‘rib chiqdilar. Muloqotlar O‘zbekiston va Markaziy Osiyoda tarmoqlararo va mavzuli hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqdilar.

---

emissions-factsheet-uzbekistan, Jahon resurslari instituti Iqlimni tahlil qilish ko‘rsatkichlari vositasi (WRI CAIT) ma‘lumotlar bazasi asosida

<sup>44</sup> Berndtsson, R. va Tussupova, K. 2020. “The Future of Water Management in Central Asia.” Suv 12 No. 8: 2241. <https://doi.org/10.3390/w12082241>.

<sup>45</sup> Jahon resurslari institutining Aqueduct tools ma‘lumotlariga ko‘ra. <https://www.wri.org/insights/17-countries-home-one-quarter-worlds-population-face-extremely-high-water-stress>.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi va Jahon banki bilan hamkorlikda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish doirasida 6 ta ustuvor yo‘nalish va o‘zaro bog‘liq masalalarning uchta bloki belgilandi.

Bundan tashqari O‘zbekistonda ham aholi sonining ko‘payishi va sanoatlashtirishning jadallashuvi natijasida barcha resurslarga bo‘lgan ehtiyojini sezilarli darajada oshishi kabi muammolar yuzaga kelmoqda. Bu kabi muammolarga yechim topish va ularni yanada ortishini oldini olish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11-sentabr 2023-yildagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-sentabrdagi “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish jarayonini boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 514-sonli Qarorlari qabul qilindi. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi tarkibida yashil iqtisodiyotga o‘tish yashil moliyalashtirishga taaluqli bo‘lgan maqsadlar ham o‘rin egallagan. Ular quyidagilar:

- “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish, uning asosi bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko‘rsatkichlarini keskin oshirish;
- “Yashil energiya” texnologiyalarini keng joriy qilish doirasida nasos stansiyalarining elektr energiyasi iste‘molini kamaytirish;
- Respublikada egologik vaziyatni tubdan yaxshilash, inson hayotiga ta‘sir o‘tkazuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish;
- Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan “Yashil makon” umummilliy loyihasini kengaytirish;
- Iqlim o‘zgarishi salbiy ta‘sirining oldini olish va boshqalar.

Yuqorida keltirib o‘tilgan fikrlardan ko‘rinib turibdiki, yashil iqtisodiyot va uning qon tomiri hisoblanadigan yashil moliyalashtirish sohasini rivojlantirish nafaqat O‘zbekistonda, butun dunyoda bugungi kunning eng dolzarb muhim masalalaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Globalashuv iqtisodiyotning “yashil” tarkibiy qismiga asoslangan jadal ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni ta‘minlovchi va ma‘lum moliyaviy tashabbus markazlari bilan uni moliyaviy tartibga solish modelini yaratish sabablaridan biri bo‘lgan jahon moliya tizimi rivojlanish yo‘nalishlarini ham belgilab berdi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Barqaror iqtisodiy o‘sishni ta‘minlashda “yashil” loyihalarni moliyalashtirishning asosiy shart-sharoitlari va xususiyatlari, “yashil” loyihalarni moliyalashtirish manbalari ko‘plab xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan maxsus ilmiy tadqiqot sifatida o‘rganilgan bo‘lib mazkur tadqiqotlar muhim ilmiy yondoshuvlarga egadir. Jumladan, atrof-muhitni muhofaza qilishda yashil moliyaning roli va asosiy xususiyatlari, yashil moliya va investisiyalarda xususiy sektorning rolini oshirish masalalari Wang, Zhi, Taghizadeh-Hesary, Yoshinolar tomonidan tadqiq etilgan bo‘lib, ular tomonidan yashil moliya



tushunchasining umumiy tavsifi, “yashil” loyihalarni moliyalashtirishning asosiy usullari<sup>46</sup> o‘rganilgan. Shunga qaramasdan, barqaror iqtisodiy o‘shishga erishish maqsadlarini amaliy joriy etish uchun zarur bo‘lgan omillar va shart-sharoitlar yetarlicha tahlil qilinmagan. Gianfrate, Peri, Glomsrod, Wei kabi xorijiy iqtisodchilar “yashil” loyihalarni moliyalashtirishda “yashil” obligasiyalarni chiqarishning asosiy shart-sharoitlari va ular muomalasini tartibga solish masalalarini tadqiq etishgan<sup>47,48</sup>.

Ushbu tadqiqotlarda asosan “yashil” obligasiyalar muomalasini tashkil etish masalalari keng tadqiq qilingan bo‘lib, ular natijasida mualliflar “yashil” loyihalarni moliyalashtirish manbalarini kengaytirish, shuningdek, barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashda “yashil” iqtisodiyotning rolini oshirish uchun davlatning tartibga soluvchi ta‘sirini kuchaytirish zarurligi to‘g‘risida muhim xulosalar berilgan.

Xususiylar investorlarni “yashil” iqtisodiyotga jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda “yashil” innovasiyalarni moliyalashtirishning samarali tizimini shakllantirish, shuningdek, “yashil” investisiyalash jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklarini boshqarish borasida Owen, Brennan, Lyon<sup>49</sup>, Criscuolo<sup>50</sup>, Menon, Wu, Zhanglar tomonidan qator tadqiqotlar olib borilgan. Mamlakatimizdagi olimlardan A.V.Vaxabov, Sh.X.Xajibakiyev<sup>51</sup>, Z.Nurov, M. X. Rajabova<sup>52</sup>, T.K. Iminov, T.Z.Teshaboyev, M.T. Bo‘taboyevlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash sharoitida “yashil” loyihalarni moliyalashtirishning ilg‘or xorijiy tajribalarini tadqiq etish va shu asosda istiqbolli yo‘nalishlarni belgilash dolzarb masala hisoblanadi. Shu boisdan maqolada “yashil” loyihalarni moliyalashtirishning zamonaviy holati, “yashil” investisiya loyihalarining tasnifi va moliyalashtirish manbalarini tadqiq etish, tadqiqot natijalarini tizimlashtirish asosida ilmiy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishga e‘tibor qaratildi. Bu borada xorijiy mamlakatlarda “yashil” loyihalarni moliyalashtirish bilan bog‘liq so‘nggi tendensiyalarni,

---

<sup>46</sup> Taghizadeh-Hesary F., Yoshino N. The way to induce private participation in green finance and investment. *Finance Research Letters*. 2019; 31:98-103. DOI: 10.1016/j.frl.2019.04.016.

<sup>47</sup> Glomsrod S., Wei T. Business as unusual: the implications of fossil divestment and green bonds for financial flows, economic growth and energy market. *Energy for Sustainable Development*. 2018.

<sup>48</sup> Gianfrate G., Peri M. The green advantage: exploring the convenience of issuing green bonds. *Journal of Cleaner Production*. 2019;127–135. DOI: 10.1016/j.jclepro.2019.02.022.

<sup>49</sup> Owen R., Brennan G., Lyon F. Enabling investment for the transition to a low carbon economy: government policy to finance early stage green innovation. *Current Opinion in Environmental Sustainability*. 2018; 31:137–145. DOI: 10.1016/j.cosust.2018.03.004.

<sup>50</sup> Criscuolo C., Menon C. Environmental policies and risk finance in the green sector: cross-country evidence. *Energy Policy*. 2015; 83:38–56.

<sup>51</sup> Иминов Т.К., Вахобов А.В., Тешабоев Т.З., Бўтабоев М.Т. (2019). “Зелёная экономика” как основа устойчивого развития. Монография. - Т: “Алоқачи”, 480.

<sup>52</sup> Z.Nurov, M. X. Rajabova (2022). “Yashil iqtisodiyot” da energetika sohasining iqtisodiy. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(5), 781-787.



jahondagi iqtisodiy tashabbuslarni hamda “yashil” biznesni rivojlantirish yoʻnalishlarini tahlil qilish, shuningdek “yashil” loyihalarni moliyalashtirishda xususiy investorlarni qoʻllab-quvvatlashning dastak va vositalarini hamda loyiha turlarini tasniflash, “yashil” loyihalarni moliyalashtirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin boʻlgan risklarni tavsiflash tadqiqotning asosiy yoʻnalishlari hisoblanadi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Ilmiy mushohada, abstract-mantiqiy fikrlash, suhbat, statistik, iqtisodiy, moliyaviy, ekspert baholash usullaridan foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar**

Hozirgi vaqtda xalqaro moliya tizimida yashil iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratishga katta eʼtibor qaratilmoqda. 2006-yilda investitsiyalarni tahlil qilish jarayonlarini boshqarishning ekologik va ijtimoiy jihatlaridan iborat “Ichki investitsiyalar tamoyillari” ishlab chiqildi va integratsiya qilindi. Koʻpgina tamoyillar atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv omillarini hisobga olgan holda investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan edi.


2008-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Global yashil yangi kelishuv” boʻyicha hisobotida birinchi marta yashil iqtisodiyotga oʻtishni boshlash, aholi bandligini oshirish va surunkali qashshoqlikni bartaraf etish uchun davlat investitsiyalari va zarur siyosat islohotlarini olib boorish boʻyicha tavsiyalar bayon etilgan.

Bugungi kunga qadar yashil obligatsiyalarning koʻpchiligi qayta tiklanadigan energiya loyihalari, energiya samaradorligi, jamoat transporti va suv tashabbuslari uchun kapital toʻplaydi.

Kaliforniya tadqiqot byurosining 2020-yilning birinchi uch choragi uchun har choraklik hisobotlariga koʻra, global yashil obligatsiyalar emissiyasi 180,6 milliard dollarni tashkil etdi. Bu qiymat allaqachon chiqarilgan obligatsiyalarning avvalgi yillik hajmidan oshib ketdi: 2019-yilda 167,6 milliard dollarlik emissiya amalga oshirilgan edi. Natijada 2020-yilning birinchi uch choragidagi oʻsish oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 73,2 foizni tashkil etdi.

Rivojlangan mamlakatlarda emissiyalarning eng katta hajmi nomoliyaviy korporatsiyalar (barcha emitent guruhlari orasida 26%), rivojlanayotgan mamlakatlarda esa moliyaviy korporatsiyalar (31%) tomonidan kuzatilgan.

2020-yilning birinchi uch choragida emissiya hajmi boʻyicha AQSh, 35 milliard AQSH dollaridan ortiq, Fransiya va Xitoy har ikki davlat – 20 milliard AQSH dollar miqdordagi emissiyani tashkil etdi. 2020-yil sentabr holatiga koʻra, global yashil obligatsiyalar bozori moliyaviy mahsulotlarni diversifikatsiya qilishning davom etishi, moliyaviy korporatsiyalar emitentlari orasida yetakchilik va rivojlanayotgan mamlakatlar ulushining sezilarli darajada oshishi bilan tavsiflanadi.



**1-rasm. 2022-yilda jahon mamlakatlari tomonidan chiqarilgan “yashil” obligatsiyalar hajmi<sup>53</sup>**

2022-yilda “yashil” obligatsiyalar chiqarishda Xitoy (85,4 mlrd. AQSh doll.), AQSh (64,4 mlrd. AQSh doll.) va Germaniya (61,2 mlrd. AQSh doll.) kabi mamlakatlar jahonda yetakchilik qilgan. Ayni paytda Hindiston, Fidji, Nigeriya, Malayziya kabi davlatlar ushbu bozorga faol kira boshladilar. 2022-yilda jahon mamlakatlari tomonidan chiqarilgan “yashil” obligatsiyalarning emitentlar bo'yicha tasniflanishidan ko'radigan bo'lsak, chiqarilgan obligatsiyalarning umumiy hajmida yuqori ko'rsatkich moliyaviy korporatsiyalarga to'g'ri kelgan bo'lib, jamiga nisbatan 28,7 foizni tashkil etgan. Shuningdek, salmog'iga ko'ra keyingi o'rinlarni nomoliyaviy korporatsiyalar (25,1 foiz) va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan sub'ektlar (18,7 foiz) egallagan. Xususiy sektordagi yashil emissiyaning deyarli yarmi Evropa korporatsiyalariga to'g'ri kelgan bo'lib, eng yirik emitentlar Germaniyaning tijorat banki Helaba (5,2 milliard AQSh dollari hajmidagi 45 ta bitim,) va Daniyaning Orsted ko'p millatli elektr kompaniyasi (4 milliard AQSh dollari hajmidagi 6 ta bitim) hisoblanadi<sup>54</sup>

“Yashil” obligatsiyalar butun dunyo bo'ylab, qoida tariqasida, ijobiy ekologik yoki iqlim maqsadlariga ega bo'lgan va ekoinvestitsiyalarga kapital xarajatlarini kamaytirishga yordam beradigan loyihalarni moliyalashtirish uchun ishlatiladi<sup>55</sup>

Dunyo mamlakatlarida rivojlanayotgan “yashil” bozorning muhim tarkibiy qismi milliy “yashil” banklar, rivojlanish banklari, investitsiya fondlari va moliyaviy korporatsiyalarni o'z ichiga olgan ko'p darajali moliyaviy vositachilar tarmog'i hisoblanadi.

<sup>53</sup> Атанязов Ж.Х. “Барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашда “яшил” лойиҳаларни молиялаштиришнинг истикболли йўналишлари” Scientific Journal of “International Finance & Accounting” Issue 4, August 2023. ISSN: 2181-1016.

<sup>54</sup> <https://www.climatebonds.net/market/data/>

<sup>55</sup> Gianfrate G., Peri M. The green advantage: exploring the convenience of issuing green bonds. Journal of Cleaner Production. 2019;127–135. DOI: 10.1016/j.jclepro.2019.02.022.

**G20 mamlakatlari moliya institutlari<sup>56</sup>**

<b>Mamlakat</b>	<b>Moliya institutlari</b>
Buyuk Britaniya	Yashil investitsiya banki; Britaniya biznes banki; Xayriya banki; Tridos banki.
Koreya	Koreya moliya korporatsiyasi; Koreya kredit kafolat jamg'armasi; Koreya moliya texnologiyalari korporatsiyasi; Koreya eksport-import banki.
Kanada	Yashil investitsiya fondi
Germaniya	Kredittanstaltfur Wiederaufbau milliy investitsiyalar banki; Federal atrof-muhit vazirligi
Fransiya	Fransiya global atrof-muhit jamg'armasi
AQSH	Birinchi yashil bank; Xantintong milliy banki; AQSH banki.
Yevropa ittifoqi	Yevropa strategik investitsiyalar fondi

Qurilish, infratuzilma, suvni tozalash, chiqindilarni qayta ishlash sohalarida “yashil” loyiha va dasturlarni moliyalashtirish va amalga oshirishga ko'maklashishda jahon moliya institutlari muhim rol o'ynaydi. Aynan ular jahon moliya bozorining boshqa ishtirokchilariga bunday loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha ilg'or tajribalarni ulashadilar. Yashil iqtisodiyot loyihalariga sarmoya kirituvchi institutlar qatorida Yevropa investitsiya banki, Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi va boshqalarning faoliyati muhim ahamiyatga ega. Jumladan, Xalqaro moliya korporatsiyasi energetika, qurilish va transport sohalarida ekologik yo'nalishdagi 221 ta loyihani amalga oshirish uchun 8,4 milliard dollar hajmidagi “yashil” kredit ajratgan.

Bugungi kunda yashil kreditning, yashil kredit bozoridagi eng katta ulushi Yevropa va Xitoyda kreditorlar va qarz oluvchilari xissasiga to'g'ri keladi. Uglerod chiqindilarini nazorat qilish uchun Xitoy hukumati 2007-yilda Yashil kredit siyosatini qabul qildi, bu esa banklardan atrof-muhitni muhofaza qilish, chiqindilarni kamaytirish, energiyani tejash bo'yicha ishlab chiqilgan yashil loyihalar uchun yashil kreditlar berishni va ishlab chiqarish energiya samaradorligi yuqori bo'lgan, chiqindilar va ortiqcha quvvatlar tufayli ifloslanishni yuzaga keltirayotgan korxonalariga kreditlar berishni cheklashni talab qildi.

<sup>56</sup> Muallif tomonidan shakllantirilgan.

Hozirgi vaqtda banklar tomonidan taklif qilinadigan yashil kreditlarning ko'p turlari mavjud. Kredit bozori assotsiatsiyasi yashil kreditlarni ikkita asosiy turga ajratadi:

- atrof-muhitni muhofaza qilish va chiqindilarni kamaytirish bo'yicha loyihalar va xizmatlar uchun yashil kredit;
- rivojlanayotgan strategik tarmoqlarga beriladigan yashil kredit.

**2-jadval**

**Xorijiy tijorat banklari tomonidan taqdim etilgan “yashil” kredit mahsulotlari<sup>57</sup>**

<b>Bankning "Yashil" kredit mahsuloti</b>	<b>"Yashil" kredit mahsulotining xususiyatlari</b>
Ekologik uy-joy sotib olish / qurish uchun "yashil" kredit	Ushbu mahsulot odamlarni ekologik toza uylar sotib olishga yoki qurishga undaydi. Banklar qarz oluvchilarga bozor stavkalaridan past foiz stavkalarida imtiyozli “yashil” kreditlar beradi
Qurilishni rivojlantirish uchun yashil kredit	Ekologik toza ko'chmas mulk loyihalarini quruvchi rivojlanish kompaniyalari uchun mo'ljallangan
Energiyani tejash uchun "yashil" kredit	Kredit, energiya tejovchi uskunalar haridi uchun oddiy aholi yoki o'z faoliyati sohasida energiya tejovchi va atrof-muhitni muhofaza qilish uskunalari bilan iste'molchilarni ta'minlovchi korxonalariga beriladi. Bu kredit imtiyozli foiz stavkasida beriladi.
Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini qurish uchun "yashil" kredit	Kredit kompaniyalarga quyosh, shamol, gidroenergetika, biomassadan elektr energiyasi ishlab chiqarish va aqlli elektr tarmoqlari sohasidagi loyihalarni amalga oshirish uchun beriladi.
"Yashil" avtomobil krediti	Kam uglerodli yoki yoqilg'i tejaydigan avtomobil xaridlari uchun mo'ljallangan
"Yashil" transport krediti	Kredit yoqilg'i tejash va energiya samaradorligi texnologiyalarini modernizatsiya qilayotgan transport kompaniyalariga beriladi
Suv ta'minoti tizimini modernizatsiya qilish uchun "Yashil" kredit	Kredit suvni tejash va suvdan foydalanish samaradorligini oshirish, ichimlik suvini tozalash loyihalarini amalga oshirish uchun ajratiladi
Iqlim kredit kartasi	Karta mijozlarga ekologik toza mahsulot va xizmatlarni xarid qilishda chegirma beradi, o'z navbatida bank yillik foydaning ma'lum qismini butun dunyo bo'ylab toza energiya loyihalariga yoki yo'qolib borayotgan hayvonlarni saqlab qolish uchun yovvoyi tabiat fondiga o'tkazadi.

<sup>57</sup> Международнoй опыт развития «зеленого» кредита как инструмента «зеленого» финансирования / О. И. Еремина, Г. В. Морозова, Ю. Ю. Филичкина // Контентус. – 2021. – № 1. – С. 34 – 42. УДК 336.7 DOI: 10.24411/2658-6932-2021-10000/

Banklar ko'pincha o'z mijozlarining ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ularning ehtiyojlarini qondirish uchun qo'shimcha mahsulot va xizmatlarni joriy qiladilar. Yashil kredit mahsulotlarining haqiqiy tasnifi banklar orasida farq qiladi. Ushbu kredit munosabatlarini tartibga solish va ishonchliligini ta'minlash uchun yashil kreditlar to'rtta asosiy tamoyilga muvofiq holda faoliyat olib borilishi lozim. Kredit bozori assotsiatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan “Yashil kredit tamoyillari”<sup>58</sup> bozorning barcha ishtirokchilariga kreditni "yashil" deb tavsiflash imkonini beradigan asos bo'lib hisoblanadi.

"Yashil" kredit mahsulotlarining umumiy indikativ ro'yxatini keltirilgan 2-jadvalda ko'rishimiz mumkin.

2019-yilda banklar tomonidan berilgan “yashil” kreditlarning butun jahon bo'yicha hajmi 6,8 milliard dollarni tashkil etdi<sup>59</sup>. Bugungi kunda ekologik toza uy-joy, qayta tiklanadigan energiya manbalari ob'yektlarini qurish uchun "yashil" bank krediti mahsulotlari, "yashil" transport va avtokreditlar, iqlim kredit kartalari va boshqalar keng tarqalib bormoqda. Bu esa butun dunyo bo'ylab iqlim o'zgarishini yumshatishga, atrof-muhitni ifloslanishini oldini olishga va tabiiy resurslardan tejamkor va samarali foydalanishga xizmat qilmoqda.

Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni loyihalarning yuqori samaradorligini aksariyat davlatlari “yashil” loyihalarni asosan davlat tomonidan moliyalashtirishdan voz kechishga va bu sohaga xususiy kapitalni jalb qilishni faol rag'batlantirishga intilmoqda.

Mutaxassislarining fikricha, davlat va xususiy investitsiyalarning nisbati 1:5 bo'lishi kerak. Xitoy tajribasini ko'radigan bo'lsak, ushbu mamlakatda mahalliy “yashil” loyihalarni davlat byudjetidan 10-15 foiz va xususiy mablag'lar hisobidan 85-90 foiz miqdorida moliyalashtirish qoidasi amal qiladi. Biroq, “yashil” loyihalarni, ayniqsa xususiy investorlar uchun keng ko'lamli loyihalarni amalga oshirish bir qator risklar bilan bog'liq hisoblanadi. Shu sababli, xususiy investitsiyalarni jalb qilish uchun yashil loyihalarga investitsiyalarni jalb qilish risklarini an'anaviy texnologiyalardan foydalangan holda amalga oshirilayotgan loyihalarga sarmoya kiritish riski darajasiga qadar kamaytirish kerak. Shu maqsadda jahon amaliyotida “yashil” loyihalarni moliyalashtirishni rag'batlantirish uchun xususiy investorlarni qo'llab-quvvatlashning qator dastak va vositalaridan foydalaniladi. Bular, soliq kreditlari, standartlarni joriy etish, “yashil” iqtisodiyotga qarshi kompaniyalarni qo'llab-quvvatlashni bekor qilish, imtiyozli tariflar (Feed-in-Tariff), qayta tiklanadigan energiya uchun kvotalar, kredit kafolatlari va kafillik, sug'urta, almashinuv kursi va foiz stavkalarining

---

<sup>58</sup> The Green Bond Principles (GBP) 2017 (2017). URL: <https://www.icmagroup.org/green-social-and-sustainability-bonds/green-bond-principles-gbp/> (дата обращения: 06.03.2018).17.<https://uz.kursiv.media/opinions/kak-razvitiye-zelenojekonomiki-izmenit-finansovuj-sektor-uzbekistana/>

<sup>59</sup> Green Bond Impact Report Financial Year 2020 / International Finance Corporation [Электронный ресурс]. – URL: [https://www.ifc.org/wps/wcm/connect/corp\\_ext\\_content/ifc\\_external\\_corporate\\_site/home](https://www.ifc.org/wps/wcm/connect/corp_ext_content/ifc_external_corporate_site/home).

o'zgaruvchanligidan himoya qilish va boshqalardan iboratdir. Avvalo, xususiyl investorlarni “yashil” iqtisodiyotga jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha davlat siyosatining muhimligini ta'kidlash lozim<sup>60</sup>. Misol uchun Buyuk Britaniyada atrof-muhitga davlat xarajatlarining 1% ga o'sishi biznes sub'ektlari tomonidan amalga oshiriladigan “yashil” investitsiyalarning yiliga o'rtacha 5,28%ga o'sishiga olib keladi.

### **Xulosa va takliflar**

Ekologik taxdidlar yangi iqtisodiy yo'lni ya'ni iqtisodiyotga ma'suliyatli yondashish yo'lini yaratmoqda. “Yashil” iqtisodiyot yangi iqtisodiy paradigma bo'lib, har bir sub'yekt ekologik javobgarlikni o'z zimmasiga oladi:

- kompaniyalar tovar va xizmatlarning mas'uliyatli ishlab chiqaruvchilari bo'lishga chaqiriladi;
- fuqarolar mas'uliyatli iste'molchi bo'lishga chaqiriladi;
- hududlar mas'uliyatli hududiy boshqaruvchilar bo'lishga chaqiriladi;
- davlatlar iqtisodiy o'sish chegaralarini hurmat qilishga chaqiriladi.

Global “yashil” bozorni shakllantirish jarayonida yashil iqtisodiyot loyihalariga sarmoya kirituvchi xalqaro moliya institutlari, shuningdek, tarmog'i milliy “yashil” banklar, rivojlanish banklari, investitsiya fondlari, moliyaviy korporatsiyalardan tashkil topgan ko'plab moliyaviy vositachilar muhim o'rin tutadi. Xalqaro tashkilotlarning “yashil” moliyalashtirish sohasidagi global hamkorligi jahon tartibga solish standartlarini, ma'lumotlar va tajriba almashish tizimini, rivojlanishning yangi modelini moliyalashtirishning zamonaviy vositalarini shakllantirish imkonini berdi. Jahondagi yangi tendentsiyalardan biri bu iqtisodiyotni “yashillashtirish” bo'lib, mazkur jarayonni davlat tomonidan samarali qo'llabquvvatlanishi milliy iqtisodiyotning tarmoq va sohalarida iqtisodiy samaradorlikka erishishda muhim rol o'ynaydi. Xorijiy mamlakatlarda “yashil” loyihalarni moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlari shakllantirilgan bo'lib, ular orasida: “yashil” davlat banklari; imtiyozli tarif dasturi ((Feed-inTariff (FIT)); ixtisoslashtirilgan davlat kredit tashkilotlari; ekologik soliqlar, soliq chegirmalari va imtiyozlari; “yashil” moliyalashtirishning boshqa vositalari keng tarqalgan. Bu jarayonda, “yashil” loyihalarni moliyalashtirishni qo'llabquvvatlashda bozor emas, balki davlat muhim rol o'ynaydi. Shu boisdan, “yashil” moliyalashtirish bozorini rivojlantirish uchun moliyaviy institutlar va investorlarni yashil loyihalarga sarmoya kiritishga rag'batlantirishga qaratilgan choratadbirlarni amalga oshirish lozim.

Tadqiqot natijalari “yashil” loyihalarni moliyalashtirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmining ahamiyati yuqoriligini, shu boisdan O'zbekistonda ham yashil moliyalashtirishni rivojlantirishda ushbu xorij

---

<sup>60</sup> Owen R., Brennan G., Lyon F. Enabling investment for the transition to a low carbon economy: government policy to finance early stage green innovation. *Current Opinion in Environmental Sustainability*. 2018; 31:137–145. DOI: 10.1016/j.cosust.2018.03.004



tajribalarini qoʻllagan holda yuqori natijalarga erishish mumkin boʻladi. “Yashil” loyihalarni moliyalashtirishni koʻpaytirishda “yashil” kapitalni jalb qilish, toʻplash va ulardan foydalanish sohasida biznes va uy xoʻjaliklarini davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlashning samarali tizimini yaratishga alohida eʼtibor qaratish lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati**

1. Public-Private Partnerships. International Monetary Fund, 2004.;
2. E.R. Yescombe, Public-Private Partnerships: Principles of Policy and Finance // Butterworth-Heinemann/Elsevier, Oxford, UK 2007. 369 p.;
3. Owen R., Brennan G., Lyon F. Enabling investment for the transition to a low carbon economy: government policy to finance early stage green innovation. *Current Opinion in Environmental Sustainability*. 2018; 31:137–145. DOI: 10.1016/j.cosust.2018.03.004;
4. О. И. Еремина, Г. В. Морозова, Ю. Ю. Филичкина. Международный опыт развития «зеленого» кредита как инструмента «зеленого» финансирования // *Контентус*. – 2021. – № 1. – С. 34 – 42. УДК 336.7 DOI: 10.24411/2658-6932-2021-10000/;
5. Gianfrate G., Peri M. The green advantage: exploring the convenience of issuing green bonds. *Journal of Cleaner Production*. 2019;127–135. DOI: 10.1016/j.jclepro.2019.02.022.
6. Criscuolo C., Menon C. Environmental policies and risk finance in the green sector: cross-country evidence. *Energy Policy*. 2015; 83:38–56.;
7. Taghizadeh-Hesary F., Yoshino N. The way to induce private participation in green finance and investment. *Finance Research Letters*. 2019; 31:98-103. DOI: 10.1016/j.frl.2019.04.016.
8. Glomsrod S., Wei T. Business as unusual: the implications of fossil divestment and green bonds for financial flows, economic growth and energy market. *Energy for Sustainable Development*. 2018.;
9. Иминов Т.К., Ваҳобов А.В., Тешабоев Т.З., Бўтабоев М.Т. (2019). “Зелёная экономика” как основа устойчивого развития. Монография. - Т: “Алоқачи”, 480.;
10. Z.Nurov, M. X. Rajabova (2022). “Yashil iqtisodiyot” da energetika sohasining iqtisodiy. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(5), 781-787.
11. Атаниязов Ж.Х. “Барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашда “яшил” лойиҳаларни молиялаштиришнинг истиқболли йўналишлари” *Scientific Journal of “International Finance & Accounting”* Issue 4, August 2023. ISSN: 2181-1016.
12. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 11-sentabr 2023-yildagi “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasi toʻgʻrisidagi PF-158-son Farmoni \ lex.uz.

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-sentabrdagi “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish jarayonini boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 514-sonli Qarorlari\ lex.uz.

14. Green Bond Impact Report Financial Year 2020 / International Finance Corporation

[https://www.ifc.org/wps/wcm/connect/corp\\_ext\\_content/ifc\\_external\\_corporate\\_site/home](https://www.ifc.org/wps/wcm/connect/corp_ext_content/ifc_external_corporate_site/home).

15. The Green Bond Principles (GBP) 2017 (2017). URL: <https://www.icmagroup.org/green-social-and-sustainability-bonds/green-bond-principles-gbp/> (дата обращения: 06.03.2018).17.<https://uz.kursiv.media/opinions/kak-razvitie-zelenojekonomiki-izmenit-finansovyy-sektor-uzbekistana>.

16. <https://www.oecd.org/>

17. <https://www.oecd.org/environment/Aligning-Policies-for-a-Low-carbonEconomy.pdf>

18. <https://www.un.org/en/climatechange/cop26>

19. <https://www.climatebonds.net/market/data>.



## MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



### RAQAMLI TRANSFORMATSIYA BILAN YASHIL MOLIYALSHTIRISHNING UYG'UNLIGI

**Meyliyev Obid Raxmatullayevich**

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti professori, i.f.d.

**Gofurova Kamola Xayrulla qizi**

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti

moliya fakulteti talabasi

DOI: [https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2\\_iss1/a164](https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a164)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada raqamli texnologiya, sun'iy intellektning iqtisodiyot sektorida ishlab chiqarish, onlayn va oflayn tijorat hamda ma'lumotlar saqlash (Big data va boshqalar) dan tashqari yashil iqtisodiyot, yashil moliya, moliyalashtirish bilan integratsiyalashuvi va sinergiya natijasi asosida barqaror rivojlanishga ta'siri tahlil qilinnadi.

Iqtisodiy resurs va yer hududining cheklanganligi, yer yuzida aholi qatlamining o'sib borishi, noto'g'ri taqsimlanishi bilan birgalikda ishlab chiqarish jarayonida kuzatilayotgan karbonat angidrid (CO<sub>2</sub>) gazining chiqarilishi iqlim o'zgarishi, bioxilma-xillikning yo'qolib borishi, tabiiy resurslarning kamayishi va iqtisodiy yo'qotishlarga sabab bo'lmoqda.

Shu bois, raqamli texnologiyalar asrida sun'iy intellekt va moliyaviy texnologiyalar (Fintech) orqali barqaror rivojlanishni ta'minlash mumkin. Bu holat ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan bo'lib, amaliyotda ham keng qo'llanilmoqda. SI va Fintex innovatsiyalari yashil iqtisodiy muammolarga yechim topishda optimal yechimlarni taklif etib, ekologik barqaror iqtisodiyotni rivojlantirish, resurslardan samarali foydalanish va uglerod ishlab chiqarish izini kamaytirish imkonini beradi.

**Kalit so'zlar:** Raqamli iqtisodiyot, SI, Fintex, ekoraqamli innovatsiyalar, yashil moliyalashtirish.

### СОВМЕСТИМОСТЬ ЗЕЛЕННОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ С ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИЕЙ

**Мейлиев Обид Рахматуллаевич**

Профессор Ташкентского государственного экономического  
университета, доктор экономических наук

**Гофурова Камола Хайрулла кизи**

Ташкентский государственный экономический университет

Студентка финансового факультета

**Аннотация.** В данной статье анализируется влияние интеграции и синергии цифровых технологий и искусственного интеллекта с зелёной экономикой, зелёными финансами и финансированием на устойчивое развитие, помимо их применения в

производстве, онлайн- и офлайн-торговле, а также хранении данных (Big Data и других технологий) в экономическом секторе.

Ограниченность экономических ресурсов и земельных площадей, рост численности населения и его неравномерное распределение, а также выбросы углекислого газа (CO<sub>2</sub>) в производственных процессах способствуют изменению климата, утрате биоразнообразия, истощению природных ресурсов и экономическим потерям.

Поэтому в эпоху цифровых технологий обеспечение устойчивого развития возможно благодаря искусственному интеллекту и финансовым технологиям (FinTech). Этот подход теоретически обоснован и широко применяется на практике. Инновации в сфере искусственного интеллекта и FinTech предлагают оптимальные решения для задач зелёной экономики, способствуя развитию экологически устойчивой экономики, эффективному использованию ресурсов и снижению выбросов углерода.

**Ключевые слова:** цифровая экономика, искусственный интеллект (ИИ), FinTech, эоцифровые инновации, зелёное финансирование.

---

## **COMPATIBILITY OF GREEN FINANCING WITH DIGITAL TRANSFORMATION**

**Meyliyev Obid Rakhmatullayevich**

Professor, Tashkent State University of Economics, Doctor of Economics

**Gofurova Kamola Khairulla kizi**

Student, Faculty of Finance, Tashkent State University of Economics

**Abstract.** This article analyzes the impact of the integration and synergy of digital technologies and artificial intelligence with the green economy, green finance, and financing on sustainable development, beyond their applications in production, online and offline commerce, and data storage (Big Data, etc.) in the economic sector.

The limitations of economic resources and land area, the growing global population, and its uneven distribution, along with the emission of carbon dioxide (CO<sub>2</sub>) in production processes, are contributing to climate change, biodiversity loss, depletion of natural resources, and economic losses.

Therefore, in the era of digital technologies, it is possible to ensure sustainable development through artificial intelligence and financial technologies (FinTech). This approach is theoretically substantiated and widely applied in practice. Artificial intelligence and FinTech innovations offer optimal solutions to green economic challenges, promoting the development of an environmentally sustainable economy, efficient resource utilization, and the reduction of carbon emissions.

**Keywords:** Digital economy, artificial intelligence (AI), FinTech, eco-digital innovations, green financing.

### **Kirish**

Bugungi kunda axborot texnologiyalarining rivojlanishi va bu borada savodxonlikning oshishi raqamli sohalardan foydalanish salmog'ning ortishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois, raqamli iqtisodiyot bu elektron savdo, elektron to'lovlarni amalga oshirish, masofadan turgan holda turli xizmatlar ko'rsatish, sun'iy intellekt (Artificial Intelligence) yordamida vazifalarni avtomatlashtirish

va boshqa turdagi sohalarda rivojlangan texnologiyalarda raqamlar orqali amalga oshiriladigan iqtisodiyotning bir turi hisoblanishi yangilik emas.

Bundan tashqari, ijtimoiy moliya, soliq byudjet tizimida ham operatsiyalarni tezlashtirish, elektron soliq tizimi, soliq bilan bog'liq xato va firibgarlikni SI orqali aniqlash, byudjetlashtirish jarayonida ma'lumotlarni moliyaviy analiz va prognozlashni avtomatlashtirish hamda investsion jarayonlarni shaffof, tezkor va samarali amalga oshirishi uchun tashkil etilgan “kraudfanding”, “kraudinvestitsiya” lar startup va innovatsiyalar uchun mablag' yig'ish imkonini bermoqda. Yuqorida keltirilgan moliyaviy texnologiyalarning amalda joriy etilishi byudjet xarajatlarini kamaytirish, moliya va iqtisodiy tizimning umumiy ishlash tizimini yaxshilash, shaffoflikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Biroq, moliya va iqtisodiy sohada raqamli texnologiyalar orqali bir qator natijalarga erishilayotgan bo'lishiga qaramasdan, ekologik muammolarga yechim topilmasa, iqtisodiyotga o'z tas'irini ko'rsatib, uzoq muddatda mamlakatlarning moliyaviy ahvoriga zarar keltirilish ehtimoli bor. Bugungi kunda yer yuzida sodir bo'layotgan ekologik o'zgarishlar, jumladan iqlim o'zgarishlari, tabiiy resurs zahiralarning kamayib borishi, turli xil ekologik stixiyali muammolar, suv resurslaridan samarali foydalanmaslik, atrof muhitning ifloslanishi hamda o'rmon, qishloq hududlarning muhofazalanishining sustligi, natijasida ekologik muhit bilan birgalikda rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning iqtisodiy hamda ijtimoiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda<sup>61</sup>.

Raqamli iqtisodiyotda yangi texnologiyalarning yaratilishi va turli startaplar orqali kichik va global masalarga yechim topish tezlashgani sababli ekologik muammolarga AKT, SI yoki fintexlarsiz yechim topish ilojsiz deb hisoblanadi. Barqaror rivojlantirish konsepsiyasi BMT tomonidan taqdim etilgan loyiha hisoblanib, bir necha bosqichdan iborat bo'lgan. Konsepsiyaning amalga oshirilish bosqichlarida raqamli innovatsiyalar bilan bog'liq yechimlar bunga misol qilib keltirish mumkin.

Shuningdek, bu tushuncha turli iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, jumladan, Kembrij universiteti professori Diana Coyle raqamli texnologiyalarning iqtisodiyotda barqarorlikda, ekologik maqsadlarni ilgari surishda muhim o'rinda ekanligini tahlil qilgan.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Bu maqolada atrof-muhit bilan bog'liq global muammolarning iqtisodiy-ijtimoiy qatlama ta'siri statistik ma'lumotlar bilan izohlanib, bu dolzarb masalaga yechim sifatida raqamli innovatsiyalar va yashil moliyalashtirishning sinergatik bog'liqligi nazariy va statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Yashil moliyalashtirishda a'anaviy byudjet fondlari, byudjet xarajatlarini

---

<sup>61</sup>K, Gofurova, “YASHIL INVESTITSİYALARNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT BYUDJETINING O'RNI”// «Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti: muammo va yechimlar» mavzusidagi IV-xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Maqolalar va tezislari to'plami. –T.: «ZUXRO BARAKA BIZNES», 2024. 617 b.

minimallashtirish va fintex, blokcheyn markazlashmagan platformasi, kraudfanding, kraudinvestitsiyalarni keng qo'llashni joriy etish jarayonini o'rganishning ilmiy usullari, tahlilning mantiqiy, qiyosiy, statistik tahlil usullaridan keng foydalaniladi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

1912-yildayoq Shumpeter moliyaviy rivojlanish va texnologik innovatsiya o'rtasidagi bog'liqlik bo'yicha dastlabki tadqiqotni o'tkazgan<sup>62</sup>. Ushbu mavzu faqat moliyaviy bozorlarning liberallasuvi va uchinchi ilmiy-texnologik inqilobning rivojlanishi bilan keng ilmiy muhokamalarga sabab bo'lib, mahalliy va xalqaro miqyosdagi olimlarning e'tiborini torta boshladi<sup>63</sup>.

Purnomo tomonidan esa raqamli iqtisodiyot tushunchasiga bu raqamli bilimni asosiy ishlab chiqarish omili sifatida ko'rib chiqadigan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya tarmoqlarini ushbu bilimning asosiy tashuvchisi sifatida baholaydigan iqtisodiy tushuncha deb ta'rif beriladi<sup>64</sup>.

Akberdina and Barybina tomonidan raqamli iqtisodiyotni uch komponentga ajratilib bularga: raqamli infrastruktura, raqamli texnologiyalar va elektron tijorat kiradi. Bunga ko'ra, raqamli infratuzilma iqtisodiy agentlar o'rtasidagi bog'liqlikni, iqtisodiy tarmoqlarda raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish va iste'molning barcha jabhalarida o'zgartirishni, elektron tijorat esa platformalar yordamida iqtisodiy resurslar almashunivini ta'minlab, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishni ta'minlaydi<sup>65</sup>.

FinTexning rivojlanishi va tarqalishini raqamli iqtisodiyotga o'tishning xususiy holati, ya'ni moliyaviy faoliyatni raqamlashtirish sifatida baholash mumkin<sup>66</sup>. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanib borishi moliyaviy ta'minlashda texnologik innovatsiyalarning yaratilishiga sabab bo'ldi. И. Kotlyarov “FinTechni moliyaviy xizmatlar va axborot texnologiyalari kombinatsiyasi sifatida aniqlash mumkin”<sup>67</sup>, deb izohlaydi.

Shuni ta'kidlash joizki, raqamli iqtisodiyot, moliyaviy texnologiyalarning rivojlanishida moddiy sohaning mavjudligi asosiy ro'l o'ynaydi. Raqamli iqtisodiyot moddiy sohalarning o'zaro munosabatlari, samaradorligini oshiruvchi dastak hisoblanib, moddiy soha yetarlicha rivojlanmagan sharoitda

---

<sup>62</sup> J. A. Schumpeter, *Captitalism, Socialllism and Democracy*, New York: Harper: Harper & Brothers, NewYork, NY, USA, 1942.

<sup>63</sup>R. Nanda and T. Nicholas, “Did bank distress stifle innovation during the great depression?” *Journal of Financial Economics*, vol. 114, no. 2, pp. 273–292, 2014.

<sup>64</sup> Purnomo, A., Susanti, T., Rosyidah, E., Firdausi, N., and Idhom, M. (2022). Digital economy research: thirty-five years insights of retrospective review. *Procedia Comput. Sci.* 197, 68–75. doi:10.1016/j.procs.2021.12.119

<sup>65</sup> Akberdina, V. V. (2018). Digitalization of industrial markets: regional characteristics. *Manag.* 9 (6), 78–87. doi:10.29141/2218-5003-2018-9-6-8

<sup>66</sup> Савина Т. Н. Цифровая экономика как новая парадигма развития: вызовы, возможности и перспективы// *Финансы и кредит.* 2018. Т. 24. №3. С. 579–590.

<sup>67</sup> Котляров И.Д. Финтех: сущность и модели реализации// *ЭКО.* 2018. №12 (534). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/finteh-suschnost-i-modeli-realizatsii>.



joriy etilishi raqamlashtirishning iqtisodiy ta’siri hal qiluvchi ahamkiyat kasb etmaydi.

Barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot, aylana iqtisodiyot va ESG kontseptsiyasi iqtisodiyot va atrof-muhit o‘zaro kuchli ta’sirga ega ekanligini hisobga olib, ijtimoiy va ekologik mezonlarga muvofiq adolatli iqtisodiyotni qurishni targ‘ib qiluvchi dunyoqarashning tarkibiy qismlaridir<sup>68</sup>.

Iqtisodchi olimlar tomonidan ushbu tushunchalar umumiy g‘oyani ifodalab: kam uglerodli, resurslardan samarali foydalanadigan va ijtimoiy jihatdan inklyuziv iqtisodiyot inson farovonligi hamda ijtimoiy adolatni oshirishi bilan birga, ekologik tahdidlar va resurs tanqisligini sezilarli darajada kamaytirishi lozim deb hisoblanadi<sup>69</sup>. Bibliometrik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yashil iqtisodiyot, aylana iqtisodiyot va barqaror rivojlanish sohasida ilmiy tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Biroq, turli mamlakatlarda bu tushunchalarning atamaları va talqinlarida farqlar mavjud<sup>70</sup>.

Tadqiqotchi olimlarning bu borada turli gepotezlari bir xil, o‘xshash fikrga ega bo‘lishiga qaramay, raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishga ta’siri borasida jiddiy kelishmovchiliklar mavjud<sup>71</sup>.

Ba’zi iqtisodchi olimlar tomonidan tahlil qilinishiga ko‘ra, keng ko‘lamli tadqiqotlar raqamli iqtisodiyot va yashil iqtisodiyot o‘zaro uyg‘un rivojlanishini hamda bir-biriga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi<sup>72</sup>.

Boshqa tomondan, raqamli iqtisodiyotning yashil ishlab chiqarish omillarining umumiy samaradorligiga ta’sirini tahlil qiladi. Bu axborot texnologiyalari mehnat unumdorligini oshirish va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish orqali yashil ishlab chiqarish omillarining umumiy samaradorligi bilan ijobiy bog‘liq ekanligi isbotlanadi<sup>73</sup>.

Markaziy Osiyo tadqiqotchilari tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida raqamli innovatsiyalarning yashil iqtisodiyotga ijobiy ta’siri quyidagi misollar bilan keltirilgan bo‘lib:

- raqamli iqtisodiyot indeksining 1% ga oshishi yangi energiya sohasidagi rivojlanishlar sonini o‘rtacha 0,2% ga oshiradi.

---

<sup>68</sup> D’amato, D., and Korhonen, J. (2021). Integrating the green economy, circular economy and bioeconomy in a strategic sustainability framework. *Ecol. Econ.* 188, 107143. doi:10.1016/j.ecolecon.2021.107143

<sup>69</sup> Bouchoucha, N. (2021). The effect of environmental degradation on health status: do institutions matter? *J. Knowl. Econ.* 12 (4), 1618–1634. doi:10.1007/s13132-020-00680-y

<sup>70</sup> Ali, E. B., Anufriev, V. P., and Amfo, B. (2021). Green economy implementation in Ghana as a road map for a sustainable development drive: a review. *Sci. Afr.* 12, e00756. doi:10.1016/j.sciaf.2021.e00756

<sup>71</sup> Adeshola, I., Usman, O., Agoyi, M., Awosusi, A. A., and Adebayo, T. S. (2023). “Digitalization and the environment: the role of information and communication technology and environmental taxes in European countries,” in *Natural resources forum* (Oxford, UK: Blackwell Publishing Ltd).

<sup>72</sup> Wu, J., Guo, S., Huang, H., Liu, W., and Xiang, Y. (2018). Information and communications technologies for sustainable development goals: state-of-the-art, needs and perspectives. *IEEE Commun. Surv. Tutorials* 20 (3), 2389–2406. doi:10.1109/COMST.2018.281230.

<sup>73</sup> Niebel, T. (2018). ICT and economic growth—Comparing developing, emerging and developed countries. *World Dev.* 104, 197–211. doi:10.1016/j.worlddev.2017.11.024.

- raqamli iqtisodiyot yuqori karbonat angidrid chiqindilariga ega mamlakatlarda toza energiyaning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi<sup>74</sup>.
- energetik tuzilmani optimallashtirish, energiya samaradorligini oshirish, hamda energiya iste'molini kamaytiradi<sup>75</sup>.

Biroq, Kuntsman and Rattle tomonidan qarshi argument mavjud bo'lib, raqamlashtirish energiya tejash, gaz emissiyasini kamaytirishda asosiy o'rin egallashi hamon to'liq tasdiqlanmagan deb o'z fikrini bildiradi<sup>76</sup>. Shuni ta'kidlash ham joizki, raqamli jihozlarni yaratish, saqlash va yo'qotish jarayoni atrof muhitga ko'proq salbiy ta'sir qilib, raqamli texnologiyalar (big data) energiya iste'molini kamaytirishga emas, ortishiga sabab bo'lishi ham isbotlangan. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, raqamli infrastrukturalar milliy energiya iste'molida 10%-15% ga ko'tarilishi mumkin.

Iqtisodchi olimlar MacLean, Andjelkovich va Vetter tomonidan integratsiyalashuvning oqibati haqida quyidagicha fikr yuritilgan bo'lib, “yangi texnologiyalarning ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarga katta ta'siri borligi umumiy qabul qilingan. Ular ijobiy va salbiy natijalarga ega bo'lib, ayniqsa atrof-muhitga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Biroq, barqaror rivojlanish butun dunyo bo'ylab global aloqa va bilim almashinuvisiz amalga oshishi mumkin emas”<sup>77</sup>. Bunda, barqaror iqtisodiy rivojlanishda raqamli transformatsiya uning asosiy qismini tashkil etsada, imkoniyatlar bilan mavjud xavflar mavjudligi izohlangan.

### **Tahlil**

Barcha davlatlar o'rtasida “Barqaror rivojlanish” konsepsiyasi bu uning iqtisodiy, siyosiy va ekologik rivojlanishini o'z ichiga olsada, siyosiy barqarorlik va iqtisodiy raqobatbardosh bo'lish maqsadida turli rivojlangan davlatlar tomonidan biznes erkinligi, bozor ulushi ustidan ustunlik qilishga intilish esa ifloslanish va resurslar tanqisligini kuchaytirdi<sup>78</sup>.

Natijada, so'nggi yillarda CO<sub>2</sub> miqdorining atmosferada oshishi sababli dengiz sathining ko'tarilishi, suv toshqinlari va kucli to'fonlar kabi tabiiy ofatlar soni oshmoqda. Jumladan, Jahon Meteorologiya Tashkiloti (WMO) xabar berishicha iqlim o'zgarishi bilan bog'liq ofatlar ohirgi ellik yil Ichida 3 barovarga ortishi kuzatilmoqda. Bundan tashqari, BMTning Iqlim o'zgarishi bo'yicha hukumatlararo ekspertlar guruhi (IPCC) hisobotlariga ko'ra, XX asr oxiridan

---

<sup>74</sup> Wang, J., Wang, K., Dong, K., and Shahbaz, M. (2022b). How does the digital economy accelerate global energy justice? Mechanism discussion and empirical test. *Energy Econ.* 114, 106315. doi:10.1016/j.eneco.2022.106315.

<sup>75</sup> Li, Y., Yang, X., Ran, Q., Wu, H., Irfan, M., and Ahmad, M. (2021). Energy structure, digital economy, and carbon emissions: evidence from China. *Environ. Sci. Pollut. Res.* 28, 64606–64629. doi:10.1007/s11356-021-15304-4.


<sup>76</sup> Kuntsman, A., and Rattle, I. (2019). Towards a paradigmatic shift in sustainability studies: a systematic review of peer reviewed literature and future agenda setting to consider environmental (Un) sustainability of digital communication. *Environ. Commun.* 13 (5), 567–581. doi:10.1080/17524032.2019.1596144.

<sup>77</sup> MacLean, D., Andjelkovich, M. and Vetter, T. (2007). Internet governance and sustainable development: Towards a common agenda. Retrieved September, 2010, from [http://www.iisd.org/pdf/2007/igsd\\_common\\_agenda](http://www.iisd.org/pdf/2007/igsd_common_agenda)

<sup>78</sup> Meyliyev O.R., & Gofurova K. (2024). Fiskal siyosatni rivojlantirishda "yashil" budjet daromadlarini o'rganish. *Yashil Iqtisodiyot Va Taraqqiyot*, 2(4), 9–14. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14211456>

boshlab global harorat 1,1°C ga ko‘tarilgan bo‘lib, bu esa ekstremal ob-havo hodisalarining ortishiga olib kelgan<sup>79</sup>. Iqlim o‘zgarishi, global isish esa biodiversitetning yo‘qolishiga sabab bo‘lib, dunyodagi hayvon va o‘simlik turlarining qariyb 25 foizi yo‘q bo‘lib ketish xavfi ostidaligi muhofaza qilish Ittifoqi (IUCN) tomonidan hisob-kitob qilingan.

CO<sub>2</sub> emissiyasi va chiqindilarning ortishi ekologik muammolarni va oqibatda iqtisodiy yo‘qotishlarga sabab bo‘lishi kuzatilgan. Bunga ko‘ra, 2070-yilga kelib YaIMning 18 foizini tashkil qilishi haqida Deloitte Global Climate Reportida keltirilgan. Asosiy sabablardan biri iqlim o‘zgarishi natijasida har yili millionlab gektar ekin maydonlari degratsiyaga uchrayotganidir.




**1-rasm. Xususiy investorlar klassifikatsiyasi<sup>80</sup>**

Shu sababli, global miqyosda ekologik muammolarni bartaraf etish uchun davlat bosh islohatchi hisoblanib, atrof-muhit himoya qilish jamg‘armalarini tashkillashtirish birinchi qadam bo‘ldi. Biroq hozirgi kunda bu jarayon qisman davlat xususiy sherikchilik zimmasiga yuklatilgan. Yuqorida keltirilgan diagrammaga asosan a‘naviy xususiy investorlarning turlari ko‘rsatilgan bo‘lib, raqamli iqtisodiyotning evolyutsiyasi ekologik xarajatlarni moliyalshtirishda yangi turdagi investorlarni yaratdi. Bu turdagi investorlar kraudfanding, kraudinvestment platformalari orqali to‘g‘ridan to‘g‘ri P2P ko‘rinishida investitsiya qilish imkoniyatiga ega.

<sup>79</sup> <https://uz.council.science/news/call-experts-ipcc-climate-change-cities/>

<sup>80</sup> Muallif ishlanmasi



**2-rasm. Jahon bo'ylab iqlim texnologiyalari uchun kelishuvlar va yig'ilgan mablag'lar ulushi, foizda (kraudfanding orqali)<sup>81</sup>**

Yuqorida keltirilgan grafik ma'lumotlariga ko'ra, 2016-yilda global iqlim texnologiyalari uchun kraudfanding eng ko'p mablag' jalb qilib, 4,58%ni tashkil etgan. Biroq, 2016-yildan so'ng bu holat pasayishi kuzatilib, 2023-yilda 1,79 % atrofida kuzatilgan. Yig'ilgan mablag'lar bo'yicha kraudfanding bitimlar soni bilan o'sish tendensiyasi deyarli bir xil bo'lib, bu ko'rsatkich o'rtacha 0,2% dan 0,7% diapozon atrofida bo'lgan.

Kraudfanding platformalari orqali ijtimoiy va ekologik ta'sirga ega 17 ta loyiha amalga oshirilgan bo'lib, kerakli mablag'dan ko'proq mablag' yig'di va qolgan loyihalar maqsadga erishib, belgilangan mablag'ni to'liq yigi'shga muvaffaq bo'ldi.

Bu esa, yashil iqtisodiyotdagi asosiy muammo, iqlim o'zgarishi bilan eksperiment olib boorish jarayonini moliyalashtirish va bunga yechim topishda katta ahamiyatga ega.

Texnologik rivojlanish, SI bilan barcha sohalarning integratsiyalashuvi ortiqcha energiya talab qilishi bilan ekologik muammolarni bartaraf etish uchun yashil yechimning muammo yaratishiga sabab bo'lmoqda. Shu sababli, energiya tejovchi alternativ yechimlarni yaratishda moliyaviy ta'minot talab etiladi.

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, Led texnologiyalari 540 million dollar, quyosh energiyalari uchun 58 million dollar va ekologik muammo suv tanqisligi yechimlariga 580,68 million dollar miqdorda mablag' yig'ilgan hamda "Yashil tex" uchun 0,8 foiz ortiqcha moliyalashtirish kuzatilgan.

<sup>81</sup> RMI ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi


**Kraudfanding platformalari va Barqaror rivojlanishda o’rni<sup>82</sup>**

t/r	Sanoat	Tavsif	Target miqdori, \$(million)	Target tomonidan yig’ilgan mablag’, \$(million)	Ortiqcha moliyalash tirish	Investorlar
1.	Yashil tex	Ushbu tizim LED texnologiyasini o’simliklar uchun maxsus yorug’lik spektrlari bilan birlashtiradi.	300,00	540,00	0,80	87
2.	Tiklanuvchi energiya va “Clean” tex	Quyosh energiyasi bugungi kunda eng arzon elektr manbai bo’lib, Chili tarqoq va markazsiz model asosida har bir biznes va fuqaroning o’z energiyasini ishlab chiqarishini qo’llab-quvvatlaydi.	58,00	58,00	0,00	35
3.	Ekologiya	Bu platforma suv tanqisligini hal qilish uchun samarali va isbotlangan suv tejamkorlik yechimlarini taqdim etadi.	525,35	580,68	0,00	35

Markazlashmagan pul mablag’larini shakllantirish, individual investitsiyalarni yashil iqtisodiyotga jalb etish davlatning xarajatlarini kamaytirishiga sabab bo’ladi. Biroq, davlatning nazorat qilish va strategik maqsadlar bilan tashabbus ko’rsatish funksiyasiga ko’ra, o’z mablag’lari bilan strategik planlarni bajarishi kerak.

Shu bois, ekologik muammolarga yechim topish, iqtisodiy munosabat orqali yuzaga kelish jarayonini kamaytirish maqsadida global miqyosda davlat tomonidan ham maqsadlar qo’yilgan bo’lib, bunga soliqlar asosiy dastak sifatida ko’rsatiladi. Bu davlatlar qatoriga asosan Yevropa Ittifoqi (YI) davlatlarini tashkil etadi.

<sup>82</sup> <https://www.emerald.com/insight/1460-1060.htm>



**3-rasm. 2022-yilda Ekologik soliq daromadlari, AQSH dollari millionda, 2022<sup>83</sup>**

YI davlatlari qatoriga kiruvchi Germaniya, Polsha, Fransiya, Italiya, Ispaniya Gretsiya va o’rta osiyoda joylashgan Turkiya davlatida elektr gaz ta’minoti, transportatsiya hamda ishlab chiqarishda ekologik xavfli iqtisodiy munosabatlar uchun soliqqa tortish tizimi rivojlangan hisoblanadi. Bundan Polshada 122 819 million AQSH dollari, elektr gaz emissiyasi uchun Italiyada 8799 million AQSH dollari, solqilardan 5 528 million AQSH dollari miqdorda transportatsiya va saqlash uchun Germaniyada erishilgan. Biroq, Yaponiya, Koreya, Izroil, Chili, AQSh, Kolumbiya, Australiya va Islandiyada bu turdagi soliqlar shakllantirilmagan.

Negaki, yashil moliyalashtirishning raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashuvi moliyaviy texnologiyalaridan keng foydalanishni talab etadi. Davlat byudjeti tomonidan daromad va xarajatlarni taqsimlash va ijtimoiy yo’naltirish vazifasi ekologik-iqtisodiy munosabatlarni ham raqamli innovatsiyalar orqali nazorat qilish imkonini bera boshladi. Fiskal siyosatda fintech texnologiyalarini qo’llash, “Ifloslantiruvchilar to’laydi, foydalanuvchilar to’laydi” shiori ostida eko-zararli faoliyat olib boruvchilar sonini kamaytirish va davlatning yashil iqtisodiyotdagi o’z vazifasi va maqsadlarini bajarish uchun moliyaviy ta’minot yaratadi.

### **Xulosa**

Raqamli innovatsiyalarning rivojlanishi, moliyalashtirish jarayonida texnologik rivojlanish nafaqat iqtisodiyot, ijtimoiy-moliyaviy sektorni ham

<sup>83</sup> *Methodological Guidelines for Environmentally Related Tax Revenue Accounts*, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/d752d120-en>.



yaxshilanishiga sabab bo'lmoqda. Biroq, global muammolardan biri bo'lgan atrof-muhit ifloslanishi, iqlim o'zgarishlari, tabiiy resurs zahiralarning kamayib borishi, turli xil ekologik stixiyali muammolar, suv resurslaridan samarali foydalanmaslik, hamda o'rmon, qishloq hududlarning muhofzalanishining sustligi natijasida iqtisodiyotda resurs yetishmasligi, tanqisligi va boshqa xolatlar kuzatila boshladi.

Raqamli texnologiyalar asrida global “yashil” muammolarga a'anaviy yo'llar orqali yechim topish samarasiz jarayonligi sababli raqamli innovatsiyalar, fintex texnologiyalari bilan integratsiyalashuvi kerak. Negaki, raqamli texnologiyalar, aqlli uylar, P2P platformalar, turli alternativ tiklanuvchi energiya, urban shaharlarning ortishi, markazlashmagan pul fondlarini jalb etish, natijada tez va samarali startuplar yaratish orqali bir qator ekologik muammolarni kamaytirish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. K. Gofurova, “YASHIL INVESTITSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT BYUDJETINING O'RNI”// «Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti: muammo va yechimlar» mavzusidagi IV-xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Maqolalar va tezislari to'plami. –T.: «ZUXRO BARAKA BIZNES», 2024. 617 b.

2. J. A. Schumpeter, *Captitalism, Socialism and Democracy*, New York: Harper: Harper & Brothers, NewYork, NY, USA, 1942.

3. R. Nanda and T. Nicholas, “Did bank distress stifle innovation during the great depression?” *Journal of Financial Economics*, vol. 114, no. 2, pp. 273–292, 2014.

4. Purnomo, A., Susanti, T., Rosyidah, E., Firdausi, N., and Idhom, M. (2022). Digital economy research: thirty-five years insights of retrospective review. *Procedia Comput. Sci.* 197, 68–75. doi:10.1016/j.procs.2021.12.119

5. Akberdina, V. V. (2018). Digitalization of industrial markets: regional characteristics. *Manag.* 9 (6), 78–87. doi:10.29141/2218-5003-2018-9-6-8

6. Савина Т. Н. Цифровая экономика как новая парадигма развития: вызовы, возможности и перспективы// *Финансы и кредит*. 2018. Т. 24. No3. С. 579–590.

7. Котляров И.Д. Финтех: сущность и модели реализации// *ЭКО*. 2018. No12 (534). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/finteh-suschnost-i-modeli-realizatsii>.

8. D'amato, D., and Korhonen, J. (2021). Integrating the green economy, circular economy and bioeconomy in a strategic sustainability framework. *Ecol. Econ.* 188, 107143. doi:10.1016/j.ecolecon.2021.107143

9. Bouchoucha, N. (2021). The effect of environmental degradation on health status: do institutions matter? *J. Knowl. Econ.* 12 (4), 1618–1634. doi:10.1007/s13132-020-00680-y

10. Ali, E. B., Anufriev, V. P., and Amfo, B. (2021). Green economy implementation in Ghana as a road map for a sustainable development drive: a review. *Sci. Afr.* 12, e00756. doi:10.1016/j.sciaf.2021.e00756
11. Adeshola, I., Usman, O., Agoyi, M., Awosusi, A. A., and Adebayo, T. S. (2023). “Digitalization and the environment: the role of information and communication technology and environmental taxes in European countries,” in *Natural resources forum* (Oxford, UK: Blackwell Publishing Ltd).
12. Wu, J., Guo, S., Huang, H., Liu, W., and Xiang, Y. (2018). Information and communications technologies for sustainable development goals: state-of-the-art, needs and perspectives. *IEEE Commun. Surv. Tutorials* 20 (3), 2389–2406. doi:10.1109/COMST.2018.281230.
13. Niebel, T. (2018). ICT and economic growth—Comparing developing, emerging and developed countries. *World Dev.* 104, 197–211. doi:10.1016/j.worlddev.2017.11.024.
14. Wang, J., Wang, K., Dong, K., and Shahbaz, M. (2022b). How does the digital economy accelerate global energy justice? Mechanism discussion and empirical test. *Energy Econ.* 114, 106315. doi:10.1016/j.eneco.2022.106315.
15. Li, Y., Yang, X., Ran, Q., Wu, H., Irfan, M., and Ahmad, M. (2021). Energy structure, digital economy, and carbon emissions: evidence from China. *Environ. Sci. Pollut. Res.* 28, 64606–64629. doi:10.1007/s11356-021-15304-4.
16. Kuntsman, A., and Rattle, I. (2019). Towards a paradigmatic shift in sustainability studies: a systematic review of peer reviewed literature and future agenda setting to consider environmental (Un) sustainability of digital communication. *Environ. Commun.* 13 (5), 567–581. doi:10.1080/17524032.2019.1596144.
17. MacLean, D., Andjelkovich, M. and Vetter, T. (2007). Internet governance and sustainable development: Towards a common agenda. Retrieved September, 2010, from [http://www.iisd.org/pdf/2007/igsd\\_common\\_agenda](http://www.iisd.org/pdf/2007/igsd_common_agenda)
18. Meyliyev O.R., & Gofurova K. (2024). Fiskal siyosatni rivojlantirishda "yashil" budjet daromadlarini o'rganish. *Yashil Iqtisodiyot Va Taraqqiyot*, 2(4), 9–14. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14211456>
19. <https://uz.council.science/news/call-experts-ipcc-climate-change-cities/>
20. [Methodological Guidelines for Environmentally Related Tax Revenue Accounts](https://doi.org/10.1787/d752d120-en), OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/d752d120-en>



## MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



### SANOAT TARMOQLARINING TARKIBIY TUZILISHINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

**Kaxorova Anora Nusratovna**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
“Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrası assistenti  
e-mail: [kahorovaanora1991@gmail.com](mailto:kahorovaanora1991@gmail.com)

**DOI:** [https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2\\_iss1/a165](https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a165)

**Annotatsiya.** Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning strategik maqsadlariga erishish innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish asosida sanoat tarmoqlari salohiyatidan kompleks foydalanishni hisobga olgan holda rivojlanishning agrar-industrial modelidan industrial-agrar modeliga bosqichma-bosqich o'tishni nazarda tutadi. mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi. Zamonaviy dunyoda sanoat salohiyatini shakllantirish va undan samarali foydalanish iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy omili bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, "...ichki siyosat mamlakat iqtisodiyotining potentsial tashqi tahdidlardan zaifligini kamaytirishga, barqaror iqtisodiy rivojlanishning samarali mexanizmlari va ichki manbalarini izlash va rivojlantirishga, barqaror iqtisodiy o'sishni, samarali bandlikni, barqaror foydalanishni ta'minlashga qaratilishi kerak.

**Kalit so'zlar:** sanoat, kapital, mehnat, tovarlar bozori (IS), pul bozori (LM), to'lov balansi, foiz stavkasi, kapital qaytimi, texnologiyalar, kapital jamg'arilishi, jamg'arish darajasi.

### ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СТРУКТУРНОЙ СТРУКТУРЫ ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ

**Кахорова Анора Нусратовна**

Ташкентский государственный экономический университет,  
Ассистент кафедры «Экономическая теория»

**Аннотация.** Достижение стратегических целей развития народного хозяйства предполагает поэтапный переход от аграрно-промышленной модели развития к индустриально-аграрной модели с учетом комплексного использования потенциала отраслей промышленности на основе широкого внедрения инновационных технологий. технологии. конкурентоспособность экономики страны. В современном мире формирование промышленного потенциала и его эффективное использование служат основным фактором обеспечения экономической безопасности. При этом «...внутренняя политика должна быть ориентирована на снижение уязвимости экономики страны к потенциальным внешним угрозам, поиск и развитие эффективных механизмов и внутренних источников устойчивого экономического развития, обеспечение устойчивого экономического роста, эффективной занятости и устойчивое использование.

**Ключевые слова:** промышленность, капитал, труд, товарный рынок (ИС), денежный рынок (LM), платежный баланс, процентная ставка, доходность капитала, технологии, накопление капитала, норма накопления.

---

## **THEORETICAL BASIS OF IMPROVING THE STRUCTURAL STRUCTURE OF INDUSTRIAL INDUSTRIES**

**Kakhorova Anora Nusratovna**

Tashkent State University of Economics,

Assistant, Department of “Economic Theory”

**Abstract.** Achieving the strategic goals of national economic development implies a step-by-step transition from the agrarian-industrial model of development to the industrial-agrarian model, taking into account the comprehensive use of the potential of industrial sectors based on the wide introduction of innovative technologies. competitiveness of the country's economy. In the modern world, the formation of industrial potential and its effective use serve as the main factor of ensuring economic security. At the same time, "...domestic policy should be focused on reducing the vulnerability of the country's economy to potential external threats, searching for and developing effective mechanisms and internal sources of sustainable economic development, ensuring sustainable economic growth, effective employment, and sustainable use.

**Keywords:** industry, capital, labor, goods market (IS), money market (LM), balance of payments, interest rate, return on capital, technology, capital accumulation, savings rate.

### **Kirish**

O‘zbekistonning sanoati milliy iqtisodiyotning muhim ustunlaridan biri bo‘lib, mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘shida katta rol o‘ynamoqda. Mamlakatda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar sanoat sektorining rivojlanishini jadallashtirishga xizmat qilmoqda.

Sanoatda o‘shish sur‘atlari ko‘p jihatdan texnologik taraqqiyot, innovatsiyalar va yangi bozorlarga chiqish bilan bog‘liq. 2023–2024 yillarda sanoatning o‘shishi asosan:

- Yuqori texnologiyalar va raqamli yechimlar bilan bog‘liq. Sun‘iy intellekt, avtomatlashtirish, 3D bosib chiqarish kabi texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonlarida inqilob qilmoqda.

- Yashil energiya (barqaror va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish) sanoat o‘shishini muhim rag‘batlantiruvchi omillardan biri bo‘ldi. Korxonalar ekologik toza yechimlarga investitsiya qilmoqda.

- Xitoy, Hindiston va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari sanoatida yuqori o‘shish kuzatilmoqda, chunki bu hududlar arzon ishchi kuchi va texnologik infratuzilmaning rivojlanishi bilan raqobatbardosh bo‘lib kelmoqda.

Barqaror iqtisodiy o‘shish atrof-muhit himoyasi, ijtimoiy tenglik va iqtisodiy samaradorlik kabi turli omillarni o‘zida aks ettirib, o‘rta va uzoq muddatli istiqbolda ijobiy iqtisodiy rivojlanishga erishish hisoblanadi. Doimiy texnologik rivojlanish jarayonlari bozorda o‘z o‘rnini saqlab turishni maqsadidagi

iqtisodiyotlar, korxonalar va iqtisodiy jarayon ishtirokchilaridan mazkur sharoitlarga moslashuvni va yangi texnologiyalarni o'zlashtirishni talab etadi. Ishlab chiqarishdagi miqdoriy va sifat o'zgarishlar natijasida yuzaga keladigan yuqori raqobat sababli, hukumat vakillari - milliy iqtisodiyotni, biznes vakillari esa o'z ishlab chiqarish faoliyatlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratishlari lozim. Hozirda buyumlar interneti, katta hajmdagi ma'lumotlar, bulutli hisoblash kabi bir qator ilg'or texnologiyalar yaratilgan bo'lib, ular iqtisodiyotning turli sohalaridagi faoliyatni yaxshilash va yuqori samaradorlikka erishishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiyalar “Sanoat-4.0” yoki “To'rtinchi Sanoat Inqilobi” konsepsiyasining bir qismi hisoblanadi [1]. Sanoat-4.0 - sanoat inqilobining yangi davri hisoblanib, ishlab chiqarish jarayonlari, inson va texnologiyalar, shu bilan birgalikda ta'minotchilar, ishlab chiqaruvchilar va xaridorlar o'rtasidagi munosabatlarni keyingi bosqichga olib chiqmoqda. Sanoat-4.0 ning ajralmas qismi bo'lgan buyumlar internet, bulutli hisoblash, sun'iy intellekt va katta hajmdagi ma'lumotlar hamda ularning biznes jarayonlariga integratsiya qilinishi sanoat tarmoqlarini nafaqat operatsion jihatdan, balki iqtisodiy va atrof-muhit nuqtai nazardan ham yaxshilanishiga olib keladi.

#### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-sonli farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining sanoatni innovatsion rivoltantirish strategiyasida belgilangan asosiy yo'nalishlar doirasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar doirasida ham hududlarda sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish masalalari alohida ahamiyatga ega. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning strategik maqsadlariga erishish innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish asosida sanoat tarmoqlari salohiyatidan kompleks foydalanishni hisobga olgan holda rivojlanishning agrar-industrial modelidan industrial-agrar modeliga bosqichma-bosqich o'tishni nazarda tutadi. mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi. Zamonaviy dunyoda sanoat salohiyatini shakllantirish va undan samarali foydalanish iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy omili bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, “...ichki siyosat mamlakat iqtisodiyotining potentsial tashqi tahdidlardan zaifligini kamaytirishga, barqaror iqtisodiy rivojlanishning samarali mexanizmlari va ichki manbalarini izlash va rivojlantirishga, barqaror iqtisodiy o'sishni, samarali bandlikni, barqaror foydalanishni ta'minlashga qaratilishi kerak.

Milliy iqtisodiyotning raqobatdosh ustunliklarini shakllantirish uning tarkibiy elementlarini tizimli tahlil qilishni taqozo etadi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, yalpi ichki mahsulotni yaratishdagi ishtirokiga qarab, moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasi ajralib turadi. Olimlar "sfera", "sanoat", "sektor" tushunchalarini o'rganadilar. Moddiy ishlab chiqarishga quyidagilar kiradi: sanoat; qishloq va o'rmon xo'jaligi; yuk tashish; qurilish; axborot, aloqa va hisoblash xizmatlari va boshqalar. Shu bilan birga, rivojlanishning sanoat



modelida asosiy ahamiyat sanoatga beriladi. Sanoat milliy iqtisodiyotning eng muhim tarmog'i bo'lib, jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanish darajasiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

Beqaror makroiqtisodiy sharoitlarda sanoatning o'sish sur'atlarini oshirish, modernizatsiya qilish bo'yicha belgilangan maqsadlarga erishish va rivojlanishning innovatsion yo'lga o'tish bevosita hudud iqtisodiyotining sanoat sektori holatiga bog'liq. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash va o'zini-o'zi ta'minlashga e'tibor qaratish zarurati hududlarning tabiiy resurs salohiyatidan samarali foydalanishni hisobga olgan holda boshqaruv va sanoatni rivojlantirishning prinsipial yangi mexanizmlarini yaratishni nazarda tutadi. Boshqacha aytganda, milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi viloyat iqtisodiyotini samarali boshqarish bilan shartlanadi.

Shu munosabat bilan M.A. Soldak ta'kidlaydiki, “Mamlakat iqtisodiyotining muhim xususiyati uning hududiy tuzilishi bo'lib, u ishlab chiqaruvchi kuchlarning davlat hududi bo'ylab taqsimlanishining turli tomonlarini ochib beradi. Hududlar yagona iqtisodiy makon doirasida faoliyat yuritadi, uning zaruriy sharti umumiy qonunchilik, pul tizimi va bojxona hududining birligi, energetika, transport va kommunikatsiya tizimlarining ishlashi hisoblanadi. Shu bilan birga, har bir hududning o'ziga xos ichki iqtisodiy maydoni va tashqi bilan aloqasi bor”. Shu bilan birga, “inson va tabiiy kapitaldan oqilona foydalanish, shuningdek, milliy iqtisodiyotning samaradorligini, diversifikatsiyasini va raqobatbardoshligini oshirish yo'nalishida institutsional rivojlanish salohiyatini mustahkamlash kelajakdagi rivojlanishni sanoatlashtirishni belgilab beradi. Sanoat-4.0 davrining iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholash, sanoat korxonalarini va milliy iqtisodiyot transformatsiya jarayonlarida yuzaga keladigan murakkabliklar hamda imkoniyatlarini tadqiq qilish maqsadida ushbu tadqiqot ishida ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, tizimli va qiyosiy tahlil, ekspert baholash va iqtisodiy-statistik usullardan foydalanilgan.

Shu bilan birgalikda, mavzuni yanada batafsil yoritish maqsadida xorijiy va mahalliy adabiyotlar hamda xalqaro tashkilotlarning sharhlari tadqiq etilgan. Sanoat-4.0 korxonalarining samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish maqsadida turli raqamli texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayoniga integratsiyalashuvi bilan tavsiflanadi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Maqolada tizimli tahlil, statistik-iqtisodiy va ilmiy abstraksiya, qiyosiy va tarkibiy tahlil hamda qator boshqa usullardan foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar**

Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, sanoat tarmog'i qo'shilgan qiymatida 7,8 % ga o'sish kuzatilgan. Ushbu tarmoqdagi ijobiy dinamika, asosan: tog'-kon sanoati va ochiq



konlarni ishlash tarmog‘ining qo‘shilgan qiymati – 0,5 % ga; ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat – 9,4 % ga;

elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash tarmog‘i – 4,3 % ga;

suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish tarmog‘i – 0,3 % ga ijobiy o‘shishi hisobiga ta‘minlandi.

O‘zbekistonda 2023-yilning yanvar-may oylarida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish o‘tgan yilning shu davriga nisbatan real ko‘rsatgichlarda 5,7 foizga o‘tdi. Taqqoslash uchun, 2022-yilning mos davrida sanoatda 6 foizlik o‘shish qayd etilgan edi. 2023-yilning yanvar-may oylarida qurilish sektori 4,7 foizga o‘tdi hamda 2022-yilgi 3,2 foizlik o‘shish bilan taqqoslaganda qurilish sohasida o‘shish sezilarli darajada tezlashdi. O‘zbekistonda chakana savdo hajmining o‘shish surati 2022-yilning yanvar-may oylarida qayd etilgan 10,1 foizga nisbatan biroz sekinlashib joriy yilda 7,2 foizni tashkil etdi. 2023-yilning yanvar-may oylarida O‘zbekistonda bozor xizmatlari hajmi 12,6 foizga o‘sganligi kuzatildi.

**1-jadval**

**2024-yil yanvar-iyunoylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish**

<b>Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi</b>	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>fizik hajm indeksi (o‘shish sur‘ati, % da)</i>
Tog‘ - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (ulardan:)	8 020,5	112,6
Metall rudalarini qazib olish	7 792,1	111,7
Boshqa turdagi tog‘-kon sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish	228,4	148,1
Qayta ishlash sanoati (undan)	51 249,1	109,7
Oziq - ovqat mahsulotlari, ichimliklar tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	1 713,5	106,7
To‘qimachilik mahsulotlari, kiyimlar, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	2 053,2	114,3
Yog‘och va po‘kak buyumlar, pohlol va to‘qish uchun materiallardan buyumlari, qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari, mebellar ishlab chiqarish	132,0	116,3
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	4 130,2	97,5
Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	33,2	70,9

Manba: <http://stat.uz>. ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.


Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, 51 249,1 mlrd. so‘mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 80,8 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o‘shining asosiy omili bo‘lib, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 12,6 foizga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatda - 9,7 foizga o‘shishi kuzatildi.

Shuningdek, elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalashda - 2,5 foizga hamda suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilitatsiya qilish sanoatida - 29,1 foizga pasayishi kuzatildi.

**Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash** – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (ko‘mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o‘z ichiga oladi.

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalaridan tomonidan 2024- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8 020,5 mlrd so‘m yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 12,6 % ga to‘g‘ri keldi.



**1-rasm. Ishlab chiqaradigan sanoat**

Manba: <http://stat.uz>.

Ishlab chiqaradigan sanoat – bu tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma‘lum turi uchun birdan – bir to‘liq me‘zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o‘z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 51 249,1 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 80,8 % ni tashkil etdi.

Oʻtgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,4 % ni (2023- yilning yanvar-iyun oylarida – 0,1 %), oʻrta-yuqori texnologiyali – 9,0 % (10,2 %), oʻrta-quyi texnologiyali – 82,9 % (82,3 %) va quyi texnologiyalisi – 7,7 % (7,4 %)ni tashkil etdi.

### **Xulosa**

Yuqoridagilardan xulosa qiladigan boʻlsak, Oʻzbekiston davlat mustaqilligiga erishganidan keyin Sanoatda tub islohotlar amalga oshirildi, koʻpgina tarmoqdardagi Sanoat korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarildi va xususiylashtirilib, davlataksiyadorlik, korporativ, jamoa, xususiy va boshqa tashkiliyhuquqiy mulk shakllariga aylantirildi. Respublika iqtisodiyotida muhim oʻrinda turadigan Sanoat tarmoklarida tuzilmaviy qayta tarkiblash amalga oshirildi, koʻplab kichik va oʻrta korxonalar tashkil topdi. Chet el kapitali bilan hamkorlikda koʻpgina Sanoat tarmoklarida qoʻshma korxonalar tashkil etildi (Sanoat tarmoqlariga, ayniqsa, mahalliy xom ashyoni qayta ishlaydigan tarmoqlarga chet el investitsiyalarini jalb etish faol davom etmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati**

1.Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-sonli "2022-2026-illarda O'zbekiston Respublikasining innovation rivojlanish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://x.uz/uz/docs/6102462>

2. Oʻzbekiston Respublikasi Davlat Statistika qoʻmitasi. Yillik statistik toʻplam,2024 yil.

3. SH.SH. Shodmonov, .U.V Gʻofurov Iqtisodiy nazariya. Maʼruzalar matni.-T:“Fan va texnologiya” nashr-2018.

4. A.SH. Bekmurodov, U.V. Gʻofurov Oʻzbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash: natijalar va ustivor yoʻnalishlar: oʻquv qoʻllanma. – T:TDIU-2007.

5. Vaxobov A.V. Uzbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash tarkibiy uzgarishlarni amalga oshirish-barkaror iqtisodiy oʻsish omili sifatida. Uzbekiston iqtisodiyotining barkarorligi va mutanosibliigi. konferensiya materiallari. -T.: 2009 y. Sentyabr. -B.6.

6. Vaxabov A.V., Baxtiyorov B.B. Jaxonda rakamli iqtisodietii "Rakamli iqtisodiyotni shakllantirishning xorij taxribasidan samarali foydalanii ullari? mavzusidagi xalkaro onlayn ilmiy- amaliy konferensiya materialari. -T: TMI. 2020 y. -B.16.

7. Shukurov J.S. Uzbekiston respublikasida rakamli iqtisodiyot va elektron xukumat tizimini rivojlantirish istikbollari. Rakamli iqtisodiyotni

shakllantirishdagi zamonaviy trendlar: tajriba, muammo va istikbollar: Respublika onlayn ilmiy-amaliy anjumani maBruza tezlari tuplami. -T.: TDIU, 2020. -B.53.

8. Ziyayev T.M. Tarmoq va korxonalar iqtisodiyoti. – T: TDIU 2007

9. <http://parliament.gov.uz/uz/events/committee/23612/>.

10. <http://stat.uz>.

11. <https://kun.uz/uz/55904832>

12. [https://strategy.uz/index.php?category=liberalizatsiya\\_ekonomika&lang=uz](https://strategy.uz/index.php?category=liberalizatsiya_ekonomika&lang=uz)

13. <https://kun.uz/uz/news/2022/05/20/ozbekiston-iqtisodiyotini-rivojlantirish-uchun-nimalar-qilish-kerak-jahon-banki-ekspertlari-tavsiyalari>



# MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



## FUNDAMENTAL ISSUES OF MODERN FINANCE IN THE CONTEXT OF A GREEN ECONOMY

**Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li**

Tashkent State University of Economics, faculty of Turtkul, assistant,  
[nodirbek.jumaniyazov@430gmail.com](mailto:nodirbek.jumaniyazov@430gmail.com)

**Umarov Muzaffar Yusupbayevich**

Tashkent State University of Economics, faculty of Turtkul, assistant,  
[umarovmuzaffar1988@gmail.com](mailto:umarovmuzaffar1988@gmail.com)

**Otamurodov Rasulbek Botirovich**

Tashkent State University of Economics, faculty of Turtkul, assistant,  
[rasulbekbatirovich77@gmail.com](mailto:rasulbekbatirovich77@gmail.com)

**DOI:** [https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2\\_iss1/a166](https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a166)

**Abstract.** The green economy is currently one of the crucial directions of economic development, aimed at ensuring harmony between environmental sustainability and the financial system. This article thoroughly analyzes the fundamental issues of modern finance in the context of a green economy. Specifically, it examines the impact of green financial instruments on economic growth and environmental sustainability, strategies for attracting green investments, and directions for developing green financing.

The research methodology encompasses analysis of scientific literature, statistical and empirical analyses, regression analysis, and expert interviews. Additionally, international experience and the practice of green financing in Uzbekistan are considered. The research results indicate that the green financing model positively impacts economic development and accelerates sustainable development processes by directing investment flows towards environmental projects.

However, there are certain challenges in transitioning to a green economy, including a shortage of financial resources, underdeveloped legal regulatory mechanisms, and a low level of investor awareness in the field of green finance. This article also develops recommendations for addressing these issues, based on the need for government policy, private sector participation, and the development of innovative financial technologies.

The results of this study serve to formulate theoretical and practical recommendations for ensuring financial stability, stimulating green investments, and supporting environmentally balanced economic growth in the context of a green economy. This article will serve as an important source of information for researchers, economists, and political scientists conducting research in the fields of green economy and finance.

**Keywords:** green economy, green finance, environmental sustainability, green bonds, green investments, financial sustainability, sustainable development, green financing, environmental investments, green loans, green technologies, financial instruments, environmental projects, economic growth, green innovations, carbon neutrality, green energy, renewable energy sources, environmental management, green bond market, ESG investments, carbon market, green banking services, green insurance, sustainable business, environmental tax system.

## YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA ZAMONAVIY MOLIYANING FUNDAMENTAL MASALALARI
Xolmatov (2020)	Huquqiy tartiblarning murakkabligi	QTE bo‘yicha qonunchilikni soddalashtirish, litsenziyalash tizimini yengillashtirish
BMT atrof-muhit dasturi (2021)	Aholining xabardorlik darajasi pastligi	QTE bo‘yicha ta‘lim va targ‘ibot ishlarini kuchaytirish

Ushbu adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya sohasini rivojlantirish uchun iqtisodiy, texnologik va huquqiy yo'nalishlarda islohotlar talab qilinadi. Ko'pgina xalqaro tashkilotlar energiya bozorida raqobatni oshirish va davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiyalarni jalb qilishni muhim omil sifatida ta'kidlaydi.

Shuningdek, adabiyotlar tahlili davomida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining iqtisodiy samaradorligi, ekologik foydalari va texnologik rivojlanish dinamikasi kabi jihatlar ham o'rganildi. Xususan, sohadagi ilmiy izlanishlarning natijalari va tahliliy hisobotlar asosida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining barqaror iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni va ularning mahalliy iqtisodiyotga ta'siri baholandi. Shu bilan birga, rivojlangan davlatlarning qayta tiklanuvchi energiya bo'yicha qonunchilik tajribalari ham o'rganilib, ularning O'zbekiston uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan jihatlari ko'rib chiqildi.

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi:

Metod	Tavsif
Statistik tahlil	O'zbekistonning qayta tiklanuvchi energiya sektori bo'yicha rasmiy ma'lumotlar tahlil qilindi.
Adabiyotlar tahlili	Ilg'or xalqaro tajribalar va mahalliy tadqiqotlar asosida muammolar va yechimlar o'rganildi.
Ekspert so'rovlari	Energetika mutaxassisleri va investorlar bilan intervyular o'tkazildi.
Swot-tahlil	QTE rivojlanishining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlarini baholash uchun ishlatildi.
Comparative Analysis	O'zbekistonning energetika sektori Janubiy Koreya, Xitoy va Germaniya bilan solishtirildi.

Metodik yondashuvlar natijasida O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya sohasini rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan asosiy muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari aniqlandi. Bu tadqiqot natijalari kelgusida ushbu sohada strategik rejalashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotda sifat va miqdoriy tahlil usullari qo'llanildi. Sifat jihatdan huquqiy hujjatlar va ilmiy maqolalar tahlil qilinib, mavjud qonunchilik bazasining qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishga ta'siri baholandi. Shuningdek, O'zbekiston mintaqaviy iqtisodiyotining tahlili asosida qayta tiklanuvchi energiya sohasida amalga oshirilayotgan siyosatlar va dasturlar ko'rib chiqildi.

Miqdoriy tahlilda esa statistik ma'lumotlar, moliyaviy ko'rsatkichlar va xalqaro tashkilotlarning hisobotlari asosida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining iqtisodiy samaradorligi baholandi. Investitsiyalar hajmi, energiya ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari va iqtisodiy rentabellik kabi ko'rsatkichlar hisoblab chiqildi.

Bundan tashqari, komparativ tahlil usulidan foydalanilib, O'zbekistonning qayta tiklanuvchi energiya siyosati boshqa mamlakatlardagi tajribalar bilan



solishtirildi. Bu orqali samarali strategiyalar va potensial o'zgarishlar bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Shuningdek, sohada faoliyat yurituvchi mutaxassislar bilan intervyular o'tkazilib, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan muammolar aniqlashga harakat qilindi. Olingan natijalar asosida ilmiy xulosalar va takliflar ishlab chiqildi.

Tadqiqot jarayonida eksperimental va model tahlil usullaridan foydalanilib, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining uzoq muddatli iqtisodiy samaradorligi prognoz qilindi. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalarning sohadagi o'rni va istiqbollari ham baholandi. Bu esa O'zbekistonda yashil iqtisodiyotning rivojlanishiga ko'maklashuvchi amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga yordam beradi.

### **Tahlil va natijalar**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining rivojlanishiga qator muammolar to'sqinlik qilmoqda. Xususan, texnologik bazaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, kapital qo'yilmalar hajmining yetishmovchiligi va davlat tomonidan imtiyozlarning cheklanganligi asosiy muammolar sifatida ajralib turadi. Shu bilan birga, huquqiy bazaning murakkabligi ham xususiy sektorning sohadagi ishtirokiga to'sqinlik qilmoqda.

O'zbekistonning quyosh va shamol energetikasini rivojlantirish imkoniyatlari katta bo'lishiga qaramay, hozirgi vaqtda qayta tiklanuvchi energiyaning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi past darajada qolmoqda. Bu holat energiya ishlab chiqarish tizimining modernizatsiyaga muhtoj ekanligini ko'rsatadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha turli loyihalar amalga oshirilgan bo'lsa-da, investitsiyalar yetarlicha darajada emas.

**O'zbekiston mintaqaviy iqtisodiyotida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishdagi muammolar quyidagilar:**

**1. Investitsiya va moliyaviy yetishmovchilik** – Qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini amalga oshirish uchun katta mablag' talab etiladi. Moliya yetishmovchiligi ko'plab loyihalarning amalga oshirilishini sekinlashtiradi.

**2. Texnologik rivojlanish darajasining pastligi** – Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va ulardan samarali foydalanish uchun yetarli tajriba va infratuzilma yetishmaydi.

**3. Yuqori dastlabki xarajatlar** – Quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish dastlab katta investitsiyani talab qiladi, bu esa xususiy investorlarni cho'chitadi.

**4. Normativ-huquqiy tartibotlarning murakkabligi** – Ruxsatnomalar, litsenziyalar va subsidiya tizimlarining murakkabligi yangi loyihalarning ishga tushirilishiga to'sqinlik qiladi.

**5. Kadrlar tanqisligi** – Mutaxassislar yetishmovchiligi yangi texnologiyalarni joriy etishda qiyinchilik tug‘diradi.

**6. Tarmoq infratuzilmasining zaifligi** – Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini umumiy tarmoqqa integratsiya qilish tizimining yetarlicha rivojlanmaganligi elektr ta‘minotining barqarorligiga ta‘sir qiladi.

**7. Aholining xabardorlik darajasi pastligi** – Yashil energiyaga o‘tishning afzalliklari haqida aholining xabardorligi yetarli emas, bu esa jamoatchilik qo‘llab-quvvatlashining sust bo‘lishiga olib keladi.

**O‘zbekiston mintaqaviy iqtisodiyotida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishdagi muammolarni yechimlari quyidagilar:**

**1. Investitsiyalarni jalb qilish** – Davlat-xususiy sheriklik asosida loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kengaytirish zarur.

**2. Texnologik modernizatsiya** – Ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, xorijiy tajribalarni o‘rganish va mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish lozim.

**3. Subsiya va soliq imtiyozlari** – Qayta tiklanuvchi energiya sohasiga kiritiladigan investitsiyalar uchun soliq yengilliklari va subsidiyalar ajratish mexanizmlarini takomillashtirish kerak.

**4. Huquqiy tartiblarni soddalashtirish** – Energetika sohasidagi tartib-qoidalarni soddalashtirish va investitsiyalar uchun qulay sharoit yaratish muhim.

**5. Kadrlar tayyorlash** – Universitetlarda qayta tiklanuvchi energiya bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash dasturlarini kuchaytirish va kasb-hunar markazlarini rivojlantirish lozim.

**6. Tarmoq infratuzilmasini yaxshilash** – Elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilish va energiya saqlash texnologiyalarini keng joriy etish zarur.

**7. Aholini xabardor qilish va motivatsiya berish** – Yashil energiya afzalliklari haqida keng targ‘ibot ishlari olib borish, aholiga moliyaviy rag‘batlantirish tizimlarini taklif qilish lozim.

Ushbu chora-tadbirlar O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining rivojlanishini jadallashtirishga va iqtisodiy taraqqiyotga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishga yordam beradi.

Shuningdek, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, davlat tomonidan rag‘batlantiruvchi mexanizmlar joriy etilishi lozim. Soliq imtiyozlari, subsidiyalar va grantlar orqali xususiy sektorni jalb qilish ushbu sohaning rivojlanishiga xizmat qilishi mumkin. Xalqaro moliyaviy institutlar va xorijiy investorlardan mablag‘ jalb qilish ham muhim omillardan biridir. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi kutilmoqda. Xususan, energiya ta‘minotining diversifikatsiyasi, ekologik tozalik darajasining oshishi va yangi ish o‘rinlarining yaratilishi ushbu jarayonning muhim natijalaridan hisoblanadi.

Bundan tashqari, qayta tiklanuvchi energiyadan keng foydalanish energiya importiga bog‘liqlikni kamaytirishga va milliy iqtisodiyotning barqarorligini oshirishga xizmat qiladi. O‘zbekistonda energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilish ham muhim yo‘nalishlardan biridir. Hozirgi vaqtda elektr tarmoqlari va energiya saqlash tizimlari eskirgan bo‘lib, ularning yangilanishi qayta tiklanuvchi energiya manbalarining rivojlanishiga sezilarli darajada ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Energetika tarmog‘ini optimallashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali energiya samaradorligini oshirish mumkin. Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish istiqbollari mavjud bo‘lib, bu boradagi asosiy to‘siqlar texnologik, moliyaviy va huquqiy omillar bilan bog‘liq. Davlat siyosati, xususiy sektor ishtiroki va xalqaro hamkorlikning kuchaytirilishi ushbu sohaning jadal rivojlanishini ta‘minlashga xizmat qiladi.

### **Muhokama**

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining rivojlanishiga qaratilgan sa‘y-harakatlar sezilarli bo‘lsa-da, muammolar hal etilmaganicha qolmoqda. Eng katta to‘siqlardan biri – texnologik yetishmovchilik va moliyalashtirish muammolaridir. Zamonaviy energiya saqlash texnologiyalari va elektr tarmoqlarining modernizatsiya qilinishi talab etiladi. Biroq, bu jarayonning qimmatligi investorlar va davlat resurslariga katta yuk bo‘lmoqda.

Bundan tashqari, huquqiy muhit ham ushbu sohaning jadal rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Qayta tiklanuvchi energiyaga doir qonunchilik tizimi takomillashtirilishi, soliqlar va bojxona imtiyozlari orqali investorlar rag‘batlantirilishi lozim. Xususiy sektorning ishtirokini oshirish uchun shaffof va barqaror tartib-qoidalar joriy etilishi zarur.

Shuningdek, xalqaro tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, davlat tomonidan subsidiyalar ajratish va texnologik innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash qayta tiklanuvchi energiya sektorining rivojlanishiga kuchli turtki beradi. O‘zbekiston ham ushbu yo‘nalishda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirishi lozim.

Mamlakat mintaqaviy iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda, quyosh va shamol energetikasini rivojlantirishga e‘tibor qaratishi lozim. Quyosh panellari va shamol turbinalarini keng joriy qilish orqali energiya mustaqilligiga erishish mumkin. Shu bilan birga, gidroenergetika imkoniyatlarini ham kengroq o‘rganish va ulardan samarali foydalanish muhim.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish uchun texnologik modernizatsiya, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va huquqiy muhitni yaxshilash zarur. Shuningdek, davlat, xususiy sektor va xalqaro hamkorlik o‘rtasida samarali hamkorlik o‘rnatilishi lozim. Ushbu yondashuvlar

orqali O‘zbekiston mintaqaviy energiya bozorida raqobatbardoshlikni oshirib, barqaror va yashil iqtisodiyot sari dadil qadam tashlashi mumkin.

### **Xulosa**

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston qayta tiklanuvchi energiya sohasida sezilarli salohiyatga ega bo‘lsa-da, mavjud muammolar ushbu sohaga sarmoya jalb qilish va barqaror rivojlanishga to‘sqinlik qilmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish uchun davlat siyosati va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Agar taklif qilingan strategiyalar amalga oshirilsa, O‘zbekiston mintaqaviy iqtisodiyotida yetakchi yashil energetika markaziga aylanishi mumkin.

O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining rivojlanishi iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu sohaga qaratilgan sa‘y-harakatlar mamlakatning energiya xavfsizligini ta‘minlash, barqaror rivojlanish va ekologik muammolarni kamaytirishga yordam beradi.

Mavjud muammolarni bartaraf etish uchun davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish talab etiladi. Shuningdek, xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali moliyaviy va texnologik resurslardan samarali foydalanish muhim.

Agar O‘zbekiston qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishga jiddiy e‘tibor qaratadigan bo‘lsa, kelajakda iqtisodiy mustaqillikni oshirish, ekologik barqarorlikni ta‘minlash va yangi ish o‘rinlarini yaratish imkoniyatlariga ega bo‘ladi. Shu sababli, ushbu sohada izchil va uzoq muddatli strategiyalar ishlab chiqilishi lozim. Bundan tashqari, ilmiy-tadqiqot ishlariga e‘tibor qaratish, mahalliy kadrlarni tayyorlash va texnologik yangiliklarni joriy etish orqali sohaga innovatsion yechimlarni olib kirish maqsadga muvofiqdir. Davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni kengaytirish esa qayta tiklanuvchi energiya sohasining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yashil energetikani rivojlantirish bo‘yicha davlat strategiyasi" to‘g‘risidagi qarori. 2022-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi. "O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish dasturi". Toshkent, 2021.
3. O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi. "O‘zbekistonda energetika sektori statistik ko‘rsatkichlari". 2023-yil hisobot.
4. Mahmudov O. "Energiya tejamkorligi va innovatsiyalar". Toshkent, 2021.
5. Toshmatov X., Yoqubov N. "Quyosh energetikasining O‘zbekistondagi istiqbollari". Toshkent, 2020.

6. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi. "Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi va uning O‘zbekistonda rivojlanish yo‘nalishlari". Toshkent, 2022.

7. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. "Respublikada qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarini joriy etish masalalari". Toshkent, 2019.

8. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi. "Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining qishloq xo‘jaligidagi o‘rni". Toshkent, 2021.

9. Komilov U. "Gidroenergetikaning O‘zbekiston energetika tizimidagi ahamiyati". Toshkent, 2020.

10. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi. "Ekologik barqarorlik va energiya tejamkorligi". Toshkent, 2023.



## MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



### SANOAT KORXONALARIDA ENERGIYA INTENSIVLIGI VA UNGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI

**Dexkanova Nargiza Sharifovna,**

TDIU, “Yashil” iqtisodiyot kafedrasida dotsenti v.b,

e-mail: [dexkanovashox@mail.ru](mailto:dexkanovashox@mail.ru),

ORCID: 0009-0004-7730-2020

**Najmiddinov Yahyo Fazliddin o’g’li,**

TDIU, “Yashil” iqtisodiyot kafedrasida katta o’qituvchisi,

“Yashil” iqtisodiyot tayanch doktoranti,

e-mail: [y.najmiddinov@tsue.uz](mailto:y.najmiddinov@tsue.uz)

[yakhyonajmiddinov1996@gmail.com](mailto:yakhyonajmiddinov1996@gmail.com)

ORCID: 0009-0004-0221-0121

**DOI:** [https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2\\_iss1/a169](https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a169)

**Annotatsiya.** Energiya samaradorligi va energiya intensivligi bugungi kunning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyatining asosini tashkil qilmoqda. Energiya samaradorligi va energiya intensivligi atamaları energiya resurslaridan foydalanishni baholashda ishlatiladi, lekin ularning ma’nolari, metodologiyasi va qo’llanilishi jihatidan farqalanadi. Ushbu maqolada energiya samaradorligi (ES) va energiya intensivligining (EI) sanoat korxonalaridagi ahamiyati hamda ularga ta’sir etuvchi omillar, asosiy kapitalga investitsiyalar (AKI), sanoat korxonalarida maxsulot ishlab chiqarish xajmi (SMX), sanoat korxonalarida energiya istemoli xajmi (EX) hamda qyta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish xajmini (QTE) ekonometrik statistik jihatdan tahlil qilinib kelgusi davr uchun energiya intensivligining pargnoz qiymatlari keltirib o’tilgan.

**Kalit so’zlar:** Energiya intensivligi, Energiya samaradorligi, asosiy kapitalga investitsiya, sanoat korxonalarida, energiya istemoli, Holt-winters nonseasonal smoothing model.

### АНАЛИЗ ЭНЕРГОЕМКОСТЬ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ И ФАКТОРЫ, ОКАЗЫВАЮЩИЕ НА НЕГО ВЛИЯНИЕ

**Дехканова Наргиза Шарифовна**

Ташкентский государственный экономический университет,

и.о. доцент кафедры «Зелёный» экономики

**Наджмиддинов Яхё Фазлиддин угли**

Ташкентский государственный экономический университет

Старший преподаватель кафедры «Зеленой» экономики,

Докторант кафедры «зеленой» экономики



**Аннотация.** Энергоэффективность и энергоемкость являются краеугольными камнями сегодняшней экономической и социальной значимости. Термины «энергетическая эффективность» и «энергоемкость» используются для оценки использования энергетических ресурсов, но различаются по своему значению, методологии и применению. В данной статье анализируется значимость показателей энергоэффективности (ЭЭ) и энергоемкости (ЭИ) на промышленных предприятиях и факторы, на них влияющие, инвестиции в основной капитал (ОК), объем производства продукции (ОПП) на промышленных предприятиях, объем потребления энергии (ОПЭ) на промышленных предприятиях, объем производства возобновляемых источников энергии (ВИЭ) с использованием эконометрической статистики, а также приводятся прогнозные значения энергоемкости на будущий период.

**Ключевые слова:** энергоемкость, энергоэффективность, инвестиции в основной капитал, промышленные предприятия, потребление энергии, модель несезонного сглаживания Хольта-Винтерса.

---

## **ANALYSIS OF ENERGY INTENSITY AND FACTORS AFFECTING IT IN INDUSTRIAL ENTERPRISES**

**Dekhkanova Nargiza Sharifovna**

Tashkent State University of Economics,  
Associate Professor of the "Green" Economy Department

**Najmiddinov Yakhyo Fazliddin ugli**

Tashkent State University of Economics,  
Senior lecturer of the "Green" Economy Department,  
PhD student of the "Green" Economy Department

**Abstract.** Energy efficiency and energy intensity are the basis of today's economic and social significance. The terms energy efficiency and energy intensity are used to assess the use of energy resources, but differ in their meanings, methodology and application. This article analyzes the importance of energy efficiency (ES) and energy intensity (EI) in industrial enterprises and the factors affecting them, fixed capital investments (AKI), the volume of product production in industrial enterprises (SMX), the volume of energy consumption in industrial enterprises (EX) and the volume of production of renewable energy sources (QTE) using econometric statistics, and presents forecast values of energy intensity for the future period.

**Keywords:** Energy intensity, Energy efficiency, fixed capital investment, industrial enterprises, energy consumption, Holt-winters nonseasonal smoothing model.

### **Kirish**

Energiya intensivligi – bu iqtisodiy faoliyatning har bir birligi (masalan yalpi ichki mahsulot, sanoat, ishlab chiqarish, mahsulot va xizmatlar) uchun sarflangan energiya miqdorini ifodalaydi. Bugungi kunda iqtisodiy rivojlanishga e'tibor qaratayotgan har bir mamlakat energiya intensivligiga e'tibor berishi muhim ahamiyat kasb etadi. Energiya intensivligi energiya resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samradorligini va davlat yoki jamiyat ma'lum bir

tarmoqning energiyaga qay darajada qaram ekanligini aks ettiradi. Quyida energiya intensivligini hisoblanshning fo‘rmulasi keltirib o‘tilgan.

$$EI = (ES)/IK$$

Bu yerda:


EI = energiya intensivligi ko‘rsatkichi

ES = umumiy energiya sarfi (GJ, kW s yoki tonna neft ekvivalenti)

IK = iqtisodiy ko‘rsatkich (YaIM, sanoat mahsulotlari hajmi, yalpi ishlab chiqarish)

Yuqoridagi formuladan ko‘rinib turibdiki energiya intensivligi nafaqat sanoat iqtisodiy ko‘rsatkichi darajasida, balkim makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha ham muhim ahamiyatga ega.

Sanoat korxonalarida energiya intensivligining ahamiyati quyidagi jihatlar bo‘yicha muhim hisobalanadi. Ushbu jihatlar sanoat korxonalarida ijobiy yoki salbiy energiya intensivligi tushunchalarini ham yoritib beradi.



*Manba: Izlanishlar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan*

### **1-rasm. Sanoat korxonalarida energiya intensivligining asosiy jihatlari [1]**

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki energiya intensivligi bilan energiya samaradorligi o‘rtasida o‘zaro teskari bog‘lanish mavjud ekanligini ko‘rishimiz mumkun.

Energiya intensivligi – bu mamlakat yoki tarmoqning energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini aniqlash uchun asosiy hisoblash usuli hisobalanadi. Uni tushunish orqali energiya siyosati, investitsiyalar va innovatsiyalarni samarali yo‘naltirish mumkun. O‘zbekiston uchun bu ko‘rsatkichni pasaytirish

energiya xavfsizligi va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda bugungi kunda hal qiluvchi ro’l o’ynaydi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarini olib qaraydigan bo’lsak, energiya intensivligi ko’rsatkichlari past ekanligini ko’ramiz, bu esa o’z navbatida ushbu davlatda energiyadan maksimal darajada samaralik foydalanilmoqda degan tushunchani beradi. Quyida 2022-2023 yil ma’lumotlari asosida energiya intensivligi eng yuqori va eng past bo’lgan mamlakatlar jadval ko’rinishida keltirib o’tilgan.

**1-jadval**

**Energiya intensivligi eng yuqori bo’lgan 5 ta mamlakat [2]**

<b>Mamlakat</b>	<b>Energiya intensivligi ko’rsatkichi (MG/\$, YaIM)</b>	<b>Asosiy sabablar</b>
Ukraina	15,2	Og’ir sanoat, eskirgan infratuzulma, ko’mirga qaramlik
Rossiya	12,5	Neft va gaz qazib olish sanoati, energiya samaradorligi past
Janubiy Afrika	11,8	Ko’mir asosida elektr energiyasini ishlab chiqarish, og’ir sanoat
Qozog’iston	10,9	Neft va metallurgiya sanoati, sovuq iqlim
Saudiya Arabistoni	10,5	Neftga qaram iqtisodiyot, energiya subsidiyalari

1-jadvaldan ko’rinib turibdiki energiya intensivligi yuqoriligining asosiy sabablari yuqoridagi mamlakatlarda infratuzilmaning eskirganligi, og’ir sanoatga bo’lgan qaramlilik, neftga qaramlilik va ko’mir va neft asosiy energiya ishlab chiqarish manbasi hisoblanadi. Ukraina bilan Rossiya energiya intensivligi yuqoriligi bo’yicha eng yuqori o’rinlarda turadi. Buning eng asosiy sababi og’ir sanoatga ixtisoslashganligi hisoblanadi.

Quyida berilgan jadvalda esa energiya intensivligi eng past bo’lgan 5 ta mamlakat ko’rsatib o’tilgan.

**2-jadval**

**Energiya intensivligi eng past bo’lgan 5 ta mamlakat [3]**

<b>Mamlakat</b>	<b>Energiya intensivligi ko’rsatkichi (MG/\$, YaIM)</b>	<b>Asosiy sabablar</b>
Shveysariya	2,3	Yuqori texnologiyalar, xizmat ko’rsatish sohasi, energiya tejoychi siyosat
Daniya	2,5	Qayta tiklanuvchi energiyaga o’tish (40% shamol energiyasi), energiya standartlari
Irlandiya	2,7	IT va farmatsevtika sanoati, energiya samaradorlii dasturlari
Angliya	3,1	Og’ir sanoatning pasayishi, “Yashil energiya” loyihalari
Singapur	3,2	Aqlii shahar infratuzilmasi, energiya boshqaruvi tizimlari

Rivojlangan mamlakatlar (Shveytsariya, Daniya) energiya intensivligini pasaytirish uchun yuqori texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiyaga investitsiyalarni jalb qilish mamlakatning bugungi kundagi ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. O‘zbekistonda energiya intensivligi og‘ir sanoat tuzilmasi, fosil yoqilg‘iga qaramlik va texnologik modernizatsiyaning cheklanganligi tufayli yuqori bo‘lishi bilan ajralib turadi. O‘zbekistonning energiya intensivligi ko‘rsatkichi 6,5-8,5 MJ/\$ YaIm oralig‘ida hisoblanadi. Bu ko‘rsatkichni pasaytirish uchun qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini, energiya samaradorligi dasturlari va sanoat modernizatsiyasi amalga oshirish bugungi kunda yanada jadallashmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holatda bugungi kunda mamlakatimizda ham energiya intensivligini pasaytirish hamda energiya samaradorligiga erishish maqsadida bir qator maqsadlik ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan prezidentimiz tashabbuslari bilan ushbu sohada bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Ular orasida aholining turmush farovonligini yaxshilashga, ishlab chiqarish hajmini oshirishga, iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurashishga hamda iqtisodiy rivojlanishga qaratilgan bir qator maqsadli rejalar va dasturlar mavjud. E‘tiborga molik jihati shuki muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tomonidan 2025-yil “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e‘lon qilinishi ham bugungi kunda ushbu sohaning ahamiyatini yanada yoritib bermoqda[4].

Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2025 yil 30 yanvardagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Atrof muhitni asrash va “Yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi[5] PF-16 sonli farmonida umumiy quvvati 4,5 GVtga teng bo‘lgan yirik quyosh va shamol elektr stansiyasini ishga tushirish, quvvati 785 MVtga tegn bo‘lgan panellarini o‘rnatish, quvvati 225MVtga teng bo‘lgan gidroelektr stansiyalarini barpo etish orqali jami qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmida 26 foizga va jami generatsiya quvvatlarini tarkibidagi ulushini 50 foizga yetkazish vazifasini ustuvor vazifa sifatida aytib o‘tilgan. Bu shuni anglatadiki bugungi kunda barcha davlatlar singari mamlakatimizda ham energiya sohasi davlatning ustuvor sohasi sifatida o‘z ahamiyatini ortirib bormoqda.

### **Mavzuga oid adabiyotlar sharhi**

Energiya intensivligi – bu sanoat korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulot birligiga sarflangan energiya miqdorini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkich. U korxonalarining energiya samaradorligi, iqtisodiy barqarorligi va atrof-muhitga ta‘sirini baholashda muhim rol o‘ynaydi. So‘nggi yillarda energiya resurslarining qisqarishi va iqlim o‘zgarishi tufayli ushbu mavzu global miqyosda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Energiya intensivligi nisabatn murakkab tushuncha bo‘lganligin uchun bugungi kunga qadar ushbu sohada ilmiy izlanishlar ko‘p

emas. Ammo energiya intensivligi bo'yicha Allcot va Greenstone[6] o'z tadqiqotida energiya samaradorligi dasturlarining uy xo'jaligi va korxonalariga iqtisodiy foydasini aniqlab, ularning energiya sarfini 20-30% ga kamaytirish mumkinligini ko'rsatib o'tgan. Shuningdek, Jaffe va Stavins[7] “Energy Efficiency Gap” tushunchaini fanga kiritib, energiya samaradorligi texnologiyalarini joriy qilishdagi to'siqlar (masala, moliyaviy cheklovlar, ma'lumotlar yetishmasligi va hokazolar)ni tahlil qilib ularning energiya intensivligidagi ahamiyatini yoritib berishgan.

Sanoat korxonalarida energiya intensivligini kamaytirishda texnologik yangiliklar asosiy o'rinni egallaydi. Hasanbeigi[8] va boshqalar o'z tadqiqotida energiya samarador texnologiyalarni (EST) joriy qilish orqali energiya sarfini 20–40% ga kamaytirish mumkinligini ko'rsatgan. Masalan, elektr motorlarini yuqori samaradorlikdagi modellarga almashtirish yoki ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish kabi choralar samarali hisoblanadi.

Energiya boshqaruvi tizimlari (EMS) energiya intensivligini nazorat qilishda muhimdir. Thollander[9] va boshqalar korxonalarda energiya monitori va audit tizimlarini joriy qilish orqali energiya sarfini 15% ga kamaytirish mumkinligini aniqlagan.

O'zbekiston 2020-yilda qabul qilingan “Yashil iqtisodiyot”[10] konsepsiyasida sanoat korxonalarida energiya intensivligini 2030-yilga kelib 25% ga kamaytirishni maqsad qilib qo'ygan. Xalqaro tajribaga ko'ra (masalan, EU Energy Efficiency Directive), subsidiyalar va soliq imtiyozlari korxonalarini energiya tejavchi texnologiyalarni joriy qilishga asosiy investitsiyalar oqimi qaratilgan.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Ushbu maqolada energiya samaradorligi (ES) va energiya intensivligining (EI) sanoat korxonalaridagi ahamiyati hamda ularga ta'sir etuvchi omillar, asosiy kapitalga investitsiyalar (AKI), sanoat korxonalarida maxsulot ishlab chiqarish xajmi (SMX), sanoat korxonalarida energiya istemoli xajmi (EX) hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish xajmini (QTE) ekonometrik statistik jihatdan tahlil qilinib kelgusi davr uchun energiya intensivligining pargnoz qiymatlari keltirib o'tilgan.

### **Tahlil va natijalar**

Sanoat korxonalarida energiya intensivligini baholash bo'yicha shartli ravishda energiya intensivligiga ta'sir qiluvchi omillar sifatida bir necha omillar tanlab olingan. Ushbu omillarning ta'sirini oshirish yoki kamaytirish orqali mamlakatimizda umumiy sanoat tarmoqlari kontekstida energiya intensivligini kamaytirish mumkun, va energiya samaradorligini oshirishimiz mumkun. Biz shartli ravishda tanlab olgan omillar va energiya intensivligi ko'rsatkichlari quyidagi jadvalda keltirib o'tilgan.



**Sanoatda energiya intensivligi ko'rsatkichlari va ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillar [11]**

Y	EI	AKI	EX	SMX	QTE
2010	1,363527	16463,7	51976,3	38119	8000
2011	1,109675	19500	52806,2	47587,1	6000
2012	0,920891	24455,3	52999,6	57552,5	7000
2013	0,773253	30490,1	54618,6	70634,8	7000
2014	0,663789	37646,2	55766	84011,6	6000
2015	0,59077	44810,4	57658,1	97598,2	7000
2016	0,528299	51232	59100,5	111869,4	7000
2017	0,408693	72155,2	60820,1	148816	8000
2018	0,267258	124231,3	62896,6	235340,7	6000
2019	0,196975	195927,3	63531,6	322535,8	6000
2020	0,180346	210195,1	66500,7	368740,2	5000
2021	0,156482	239552,6	71364,6	456056,1	5000
2022	0,134238	266240	74269,3	553265	5000
2023	0,118371	356071,4	78005,4	658991,7	7000

*Manba: Izlanishlar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan*

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turganidek Sanoatda energiya intensivligi ko'rsatkichlari va ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillar yillar kesimida berib o'tilgan. Energiya intensivligi (EI) bu shuni anglatadiki har bitta mahsulotni ishlab chiqarishga ketgan energiya yoki yoqilg'idan qay darajada samarali foydalanganlik ko'rsatkichidir. U qanchalik past bo'lsa energiya samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi. Jadvalda energiya intensivligi ko'rsatkichi yillar davomida doimiy ravishda kamayib bormoqda. Masalan, 2010 yilda 1,363527 bo'lgan EI 2023 yilda 0,118371 gacha kamaygan. Bu sanoatda energiya samaradorligi oshganligini va energiyadan foydalanish samaradorligi yaxshilanganligini ko'rsatadi. So'ngi yillarda mamlakatimida ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada oshganligi bugungi kunda energiya intensivligida o'zining yaqqol ifodasini ko'rsatmoqda. Biz tahlil qilish jarayonida EI ligini Y omil ya'ni natijaviy omil sifatida tanlab olganmiz, X1 omil sifatida esa asosiy kapitalga investitsiyalar (AKI), X2 omil sifatida sanoat koronalarida energiya xajmi (EX), X3 omil sifatida sanoat mahsulotlari xajmi (SMX) hamda X4 omil sifatida qayta tiklanuvchi energiya xajmi (QTE) tanlab olingan.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki so'ngi yillarda AKI ko'rsatkichi yillar davomida sezilarli darajada o'sib bormoqda. 2010 yilda 16463,7 bo'lgan AKI 2023 yilda 356071,4 gacha ko'tarilgan. Bu sanoat sohasida asosiy kapitalga investitsiyalarining kuchayganligini va yangi texnologiyalar yoki infratuzilmalar qo'llanilayotganligini ko'rsatadi. O'z navbatida ishlab chiqarish xajmi ortgani sari sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun energiya xajmi ham yillar kesimida o'sish va kamayish ko'rsatkichlariga ega. Sanoat korxonalarida energiya istemoli




xajmi 2010 yilda 51976,3 bo'lgan bo'lsa 2023 yilda 78005,4 gacha oshgan. Bu mamlakatning energiya xajmi salohiyati oshganligini va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini ko'rsatadi. Sanoat mahsuloti xajmi SMX ko'rsatkichi ham doimiy ravishda o'sib bormoqda. 2010 yilda 38119 bo'lgan SMX 2023 yilda 658991,7 gacha ko'tarilgan. Bu sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarish hajmi so'ngi yillarda sezilarli darajada oshganligini ko'rsatadi.

Energiya intensivligining pasayishi va boshqa ko'rsatkichlarning o'sishi sanoat sohasida energiya samaradorligi, investitsiyalar va eksport salohiyati yaxshilanganligini ko'rsatadi. Bu tendentsiyalar iqtisodiyotning rivojlanishi va barqarorligini ko'rsatadi.

Izlanishlar natijasida sanoat korxonalarida energiya intensivligini pasayishiga yoki oshishiga ta'sir etuvchi omillar sifatida AKI hamda QTE ni X1 va X2 omillar sifatida tanlab oldik. Statistik jihatdan uning ahamiyatini va ishonchlilik jihatlarini satada dasturlash tilida tahlil qilishga harakat qildik.

Quyida berilgan rasmda energiya intensivligi, asosiy kapitalga investitsiyalar hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining o'zaro bog'liqligi keltirib o'tilgan.



2-rasm. EI, QTE hamda AKI larning o'zaro bog'liqligi grafikasi

Bu yerda omillar va natijaviy belgilarni logariflashdan asosiy maqsad o'lchov birliklari har hil bo'lganligi uchun bir hil o'lchov birligiga keltirishdan iborat. Yuqoridagi rasmdan ko'rinib turibdiki energiya intensivligi hamda qayta tiklanuvchi energiya o'rtasida to'g'ri bog'lanish ammo energiya intensivligi hamda asosiy kapitalga investitsiyalar o'rtasida teskari bog'lanish mavjudligini ko'rishimiz mumkun.

Birinchi navbatda qayta tiklanuvchi energiya hamda energiya intensivligi o'rtasidagi bog'liqlikni chiziqli regressiya orqali tahlil qilishga harakat qilamiz.

**EI hamda QTE o‘rtasidagi chiziqli regressiya jadvali [12]**

lnEI	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf Interval]	Sig
lnQTE	3.633	1.39	2.61	.023	.605 6.661	**
Constant	-33.904	12.171	-2.79	.016	-60.423 -7.385	**
Mean dependent var		-2.089	SD dependent var		0.973	
R-squared		0.363	Number of obs		14	
F-test		6.835	Prob > F		0.023	
Akaike crit. (AIC)		35.620	Bayesian crit. (BIC)		36.898	

\*\*\*  $p < .01$ , \*\*  $p < .05$ , \*  $p < .1$

Yuqoridagi regressiya tenglamasi jadvalida biz ahamiyat berishimiz lozim bo‘lgan eng sosiy jihatlar uning p-qiymati hisobalandi, p qiymat shuni anglatadiki bizning regressiya tenglamamiz qay darajada ahamiyatlik ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu qiymat 0,05 dan past bo‘lsihi lozim, shunda tenglama ta’sir kuchiga hamda ahamiyatiga ega hisoblanadi. Bizda ushbu qiymat 0,023 ga teng va ushbu tenglama hamayitalik.

Shuningdek R kvadrat ham ushbu tenglama natijasi, ya’ni bir barobarga QTE manbalari hajmini umumiy energiya hajmida oshiradigan bo‘lsak, EI hajmi 36 barobargacha kamayadi. To‘g‘ri ushbu qiymat juda ham past, ammo bugungi kunda energiya intensivligi ahamiyatidan kelib chiqadigan bo‘lsak bu ham yaxshi ko‘rsatkich. Biz yuqoridagilardan klib chiqib QTEga bog‘liq bo‘lgan EI ko‘rsatkichi chiziqli regressiya tenglamasini quyidagicha yozishimiz mumkun.

$$\text{LnEI} = -33.904 + \text{lnQTE} * 3.633$$

Umuman olganda, lnQTE lnEI ustun statistik ahamiyatga ega va model umumiy jihatdan ahamiyatlidir. Biroq, R-squared qiymati nisbatan past bo‘lib, boshqa o‘zgaruvchilarni modelga qo‘shish yaxshiroq tahlil qilishga yordam berishi mumkin. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holatda chiziqli regressiya tenglamasini quyidagicha yozishimiz mumkun.

Yana bir ta’sir etuvchi omil sifatida tanlab olingan asosiy kapitalga investitsiyalarni energiya intensivligidagi ahamiyati bo‘yicha regression tahlilini amalga oshiramiz.

Ikkinchi ta’sir etuvchi omil sifatida biz asosiy kapitalga investitsiyalarni tanlab olganmiz. Birinchi navbatda p qiymatga e’tibor qaratadigan bo‘lsak 0,00 ga teng, bu shundan dalolat beradiki energiya intensivligiga asosiy kapitalga investitsiyalarning statistic jihatdan ahamiyati juda yuqori. R kvadrat ko‘rsatkichi ham 0,99 ga teng, bu qanchalik 1 ga yaqinlashsa regressiya modelida

tanlab olingan omillar qanchalik darajada muhim va aniq ekanligini ko’rsatib beradi.

**4-jadval**

**EI hamda AKI o’rtasidagi chiziqli regressiya jadvali [13]**

lnEI	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
lnAKI	-0.912	.022	-40.98	0	-0.961	-0.864	***
Constant	8.151	.251	32.49	0	7.604	8.698	***
Mean dependent var		-2.089	SD dependent var			0.973	
R-squared		0.993	Number of obs			14	
F-test		1679.351	Prob > F			0.000	
Akaike crit. (AIC)		-27.346	Bayesian crit. (BIC)			-26.068	

\*\*\*  $p < .01$ , \*\*  $p < .05$ , \*  $p < .1$

Ushbu omillar o’rtasidagi ko’rsatkichlar turli hil o’lchov birliklarida bo’lganligi sababli logarifmlash orqali bitta logarmik ko’rsatkichga keltirib olingan.

$$\text{LnEI} = 8.151 - 0.912 \cdot \text{lnAKI}$$

Umumiy xolda, lnAKI lnEI o’rtasida juda yuqori statistik ahamiyatga ega va model umumiy jihatdan juda ahamiyatlidir. R-squared qiymati juda yuqori bo’lib, modelning yaxshi mos kelishini ko’rsatadi. Bu natijalar shuni ko’rsatadiki, lnAKI lnEI ni tahlil qilishda juda muhim rol o’ynaydi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holatda chiziqli regressiya tenglamasini quyidagicha yozishimiz mumkun.

**Xulosa va takliflar**

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, energiya mamlakatning eng ustuvor vazifasi sifatida qaraydigan bo’lsak, har jabhada rivojlanish uchun avvalo iqtisodiy jihatdan rivojlanish lozim, bunga erishishda energiya intensivligi hamda samaradorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Izlanishlar natijasida quyidagi xulosa va takliflarni ta’kidlab o’tishni lozim deb topdik.

**Texnologik Innovatsiyalarni Rag’batlantirish.**

Sanoat korxonalarida energiya samaradorligini oshiruvchi yangi texnologiyalarni joriy etish. Innovatsion loyihalarni qo’llab-quvvatlash uchun davlat grantlari va subsidiyalarni kengaytirish.

**Aktivlardan Samarali Foydalanish.**

Korxonalarda resurslarni samarali boshqarish tizimlarini joriy etish. Xodimlarning malakasini oshirish bo’yicha trening va kurslarni tashkil etish.

**Energiya Tekshiruvlari va Monitoring.**

Korxonalarda muntazam energiya tekshiruvlari o‘tkazish. Energiya iste‘molini real vaqt rejimida monitoring qilish uchun zamonaviy tizimlarni joriy etish.

### **Energiya Samaradorligi Dasturlari.**

Davlat tomonidan energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha milliy dasturlar ishlab chiqish. Energiya tejamkorligi bo‘yicha kompaniyalar o‘tkazish va jamoatchilikni xabardor qilish.

### **Ma’lumotlar Bazasini Kengaytirish.**

Energiya intensivligini tahlil qilish uchun kengroq ma’lumotlar bazasidan foydalanish. Boshqa omillarni (energiya narxlari, iqlim sharoitlari) ham hisobga olgan holda tadqiqotlarni olib borish.

### **Energiya Intensivligini Kamaytirish.**

Energiya intensivligini kamaytirish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki ekologik barqarorlikni ta’minlash uchun ham muhimdir.

### **Integratsiyalashgan Yondashuv.**

Energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar kompleks va integratsiyalashgan bo‘lishi kerak. Bu texnologik, tashkiliy va ma’muriy chora-tadbirlarni o‘z ichiga olishi kerak.

### **Uzoq Muddatli Rejalar.**

Energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha uzoq muddatli rejalar ishlab chiqish va ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun davlat, xususiy sektor va ilmiy muassasalar o‘rtasida yaqin hamkorlik zarur.

Ushbu taklif va mulohazalar sanoat tarmog‘ida energiya resurslaridan samaraliroq foydalanish va energiya intensivligini kamaytirishga yordam beradi, bu esa iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Xalqaro Energiya Agentligi (IEA) ([www.iea.org](http://www.iea.org)) kabi tashkilotlar energiya intensivligi va boshqa energiya ko‘rsatkichlari bo‘yicha global va mintaqaviy ma’lumotlari.
2. Jahon Banki ([www.worldbank.org](http://www.worldbank.org)) ham energiya intensivligi bo‘yicha ma’lumotlar nashri.
3. Reuters Energy ([www.reuters.com/sectors/energy](http://www.reuters.com/sectors/energy)), energiya intensivligi bo‘yicha ma’lumotlari.
4. [2025 yil “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e’lon qilindi](#)
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 08.01.2024 yildagi 13-son qarori, “Qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida energiya ta’minotini tashkil etish sohasini tartibga solish va rivojlantirish to‘g‘risida”, [13-son 08.01.2024. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida energiya ta’minotini tashkil etish sohasini tartibga solish va rivojlantirish to‘g‘risida](#)

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 13.03.2024 yildagi 128-son qarori, “O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini 2024-2025-yillarda amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, [128-сон 13.03.2024. O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini 2024-2025-yillarda amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida](#)

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2025-yil 30-yanvardagi “«O‘zbekiston-2030» strategiyasini «atrof-muhitni asrash va «yashil iqtisodiyot» yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmoni, [“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida](#)

8. Allcott, H., & Greenstone, M. (2012). Is There an Energy Efficiency Gap? Journal of Economic Perspectives, 26(1), 3-28. DOI: 10.1257/jep.26.1.3

9. Jaffe, A. B., & Stavins, R. N. (1994). The Energy-Efficiency Gap: What Does It Mean? Energy Policy, 22(10), 804-810. DOI: 10.1016/0301-4215(94)90138-4

10. Hasanbeigi, A., Price, L., & Lin, E. (2010). Energy Efficiency Improvement and Cost Saving Opportunities for the Glass Industry. Lawrence Berkeley National Laboratory. URL: <https://eta-publications.lbl.gov/sites/default/files/lbnl-3988e.pdf>

11. Thollander, P., Danestig, M., & Rohdin, P. (2007). Energy Management Practices in Swedish Energy-Intensive Industries. Journal of Cleaner Production, 15(13-14), 1316-1323. DOI: 10.1016/j.jclepro.2006.07.029

12. Manba: Izlanishlar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

# Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali



+998 71 239 28 13

Tashkent, Uzbekistan

ilmiymaktab@gmail.com

www.laboreconomics.uz